Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini hamda fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, ularning o'z mol-mulkiga ega bo'lishi, ya'ni aktivlari hisobini yuritish va ularning ishlatilishi, mavjudligi, saqlanishini, shuningdek hisobdan chiqarilishi auditi muammolariga alohida to'xtalib o'tish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini izchillik bilan bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarishda NNTlarni tashkil etish va ularning moliyaviy manbalari asosi bo'lgan maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish muhimdir [1]. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013 yil 12 dekabrda «Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2085 sonli Qarorining qabul qilinishi fikrimiz isbotidir [3]. Ushbu Qaror ijrosini bajarish maqsadida 2016 yilning o'zida Parlament komissiyasining qarorlari asosida 12 milliard so'mdan ortiq mablag' davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalari shaklida ajratildi. Bu mablag'lar NNTlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari loyiha va dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Maqolamizda dastlab «maqsadli tushumlar» so'zining mazmuni va mohiyatini

o'rganishimiz shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ta'limotlarda bu tushuncha «ko'rsatkich» sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, bu tushuncha boshqa sinonim so'zlar bilan ham nomlanadi, masalan, maqsadli moliyalashtirish, maqsadli mablag'lar, maqsadli fondlar, grantlar, davlat subsidiya va boshqalar shular jumlasidandir.

Buxgalteriya hisobiga oid qonun hujjatlarida hamda ular asosidagi boshqa iqtisodiy adabiyotlarda maqsadli tushumlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'larining tashkil etish manbalaridan biri, ya'ni daromadlar manbaining bir turi sifatida e'tirof etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyotni innovatsion boshqapuv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning natijalarini umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish masalalari xorij olimlaridan A.Arens, A.A.Apxipov, P.V.Plotnikov, V.V.Pugachyov [5, 6] va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

MDH mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni tashkil etishning ayrim metodologik jihatlarini L.V. Yegorova, L.V.Gusarova kabi olimlar asarlarida umumiy yoritilgan [8,9].

Mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini va ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha bir qator

olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Xususan, B.T. Yuldashev, I.A. Indina, Sh.U. Xaydarov, E.A. Indina kabi olimlar «Негосударственные некоммерческие организации в Узбекистане: правовое регулирование, экономические основы деятельности, бухгалтерский учет и налогообложение в свете последних изменений законодательства» nomli asarlarida O'zbekistonda NNTlar faoliyatini buxgalteri hisobi va soliqqa tortish orqali tartibga solish masalalari [7] yoritilgan, professor K.B.Axmedjanov «Хо'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit metodologiyacini takomillashtirish» [12] mavzusidagi ilmiy asarida ichki auditni o'tkazish metodologiyasini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan bo'lsa, O.I.Ne'matovning «Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish» nomli ilmiy asarlarida NNTlardi buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha amaliy taklif, tavsiyalar qisman yoritilgan [11].

Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodchi olimlarning fikrlariga asosan yirik tijorat kompaniyalari va aktsiyadorlik jamiyatlari hamda temir yo'l transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy uslubiy asoslari yoritilgan. Biroq, nodavlat notijorat tashkilotlarida ichki auditni tashkil etish uslubiyoti va uni o'tkazishning huquqiy asoslariga e'tibor qaratilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqola mavzusi bo'yicha tadqiqotlar jarayonida NNTda maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirishda umumlashtirish, guruhlashtirish, qiyosiy tahlil, tahliliy amallarni bajarish, induktiv va deduktiv, dalillar olish, jarayonlarni kuzatish kabi ilmiy usullardan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Iqtisodiyotning hozirgi tarkibiy o'zgarishlari sharoitida davlat tomonidan maqsadli tushumlarning berilishi va ular aniq belgilangan vazifalarga sarflanishi aksariyat holatlarda NNT tomonidan amalga oshirilmoqda. Chunonchi, NNTlar amaliyotida xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tanlovlarda maxsus grantlarni yutib olish, ularga davlat tomonidan subsidiya, dotatsiya hamda soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha katta imtiyozlarning berilishi kabi holatlarni ko'p uchratish mumkin.

«Maqsadli tushumlar» tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni va «Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladigan ma'lumotlar» nomli 10-sonli BHMSda ta'rif berilmagan.

Ushbu yuqordagi normativ hujjatlarni ilmiy o'rganish asosida NNT umumiy xususiyatlaridan va uni nomlanishidan kelib chiqqan holda, «maqsadli tushumlar» – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'zga shaxslardan belgilangan ma'lum bir maqsadda foydalanilish uchun olingan yoki ularning ixtiyorida qoldirilgan mablag'lar tushuniladi.


Respublikamizda amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra maqsadli tushumlar tarkibiga grantlar, subsidiyalar, a'zolik badallari, maqsadli foydalanish uchun soliq imtiyozlari va boshqa maqsadli mablag'lar kiritiladi. «Maqsadli tushumlar» tushunchasi buxgalteriya hisobi, xususan maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar (8800) nomida uchraydi.

Maqsadli tushumlarni xususiy kapital sifatida buxgalteriya hisobida aks ettirilishi shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- maqsadli foydalanish;

- mablagʻni jalb qilishda xarajatlarning mavjud emasligi;
- aniq shartlar bajarilganda qaytarilmaslik.

Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq NNTning maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish mablagʻlar manbalari quyidagicha tasniflash tavsiya etiladi. (1-rasm).



1.-rasm: NNTda maqsadli tushumlarning manbalari koʻra tasniflanishi

Shu oʻrinda Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 129-moddasiga asosan notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining taʼminoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga koʻra va (yoki) kelib tushgan mablagʻlar soliq toʻlovchining daromadi sifatida qaralmaydi [3]. NNTning moliyaviy hisobotida barcha maqsadli tushumlar schyotlari boʻyicha maʼlumotlarning yigʻindisi aks ettiriladi.


Ilmiy tadqiqotlarimiz shuni koʻrsatadiki, xoʻjalik yurituvchi subʼektlarda umumiy buxgalteriya hisobi xususiyatlari toʻgʻrisida iqtisodchi olim A.A.Karimovning ilmiy asarlarida buxgalteriya hisobi registrlarida har bir moliyalashtirish manbalari boʻyicha ochiq manzara aks etishi lozim deb keltirib oʻtilgan[13].

NNTlarning moliyalashtirish manbalrini oʻrganish va uni hisobda aks ettirilshi takomillashtirish uchun dissertatsiyamizda «maqsadli mablagʻlarni tushumi» atamasini qoʻllashning maqsadga muvofiqligini

asoslashimiz va NNTning xarajatlarini ustav va tadbirkorlik faoliyati oʻrtasida toʻgʻri taqsimlash usulini ishlab chiqishimiz, shuningdek NNT asosiy va qoʻshimcha tadbirkorlik faoliyati hisobini alohida yuritish imkoniyatini yaratishimiz lozim. Bu NNT amaliyotidagi maqsadli tushumlar sarflanishiga aniqlik kirish va ulardagi xatolarni aniqlashda mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etadi hamda NNT qonuniy hamda tadbirkorlik faoliyatini birlashtirganda yuzaga keladigan soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan daromadlarini hisobda aks ettirish imkoniyatini yaratadi.

NNTlar oʻzlarining asosiy «ustav» faoliyatidagi maqsadini toʻgʻridan-toʻgʻri amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlarga maʼlum moliyaviy resurslar kerak boʻladi. Buning uchun esa ularning aksariyatiga nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari va maqsadli tushumlar hisobidan shakllantirish tavsiya etiladi.

Mamlakatimiz qonunchilik normalari, jumladan, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida»gi qonun mazmunini tahlil qiliinganda ham «maqsadli moliyalashtirish» va «maqsadli tushumlar» tushunchalari ahlohida ochib berilmagan degan xulosaga kelish mumkin. Bu tushunchalar NNTlar uchun umumiy qabul qilingan tushuncha sifatida muayyan maqsadlarda foydalanish uchun mulk yoki mablagʻlarni topshirishni anglatadi.



2.-rasm: Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tasniflanishi¹

Nodavlat notijorat tashkilotlari mulki, pul mablag'lari va boshqa shakllarda shakllantirish manbalari sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz:

- muassislardan (ishtirokchilardan, a'zolardan) muntazam va bir martalik tushumlar;
- ixtiyoriy mulkiy badallar va xayriya ehsonlar;
- tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar;
- aksiyalar, obligatsiyalar bo'yicha olingan dividendlar (daromadlar, foizlar);
- boshqa qimmatli qog'ozlar va omonat depozitlar;
- NNTning mulkini ijaraga berish va foylanishga berishdan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar bo'llishi mumkin.

NNTlar soliqqa tortish masalalarini aniqlashtirib olish uchun o'zlarining saqlash va asosiy ustav faoliyati vazifalarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash maqsadida

maqsadli tushumlar ro'yxatini alohida bo'lib yuritish tavsiya etiladi. Bu holatni qo'yida 2-rasmda NNTlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari sifatida notijorat va tijorat faoliyatiga qarab tasniflangan holda hisobga olinishini taklif qilamiz.

Hozirgi vaqtda «Maqsadli moliyalashtirish» schyoti maqsadli daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun ishlatiladi. Tijorat tashkilotlarida ishlab chiqarishni hisobga olish tizimida «Maqsadli moliyalashtirish» hisobvarag'i juda kam qo'llaniladi, bu bugalteriya hisobini tashkil etish metodologiyasi to'g'ri ishlab chiqilmaganligi va amaliyotda nodavlat notijorat tashkilotlari buxgalteriya hisobida foydalanishda noqulayliklarga olib keladi. Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlari turli xil faoliyat turlarini amalga oshirganda va bir qator maqsadli dastur va loyihalarni amalga oshirganda «Maqsadli moliyalashtirish» hisobvarag'i murakkab tuzilma hisoblanadi, chunki u notijorat tashkilotlarning moliyaviy faoliyati to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni o'ziga qaratadi. Shu munosabat bilan «Maqsadli moliyalashtirish» hisobvarag'i bilan nodavlat notijorat tashkilotlarining ish uslubini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

Amaldagi 21-BXMSga muvofiq ishchi schyotlar rejasi NNTlarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydi, shuning uchun NNTlari mablag'larini sarflash bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish bo'yicha ko'plab javobsiz savollar mavjud: masalan NNTlarining asosiy faoliyati doirasida olingan maqsadli mablag'larning shakllanishi va sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish, shuningdek, ushbu NNTlarning tadbirkorlik va notijorat faoliyati o'rtasida xarajatlarni taqsimlanishi hamda zararlarni qoplash tartibi nazarda tutilmagan.

Ushbu muammoni hal qilish uchun maqsadli mablag'larni hisobga olish

¹ <http://ngo.uz> - O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi rasmiy sayti;

metodologiyasi ishlab chiqish lozim, bunda foydalanilgan moliyalashtirish manbalarini «Maqsadli moliyalashtirish» hisobvaragʻidagi analitik va subschyotlarda aks ettirib, moliyaviy hisobot tuzishga ehtiyoji boʻlgan moliyalashtiruvchi yuridik tashkilotlar yoki jismoniy shaxslarga ochiq maʼlumot sifatida taqdim etish tavsiya etiladi. Agar nodavlat notijorat tashkiloti bir nechta maqsadli loyiha va dasturlarga ega boʻlsa, maqsadli dasturlar va loyihalar boʻyicha daromad va xarajatlarni aks ettirish uchun tahliliy hisoblarda ikkinchi darajali tafsilotlardan foydalanish taklif etiladi.

Shuningdek, yuqoridagi holatdan kelib chiqib, «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida faqat tadbirkorlik faoliyati bilan bogʻliq xarajatlarni jamlash, «Umumxoʻjalik xarajatlari» schyotida esa ustav hujjatlarida belgilangan qoʻshimcha tadbirkorlik faoliyati bilan bogʻliq barcha xarajatlarni jamlash taklif etiladi. Oy oxirida nodavlat notijorat tashkilotiga tushumning umumiy miqdorida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushiga mutanosib ravishda ustav hujjatlarida belgilangan tartibda notijorat va tadbirkorlik faoliyati oʻrtasida xarajatlarni taqsimlash boʻyicha buxgalteriya hisobi dalolatnomalarini quyidagi hisoblash algoritmlaridan foydalangan holda tayyorlash tavsiya etiladi (1-jadval).

Bunday holda, taqsimlash koefitsienti nodavlat notijorat tashkiloti xarajatlarining umumiy miqdorini, uning tushumlarining umumiy miqdoriga boʻlish yoʻli bilan aniqlash taklif etiladi:

$$K_t = 767,3 / 1160 = 0,6615$$

K_t - bunda xarajatlarni taqsimlash koefitsienti hisoblanadi³.

Bu asosida nodavlat notijorat tashkilotlarini maqsadli moliyalashtirishni hisobga olishning asosiy qoidalarini ishlab chiqish zarurligi isbotlandi va uning loyihasi ishlab chiqildi hamda maqsadli moliyalashtirish mablagʻlari deb tasniflangan mulklar roʻyxatiga aniqlik kiritildi.

Nodavlat notijorat tashkilotdlarda buxgalteri hisobi va audit sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlarda L.V.Gusarovaning ilmiy ishlarida NNTlar buxgalteriya hisobini yuritish modellarini shakllantirish maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish manbalarini tahlil qilingan va asosiy faoliyat xarajatlari turlariga toʻxtalib oʻtilgan [9]. Ammo, maqsadli moliyalashtirish mablagʻlarini hisobda aks ettirish va ulardan notijorat tashkilotlarining buxgalteriya hisobida foydalanish masalalari boʻyicha turli fikr va tavsiyalarini

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan, 2024y.

1.-jadval

«OʻzNNTMA» tashkilotining ustav va tadbirkorlik faoliyati oʻrtasida xarajatlarni taqsimlash boʻyicha buxgalteriya hisobi algoritmi²

№	NNT faoliyat turi	NNT jami tushumlari, mln soʻm	NNT jami xarajatlari, mln sum («Umum tadbirkorlik xarajatlari» schyotining debeti boʻyicha jami)	Taqsimlash koefitsienti
1	Ustav faoliyati	800,0	800 x 0,6615=529,2	0,6615
2	Tadbirkorlik faoliyati	360,0	360 x 0,6615=238,1	0,6615
	Jami	1160,0	767,3	-

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan, 2024 y.

o'rganish hamda hisobotda umumlashtirish o'rganilmagan, bu esa bizning ilmiy tadqiqot ishimizda notijorat tashkilotlarini maqsadli moliyalashtirishni hisobga olish bo'yicha maxsus Nizomni ishlab chiqish zarurligini asoslashga zamin yaratdi va buni Nizom to'liq amaliyotga joriy qilindi. Biz tomonimizdan taklif etilayotgan Nizom loyihasi «Umumiy qoidalar», «Maqsadli moliyalashtirish hisobi» va «Moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarni oshkor qilish» kabi uchta bo'limdan iborat. Bu maqsadli moliyalashtirish kontseptsiyasini NNT tomonidan tashkilot tomonidan belgilangan maqsadda olingan va foydalaniladigan mulk - maqsadli moliyalashtirish manbai sifatida qaraladi. Bunda maqsadli mablag'lar berilishiga qarab, mulkning batafsil ro'yxati tasniflanishi ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Shuningdek, ish nodavlat notijorat tashkilot aktivlarining haqiqiy holatini aks ettirish uchun amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muayyan o'zgartirishlar kiritish zarurligini asoslaydi. Shu o'rinda nodavlat notijorat tashkilotlarining bir xil mol-mulkini hisobga olishda, yo'l qo'yiladigan qoida buzarliliklarni bartaraf etishga ko'maklashuvchi «nodavlat notijorat tashkilotlarining ustav faoliyati uchun mo'ljallangan moddiy zahiralari» tushunchasini joriy etish tavsiya etiladi.

Hozirgi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari buxgalteriya hisobida materiallarni hisobga olish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy baza mavjud emas, shuning uchun amaldagi normativ hujjatlarda nodavlat notijorat tashkilotlar sektori buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari faqat qisman aks ettirilgan. Bundan tashqari, «Tovar-moddiy zahiralari» 4-BHMSda [17] ham materiallar tushunchasiga alohida to'talib o'tilmagan va unda materiallar inventar turlaridan biri ekanligi ko'rsatilgan. Biroq, masalan, bolalar uylari tarbiyalanuvchilari uchun kiyim-kechak, poyabzal, ko'rpa-

to'shak, o'yinchoqlar va boshqalar, uysizlarga tarqatish uchun kiyim-kechak kabi qimmatbaho buyumlar mehnat ob'ektlari yoki arzon eskiruvchi mehnat vositalariga hech qanday aloqasi yo'q. Diniy mazmundagi diniy buyumlar, kitoblar, audio va video tasmlarni tayyor mahsulotga ham, tovarga ham kiritish mumkin emas, chunki NNTda ular qonun hujjatlarida belgilangan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatda foydalaniladi. Shunga ko'ra, ular tovar-moddiy zahiralarni sotish uchun mo'ljallangan aktivlar sifatida tushunish doirasiga kirmaydi. Ularni taqsimlash natijasida daromad hosil bo'lmaydi, tannarx va foyda tushunchasi qo'llanilmaydi, lekin qonun hujjatlarida belgilangan faoliyat uchun xayriya miqdori shakllanadi.

Xayriya (masalan, insonparvarlik yordami) doirasida taqsimlash uchun mo'ljallangan mol-mulkni hisobga olish masalasini o'rganish joriy balans buxgalteriya hisobining uslubiy xususiyatlarini tanqidiy tushunish va bunday hisobni 1000-»Materiallar» hisobida yuritishni taklif qilish imkonini berdi, ushbu mulklarni bozor qiymati bo'yicha baholash, bu uni maqsadli moliyalashtirishning bir qismiga kiritish va foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobotda oshkor qilish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib «Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish» 4-BHMSga o'zgartirish kiritishning maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, hamda bu esa nodavlat notijorat tashkilotining mulki sifatida ustav faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan quyidagi moddiy inventarlarni tan olishga imkonini beradi:

- tashkilotning boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalaniladigan jihozlar;
- gumanitar yordam sifatida olingan mulklar;
- diniy buyumlar (kitoblar, audio va video kassetalar va boshqalar);
- keyinchalik bepul tarqatish uchun sotib olingan.

Notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobida muammoli masalalarining yana bir jihati asosiy vositalarni hisobga olish va ularning eskirishidir. Amaldagi qonunchilikda notijorat tashkilotlarining asosiy vositalariga amortizatsiyani taqiqlash diqqat bilan oʻrganilishi kerak boʻlgan muhim muammodir.

Amalda nodavlat notijorat tashkilotlari «Asosiy vositalarning eskirishi» balansdan tashqari hisobvaragʻida chiziqli tarzda hisoblangan amortizatsiya summolari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni umumlashtiradi, bu moliyaviy hisobot koʻrsatkichlarining buzilishiga olib kelishi mumkin: masalan balans aktivida asosiy vosita dastlabki qiymati koʻrsatiladi, qoldiq qiymati emas, hamda valyuta balansi asossiz ravishda oshirilib koʻrsatilishi mumkin.

Ustav faoliyati tadbirkorlik faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan nodavlat notijorat tashkilotlarida mahsulot, ishlar, xizmatlarni sotishdan olingan daromadlari yoʻqligi va ularga tannarxni hisoblash zarurati yoʻqligi sababli asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash yuzaga kelmaydi.

Biroq, koʻpchilik NNTlar oʻz faoliyatining ustav maqsadlarini taʼminlash uchun tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishga majbur. NNTlarga asosiy vositalar uchun amortizatsiya hisoblashni taqiqlash tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlashda amortizatsiya kabi

muhim xarajat moddasini hisobga olishga imkon bermaydi, bu esa ularni tijorat tashkilotlariga nisbatan ancha kam foydali holatga keltiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib 5- BHMS 17-bandining 3-qismi tahririda «Notijorat tashkilotlarining asosiy vositalari uchun amortizatsiya toʻgʻridan-toʻgʻri hisob-kitoblar boʻyicha hisoblasin, bu esa tegishli balans hisobvaragʻida (0200) hisobga olinadi» bayon etish tavsiya etiladi [14].

Ilmiy izlanishlarimizda NNTlarning asosiy vositalarini hisobga olish boʻyicha qoʻyidagi uslubiy qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda taklif qilinadi:

- amortizatsiya summalarini NNTning ustav va tadbirkorlik faoliyati oʻrtasida taqsimlash metodikasi, bu notijorat tashkilotlari tegishli faoliyat turlari boʻyicha xarajatlarga kiritishning asoslilikini aniqlashga hamda asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisoblash reestri yuritishga imkon beradi;

- NNTlarda analitik hisobni rivojlantirishga qaratilgan amortizatsiya summalarini alohida dastur va loyihalar oʻrtasida taqsimlash mexanizmi aniqlandi.

Shuningdek NNTda asosiy vositalariga hisoblangan amortizatsiya summalarini qonun hujjatlari va tadbirkorlik faoliyati oʻrtasida taqsimlash mexanizmini (2-jadval) va uni hisoblash algoritimini (3-jadval) taklif qilamiz.

2-jadval

«OʻzNNTMA»ning ustav va tadbirkorlik faoliyati oʻrtasida amortizatsiya miqdorini taqsimlanish mexanizmi⁴

№	NNT faoliyat turi	Jami NNT tushumi, mln soʻm	Taqsimlash koefitsenti	Jami amortizatsiya miqdori, mln soʻm	Buxgalteriya yozuvlari	
					debet	kredit
1	Ustav boʻyicha	800,0	0,6897 (800/1160)	110,3 (160,0 x 0,6897)	2200	0200
2	Tadbirkorlik faoliyati boʻyicha	360,0	0,3106 (360/1160)	49,7 (160,0 x 0,3106)	2010	0200
	Jami	1160,0	1,0	160,0		

⁴ «OʻzNNTMA» maʼlumotlari asosida tomonidan ishlab chiqilgan, 2024y.

3-jadval

NNTlarning ustav va tadbirkorlik faoliyatiga mos keladigan amortizatsiya miqdorini hisoblash⁵

No	Ko'rsatkichlar	Hisoblash algoritmi
1	NNT tomonidan olingan mablag'larning umumiy miqdori	Maqsadli moliyalashtiish+Oylik tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar
2	NNTning ustav faoliyatidan tushumlarning umumiy miqdoridagi ulushiga mos keladigan taqsimlash koeffitsienti (K_{af})	Bir oylik ustav faoliyati uchun tushumlar/ Bir oylik olingan mablag'larning umumiy miqdori
3	NNTning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromaddagi ulushiga mos keladigan taqsimlash koeffitsienti (K_{if})	Bir oylik tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar/Bir oylik umumiy daromad
4	Ustav hujjatlarida belgilangan faoliyat xarajatlari-ga kiritilgan amortizatsiya summasi	Jami hisoblangan amortizatsiya x Tarqatish koeffitsienti
5	Tadbirkorlik faoliyati xarajatlari-ga kiritilgan amortizatsiya miqdori	Jami hisoblangan amortizatsiya x Tarqatish koeffitsienti

Bunda,

K_{af} - Ustav faoliyatidan tushumlarning umumiy miqdoridagi ulushiga mos keladigan taqsimlash koeffitsienti.

K_{if} - Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromaddagi ulushiga mos keladigan taqsimlash koeffitsienti.

Shu o'rinda ikkinchi muammoni hal qilish uchun amortizatsiya summalarini individual dasturlar va loyihalar o'rtasida taqsimlash har bir dastur yoki loyiha uchun maqsadli moliyalashtirish miqdoriga mutanosib ravishda amalga oshirish kerak (4-jadval).

4-javdval

«O'zNNTMA»ning individual dasturlari va loyihalari o'rtasida amortizatsiya summalarini taqsimlanishi⁶

No	Loyiha dastur nomi	Loyiha bo'yicha tushum miqdori, mln so'm	Umumiy tushumdagi ulushi, birlik ulushi	Ustav faoliyatiga muvofiq hisoblangan amortizatsiya miqdori, mln so'm	Buxgalteriya yozuvlari	
1	№1 loyiha «Kompyuter sinfi jihozlari»	1300,0	0,565	926 (1638 x 0,565)	2211	0200
2	№2 loyiha «Psixologik yordam xonasini tashkil etish»	800,0	0,348	570 (1638 x 0,348)	2212	0200
3	№3 loyiha «Ijtimoiy fondlar granti»	200,0	0,087	142 (1638 x 0,087)	2213	0200
	Jami	2300,0	1,0	1638,0		

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan, 2024y.

⁶ «O'zNNTMA» ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan, 2024y.

bu yerda №1 – «Maqsadli moliyalashtirish» schyotining birinchi darajali subschyotida aks ettirilgan muayyan dasturni moliyalashtirish manbai; №2 - ikkinchi darajali tahliliy hisobda aks ettirilgan maqsadli loyiha dasturi yoki loyiha uchun analitik hisobraqami; №3 - uchinchi darajali tahliliy hisoblarda aks ettirilgan aniq maqsadli dastur yoki loyiha uchun analitik hisobraqamini aks ettirish tavsiya etiladi.

XULOSA.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib nodavlat notijorat tashkilotlarida maqsadli tushumlar hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagicha xulosalar qilindi:

- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibiga aniqlik kiritildi;

- NNTning ustav va tadbirkorlik faoliyati o'rtasida xarajatlarni taqsimlash

bo'yicha buxgalteriya hisobi algoritmi ishlab chiqildi;

- NNT asosiy vositalarni hisobga olish bo'yicha uslubiy jihatlari, maqsadli hisoblangan mablag'larni taqsimlash bo'yicha taklif qilingan mexanizmga nisbatan aniqlashtirish bo'yicha takliflar kiritilishi lozim. Bunda NNT ustav hujjatlari va tadbirkorlik faoliyati o'rtasidagi amortizatsiya normalari taqsimotini yuritish uchun NNTning asosiy vositalarining amortizatsiyasini hisoblash reestr shaklini ishlab chiqish va yuritish tavsiya etiladi.

Yuqorida taklif qilingan tuzatishlarni kiritish zarurati NNTlarning dastlabki balansini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish natijalari bilan isbotlanadi. Agarda amaliyotda byudjet muassasalarini nodavlat notijorat tashkilotiga aylantirilgan taqdirda yakuniy byudjet hisobotini va NNTning dastlabki balansini tayyorlashi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni. 11.09.2023y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni, №763-I sonli 14.04.1999 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 dekabrda «Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2085 Qarori;
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, 2024 yil. (O'RQ №599-son, 29.12.2019 y.).
5. Аренс Э.А., Лоббек Дж.К. Аудит. Пер. с англ. М.А.Терехова и др. -М.: Финансы и статистика, 1995. – 205с.;
6. Пугачёв В.В. Внутренний аудит и контроль. Организация внутреннего аудита в условиях экономического кризиса:учебник. - М.:Дело и Сервис, 2010.;
7. Б.Т. Юлдашев, И.А. Индина, Ш.У. Хайдаров, Е.А. Индина. Негосударственные некоммерческие организации в Узбекистане: правовое регулирование, экономические основы деятельности, бухгалтерский учет и налогообложение в свете последних изменений законодательства: методическое пособие/ – Т.: Yurist-media markazi; 2010. – 332 стр.
8. Л.В. Егорова «Учет и аудит в некоммерческих организациях: теория, методология и практика»,//автореферат докторская диссертации. Ростов–на–Дону – 2008, стр.-4.,
9. Л.В. Гусарова, Концепция бухгалтерского учета, аудита и анализа в некоммерческих организациях/Монография. - Казань: Познание, 2009. - 264с.

10. Hojiyev M.S. Further improvement issues of accounting and reporting in non-state non-profit organizations in Uzbekistan.//European Journal of Business and Management – USA, ISSN 2222-1905 (Paper) ISSN 2222-2839 (Online) Vol.9, January, 2017, P. 212-216. (№12; Index Copernicus impact factor №7,17).
11. Неъматов О.И. «Нодавлат нотижорат ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштириш». Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган автореферат. Тошкент - «Iqtisod-Moliya», 2020й. 48б.;
12. Ахмеджанов К.Б. «Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш» Иқтисодиёт фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган автореферат. Тошкент - «Iqtisod-Moliya», 2022й. 61 б.;
13. Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2008. – 52 б.;
14. Mekhriddin Sulaymonovich Khojiev. Improvement of audit in non-state non-profit organizations./International Journal of Social Science Research and Review (IJSSRR)/ Vol.6 No4 2023 April, <https://ijssrr.com/journal/article/view/1205>.
15. Hojiyev M.S. «Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish». iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan avtoreferat. Toshkent - «Iqtisod-Moliya», 2019y. 57 b.
16. Mekhriddin Sulaymonovich Khojiev. Improving audit of financial statements in non-state non-profit organizations/ American Journal of Economics and Business Management/ ISSN: 2576-5973 Vol.6, No.9, 2023 September.
17. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

UDK: 336.64

Ismailova Maxbuba Mirxalilovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliyaviy tahlil kafedrası dotsenti

ХО‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLARDA MOLİYAVIY HOLAT TAHLILI YO‘NALISHLARI

Исмаилова Махбуба Мирхалиловна.
Ташкентский государственный экономический
университет
Доцент кафедры финансового анализа

НАПРАВЛЕНИЯ АНАЛИЗА ФИНАНСОВОГО ПОЛОЖЕНИЯ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ

Ismailova Maxbuba Mirkhalilovna
Tashkent State University of Economics
Associate Professor of the Department of Financial Analysis

AREAS OF ANALYSIS OF THE FINANCIAL POSTION OF ECONOMIC ENTITIES

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatini moliyaviy tahlil qilishning uslubiy yondashuvlari yoritilib, tahlil yo‘nalishlari guruhlab o‘rganilgan va korxonaning moliyaviy holatini aniqlashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi tavsiya qilingan.

Tayanch so‘zlar: moliyaviy hisobot, moliyaviy holat, moliyaviy barqarorlik, balans likvidligi, to‘lov qobiliyati, ekspres tahlil.

Аннотация. В данной статье выделены методические подходы финансового анализа деятельности хозяйствующих субъектов, изучены направления анализа по группам, рекомендована система показателей, используемых при определении финансового состояния предприятия.

Ключевые слова: финансовый отчет, финансовое положение, финансовая устойчивость, ликвидность баланса, платежеспособность, экспресс-анализ.

Annotation. This article highlights methodological approaches to financial analysis of the activities of business entities, studies the areas of analysis by group and recommends a system of indicators used in determining the financial position of an enterprise.

Key words: financial statement, financial position, financial stability, balance sheet, liquidity, solvency, express analysis.

KIRISH

Hozirgi sharoitda moliyaviy tahlil boshqaruv elementiga, moliyaviy hisobotning ishonchliligini baholash vositasiga aylanmoqda. Moliyaviy tahlil iqtisodiy tahlilning bir qismi sifatida moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni taqozo etadi. Agar u faqat moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asoslangan bo'lsa, tashqi tahlil hisoblanib, uni xo'jalik ichidagi tahlilni boshqa jihatlar bilan to'ldirish mumkin. Ularga kapital samaradorligini tahlil qilish, xarajatlar, aylanma mablag'lar, foyda o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish va boshqalarni kiritish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy holat tavsifi, uni aniqlashning ahamiyati va zarurligi xususida turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, L.I.Ivanova va A.S.Bobileva fikricha, "moliyaviy holat tashkilotning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularni joylashtirishning maqsadga muvofiqligi va ulardan foydalanish samaradorligi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan moliyaviy munosabatlar, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi bilan tavsiflanadi" [1].

M.Yu.Raximov, N.N.Mavlanov va N.N.Kalandarovalar ta'kidlashicha, "moliyaviy holat iqtisodiy kategoriya sifatida xo'jalik sub'ektining o'z faoliyatini yuritish, rivojlantirish va o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatlari yuzasidan kapitalning holatini xarakterlaydi. Ya'ni xo'jalik sub'yektining moliyaviy resurslar bilan taminlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni

xarakterlaydi. Moliyaviy holatni o'rganish va tahlil etish orqali xo'jalik sub'yektining faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va uni o'stirish imkoniyatlarini baholashga, korxona ishlab chiqarish, tijorat va moliya faoliyatidan moliyaviy resurslarning kirimiga va ulardan moliyaviy holatni o'stirishda foydalanish darajalariga, moliyaviy natijalarni kutilishini prognozlash va iqtisodiy rentabellikni xo'jalik faoliyatining real imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oshirishning yo'llarini belgilashga, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilashga imkon tug'iladi" [2].

Yuqorida mualliflar tomonidan tayyorlangan boshqa adabiyotda moliyaviy holat xususida quyidagi fikr bildirilgan: "korxonaning moliyaviy holati uning moliyaviy resurslar bilan tahminlanganlik darajasini, raqobatbardoshlik va bankrotlik darajasini, moliyaviy barqarorlik va to'lovga qodirlik holatini, davlat va boshqa xo'jalik sub'yektlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligi kabi ko'rsatkichlarni tavsiflovchi kategoriya va jarayonlar natijalari majmuini o'z ichiga oladi" [3].

Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlar tomonidan nashr etilgan darslikda "moliyaviy raqobatdoshlikka va to'g'ri moliyaviy siyosatni yuritishga korxona foydasini maksimallashtirish, kapital tarkibini optimallashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mulkdorlar (ta'sisshilar), investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy holatning jozibadorligini oshirish, korxona boshqaruvi yuzasidan samarali mexanizmni shakllantirish, shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb etishda bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish orqali erishish mumkin", degan xulosa kelingan [4].

Iqtisodchi olim I.V.Zenkina fikricha, "tijorat tashkilotining moliyaviy holati - bu ma'lum bir vaqtda kapitalning aylanish jarayonidagi holatini va xo'jalik yurituvchi

sub'yektning o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyatini aks ettiruvchi murakkab iqtisodiy kategoriya. Moliyaviy holat tadbirkorlik sub'yektining o'z faoliyatini moliyalashtirish, uning to'lov qobiliyati va investitsiya jozibadorligini saqlab qolish qobiliyatini aks ettiradi" [5].

Biroq ushbu adabiyotlarda moliyaviy holat tahlilining yo'nalishlari atroflicha yoritib berilmagan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda tahlilning taqqoslash, analiz va sintez, ma'lumotlarni guruhlash usuli, induksiya va deduktsiya usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning bir qancha uslubiy yondashuvlari mavjud bo'lib, ular guruhlash, o'zaro aloqadorliklarni aniqlash, ko'rsatkichlar o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, olingan natijalarni umumlashtirishga asoslanadi. Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish metodologiyasi texnik-iqtisodiy tahlilni amalga oshirishning o'ziga xos usullari majmuasini o'z ichiga oladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini moliyaviy tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini moliyaviy tahlil qilish yo'nalishlari


Moliyaviy holatning sifat darajasini aniqlash, uning hisobot davrida yaxshilanishi yoki yomonlashishi sabablarini o'rganish, korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash moliyaviy holatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Ammo har qanday korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish iqtisodiy tahlil bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak. Moliyaviy tahlil metodologiyasi qo'yilgan maqsadlarga, shuningdek, axborot, vaqt, uslubiy va texnik ta'minotning turli omillariga bog'liq.

Korxona moliyaviy holatini tahlil qilish umumiy moliyaviy tahlilning ajralmas qismidir. Iqtisodiy tahlil nazariyasida korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishning quyidagi metodologiyasi keltirib o'tilgan:

- moliyaviy holatni ekspress tahlil qilish;
- moliyaviy holatni batafsil tahlil qilish.

Ekspress tahlilning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish dinamikasini baholashdir. Tahlil jarayonida turli ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni mutaxassisning tajribasi hamda malakasiga asoslangan usullar bilan to'ldirish taklif etiladi.

Ekspress-tahlilni uch bosqichda o'tkazish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm. Ekspress-tahlilni o'tkazish bosqichlari¹

Birinchi bosqichda moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishga tayyorlikni ta'minlashda undagi axborotlarning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Bu yerda hisobotning

¹ Muallif ishlanmasi

vizual va oddiy buxgalteriya tekshiruvi rasmiy asoslar va mohiyati bo'yicha amalga oshiriladi: barcha kerakli shakllar, rekvizitlar va imzolarning mavjudligi aniqlanadi, barcha hisobot shakllarining to'g'riligi va aniqligi tekshiriladi.

Ikkinchi bosqichda buxgalteriya balansiga tushuntirish xati bilan tanishiladi. Bu hisobot davrida faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari tendentsiyalarini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'yektning mulkiy va moliyaviy holatidagi sifat o'zgarishlarini aniqlash uchun zarurdir.

Uchinchi bosqichda xo'jalik faoliyati natijalari va moliyaviy holatni umumlashtirilgan tarzda baholash amalga oshiriladi. Bunday tahlil har xil guruhdagi foydalanuvchilar manfaati uchun turli darajada amalga oshiriladi.

Ekspres tahlil moliyaviy natijalar va moliyaviy holatni chuqurroq hamda batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiqligi yoki zarurligi to'g'risidagi xulosa bilan yakunlanishi mumkin.

Moliyaviy holatni batafsil tahlil qilishning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'yektning mulkiy va moliyaviy holatini, uning yakunlangan hisobot davridagi faoliyati natijalarini, shuningdek, sub'yektning kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini batafsilroq tavsiflash hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

a) xo'jalik yurituvchi sub'yektning iqtisodiy va moliyaviy holatini dastlabki ko'rib chiqish:

moliyaviy-xo'jalik faoliyatining umumiy yo'nalishlarini aniqlash;

hisobotda nozik jihatlarni aniqlash;

b) xo'jalik yurituvchi sub'yektning iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish:

mulkiy holatni baholash;

balansni vertikal tahlil qilish;

balansni gorizontal tahlil qilish;
mulkiy holatdagi sifat o'zgarishlarini tahlil qilish;

moliyaviy holatni baholash;

to'lov qobiliyatini baholash;

moliyaviy barqarorlikni baholash;

v) xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilish:

operatsion faoliyat samaradorligini baholash;

rentabellikni tahlil qilish;

qimmatli qog'ozlar bozoridagi vaziyatni baholash.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishdan maqsad balans tuzilmasini qoniqarsiz va korxonani to'lovga qodir emas, deb tan olish to'g'risidagi qarorni asoslashdan iborat.

Balans tuzilishining qoniqarliligini tahlil qilish va baholash quyidagi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi:

joriy likvidlik koeffitsienti;

o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti;

to'lov qobiliyati koeffitsienti.

Korxona balansini tuzilmasini qoniqarsiz, korxonani esa to'lovga layoqatsiz deb topish uchun asos qilib ko'rsatilgan koeffitsientlarning qiymati ularning me'yoriy qiymatlaridan past bo'lganda yuzaga keladi.

Agar dastlabki ikkita ko'rsatkichdan kamida bittasi (joriy likvidlik yoki o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti) standart qiymatdan past bo'lsa,

to'lov qobiliyatini tiklash koeffitsienti 6 oyga belgilangan muddat uchun hisoblanadi.

Joriy likvidlik koeffitsienti aktivlar likvidligining umumiy holatini anglatib, korxonaning joriy aktivlari joriy majburiyatlarning bir so'miga necha so'm to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblashning maqsadi shundaki, xo'jalik yurituvchi sub'yekt qisqa muddatli majburiyatlarni asosan

aylanma mablag'lar hisobidan to'laydi; shuning uchun agar aylanma aktivlar joriy majburiyatlardan oshsa, korxonani muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan deb hisoblash mumkin. Ortiqcha miqdor joriy likvidlik koeffitsienti bilan belgilanadi. Ko'rsatkichning qiymati iqtisodiyot tarmog'i va faoliyat turiga qarab farq qilishi mumkin va uning dinamikada o'sishi odatda ijobiy holat sifatida qabul qilinadi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ko'rsatkichning kritik pastki qiymati 2 ga teng, lekin bu uning aniq standart qiymati emas. Joriy likvidlik koeffitsienti tovar-moddiy zaxiralar, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa aylanma mablag'lar (balans aktivining 2-bo'limining umumiy summasi) ko'rinishidagi aylanma mablag'lar qiymatining joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi.

O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti korxonaning moliyaviy barqarorligi uchun zarur bo'lgan o'z aylanma mablag'lari mavjudligini tavsiflaydi. Moliyaviy barqarorlik korxona barqarorligini belgilaydi. Ushbu ko'rsatkichning normal qiymati kamida 0,1 bo'lishi kerak. Bu koeffitsient o'z aylanma mablag'larining (passiv balansining 1-bo'limi minus aktivlar balansining 1-bo'limi) aylanma mablag'lar qiymatiga (aktivlar balansining 2-bo'limi) nisbati bilan aniqlanadi.

To'lov qobiliyatini tiklash (yo'qotish) koeffitsienti korxonaning ma'lum vaqt ichida to'lov qobiliyatini tiklash (yoki yo'qotish) uchun real imkoniyat mavjudligini tavsiflaydi. U joriy likvidlik koeffitsientining uning belgilangan qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi. Hisoblangan joriy likvidlik koeffitsienti joriy likvidlikning yil oxiridagi haqiqiy qiymatining yig'indisi va bu nisbatning to'lov qobiliyatini tiklash (yo'qotish)ning belgilangan davri nuqtai nazaridan yil oxiri va boshi o'rtasidagi o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Balans tuzilishining qoniqarliligini baholagandan so'ng, xo'jalik yurituvchi sub'yektning mulkiy holati tahlil qilinadi. Asosiy vositalarning sifat ko'rsatkichlari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

asosiy vositalarning faol qismining ulushi, ya'ni mashinalar, uskunalar va transport vositalari. Bu ko'rsatkichning o'sishi ishlab chiqarishning kengayishi, sanoat uskunalarining ko'payishi va yangilanishi, ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi va boshqalarni ko'rsatadi;

amortizatsiya koeffitsienti oldingi davrlarda xarajatlar sifatida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymatining ulushini tavsiflaydi;

xizmat ko'rsatish koeffitsienti eskirish koeffitsientiga teskari proportsionaldir. Uning ortishi ijobiy tendentsiya sifatida baholanadi.

Doimiy aktivlar indeksi o'z kapitali manbalarida asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarning ulushini tavsiflaydi.

Asosiy vositalarning eskirish darajasi asosiy vositalarning texnik holatini tavsiflaydi va asosiy vositalarning eskirish summasining asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga nisbati bilan belgilanadi.

Ushbu nisbatni aniqlashda asosiy vositalar qiymatidagi amortizatsiya ulushi dinamikasini baholash kerak. Uning qisqarish tendentsiyasi xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbariyati kelajak haqida qayg'urayotganidan va asosiy vositalarni texnik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha faol choralar ko'rayotganidan dalolat beradi.

Yana bir ko'rsatkich mavjud - harakatdagi va harakatsiz aktivlar nisbati. U joriy va uzoq muddatli aktivlar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi va aylanma mablag'lar qiymatini uzoq muddatli aktivlar qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Joriy aktivlar va uzoq muddatli aktivlar nisbatining optimal va kritik qiymati esa korxonalarning tarmoq xususiyatlari bilan belgilanadi. Barqarorlik belgisi shartning

bajarilishi hisoblanadi: harakatdagi va harakatsiz mablag'lar nisbati qarz mablag'larining o'z kapitaliga nisbatidan kattaroqdir.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari mutlaq va nisbiyga bo'linadi. Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlari tovar-moddiy zaxiralarni ularni shakllantirish manbalari bilan ta'minlanganlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichdir.

Auditorlik amaliyotini umumlashtirish qo'mitasining (Buyuk Britaniya) tavsiyalari, ularda korxonaning mumkin bo'lgan bankrotligini baholash uchun muhim ko'rsatkichlar ro'yxati mavjud. "Katta to'rtlik" auditorlik tashkilotlarining metodikasidan kelib chiqqan holda va ushbu o'zgarishlarni biznesni boshlashning ichki xususiyatlariga moslashtirgan holda, biz quyidagi ikki darajali ko'rsatkichlar tizimini tavsiya qilishimiz mumkin.

Birinchi guruh ko'rsatkichlar yaqin kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarni, shu jumladan bankrotlikni ko'rsatadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish faoliyatida takroriy sezilarli yo'qotishlar;

- muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning oshib ketishi;

- ortiqcha uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari sifatida qisqa muddatli qarz mablag'laridan foydalanish;

- likvidlik koeffitsientlarining barqaror past qiymatlari;

- aylanma mablag'larning surunkali tanqisligi;

- mablag'lar manbalarining umumiy miqdoridagi qarz mablag'larining ulushi doimiy ravishda xavfli chegaralargacha o'sib borishi;

- noto'g'ri investitsiya siyosati;
- qarzga olingan mablag'lar miqdorining belgilangan limitdan oshib ketishi;

- investorlar, kreditorlar va aktsiyadorlar

oldidagi majburiyatlarni surunkali bajarmaslik (qarzlarni o'z vaqtida to'lash, foizlar va dividendlarni to'lash bo'yicha);

- muddati o'tgan debitorlik qarzlarning yuqori ulushi;

- ortiqcha va eskirgan tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi;

- kredit muassasalari bilan munosabatlarning yomonlashuvi;

- moliyaviy resurslarning yangi manbalaridan nisbatan noqulay sharoitlarda foydalanish (majburlash);

- ishlab chiqarish jarayonida xizmat muddati o'tgan uskunadan foydalanish;

- potentsial uzoq muddatli shartnomalarni yo'qotish;

- buyurtma portfelidagi noqulay o'zgarishlar.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlar mavjud moliyaviy holatni tanqidiy deb hisoblash uchun asos bermaydi; shu bilan birga, ular muayyan vaziyatda yoki samarali choralar ko'rilmasa, vaziyat keskin yomonlashishi mumkinligini ko'rsatadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- asosiy boshqaruv xodimlarini yo'qotish;

- majburiy to'xtashlar, shuningdek ishlab chiqarish va texnologik jarayon ritmini buzish;

- korxona faoliyatining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi;

- yangi loyihaning mumkin bo'lgan va bashorat qilinadigan muvaffaqiyati va rentabelligiga ortiqcha harakat;

- korxonaning oldindan aytib bo'lmaydigan sud muhokamalarida ishtirok etishi;

- asosiy kontragentlarni yo'qotish;

- uzoq muddatli samarasiz shartnomalarning mavjudligi.

Ko'rib chiqilgan barcha mezonlarni to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy hisobotlardan olish mumkin emas. Ushbu mezonlarning kritik qiymatlariga kelsak, ular iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha batafsil tavsiflangan

bo'lishi kerak va ularni ishlab chiqish ma'lum statik ma'lumotlar to'langandan keyin amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA

Zamonaviy iqtisodiy fanda moliyaviy ko'rsatkichlarni prognoz qilish uchun juda ko'p turli xil texnika va usullar mavjud. Biroq, xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy holatini ekspress tahlil qilish uchun ularning aksariyatiga bo'lgan ehtiyoj yo'qoladi. Korxonaning mumkin bo'lgan bankrotligi nuqtai nazaridan moliyaviy holatni prognozlashning uchta asosiy yondashuvi mavjud: a) kreditga layoqatlilik koeffitsientini hisoblash; b) rasmiy va norasmiy mezonlar

tizimidan foydalanish; v) to'lov qobiliyati ko'rsatkichlarini prognozlash.

Ko'plab yirik auditorlik tashkilotlari va konsalting bilan shug'ullanadigan boshqa kompaniyalar o'zlarining baholashlari uchun turli mezonlardan foydalanadilar. Albatta, buning ham salbiy tomonlari bor - bir mezonli masala sharoitida qaror qabul qilish ko'p mezonli masala sharoitidan ko'ra ancha oson. Shu bilan birga, ushbu turdagi har qanday bashoratli qaror, mezonlar sonidan qat'iy nazar, sub'yektiv hisoblanadi va mezonlarning hisoblangan qiymatlari darhol qaror qabul qilish uchun turtki emas, balki fikrlash uchun ma'lumot xarakteriga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анализ финансовой отчетности: учебное пособие/ Л.И.Иванова, А.С.Бобылева. – Москва: Кнорус, 2022.-332 с. (59с).
2. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. / M.Y.Raximov, N.N.Mavlanov, N.N.Kalandarova; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 517 b.(302b).
3. Moliyaviy tahlil. Darslik. / M.Y.Raximov, N.N.Kalandarova; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 736 b.(295b).
4. Xasanov B.A., Raximov M.Y., Aliqulov A.I., Xajimuratov N.Sh., Kalandarova N.N., Muqumov Z.A., Djumanova A.B., Hasanova R.B. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: TDIU, 2022. – 721 b.(249b).
5. Анализ деятельности экономических субъектов:учебник/ И.В.Зенкина .-Москва:Кнорус,2021.-380с.(285с).

UO‘T 6II2.15.

Karimov Akrom Abbasovich

*iqtisodiyot fanlari doktori,
“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrasi professori.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.*

Rizayev Nurbek Qodirovich

*iqtisodiyot fanlari doktori,
“Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasi professori.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti.*

**INSONIYATNING KELAJAK TEXNOLOGIYALARI:
SUN’IY INTELLEKT HISOBI.**

Каримов Акром Аббасович

*доктор экономических наук,
«Финансовый учет и отчетность» профессор кафедры.
Ташкентского государственного экономического университет.*

Ризаев Нурбек Кадырович

*доктор экономических наук, профессор,
кафедры «Банковское дело и учет».
Ташкентский международный университет Кимё.*

**БУДУЩИЕ ТЕХНОЛОГИИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА:
УЧЕТ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

Karimov Akrom Abbasovich

*doctor of economic sciences,
professor, of the Department “Financial accounting and reporting”
State University of Economics.*

Rizaev Nurbek Kadyrovich

*doctor of economics, professor,
Department of the “Banking and accounting” department.
Tashkent International University of Kimyo.*

**HUMANITY’S FUTURE TECHNOLOGIES:
ACCOUNTING OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE**

*Annotatsiya: Maqolada jahonda shiddat bilan rivojlanib borayotgan “Sun’iy intellekt”
va uning jahon iqtisodiyotiga ta’siri hamda O‘zbekistonda ilk bora mazkur yangi innovatsion*

texnologiyalarni sohalar bo'yicha rivojlantirish, jumladan ta'lim tizimida "Sun'iy intellekt" yo'nalishida mutaxassislarni tayyorlashdagi majud muammolar va ular yechimini topishda xorijiy tajribalardan keng foydalanish hamda su'niy intellektni hisobga olish masalalari bayoni keltirib o'tilgan. "Sun'iy intellekt" texnologiyalaridan foydalanib dasturiy mahsulotlarni hisobinini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan hamda takliflar berilgan.

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, bulutli infratuzilma, ta'lim, dasturiy ta'minot, aqlli mashinalar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotlar.

Аннотация: В статье рассмотрены стремительно развивающийся «Искусственный интеллект» и его влияние на мировую экономику, а также развитие этих новых инновационных технологий в Узбекистане впервые, в том числе путь «Искусственного интеллекта» в систему образования. , обсуждаются в статье. В статье затронуты существующие проблемы в подготовке специалистов и широком использовании зарубежного опыта в поиске их решения, а также вопросы учета искусственного интеллекта. Сформированы научные выводы и внесены предложения по совершенствованию расчета программных продуктов с использованием технологий «Искусственный интеллект».

Ключевые слова: искусственный интеллект, облачная инфраструктура, образование, программное обеспечение, умные машины, бухгалтерский учет, финансовая отчетность.

Abstract: In the article, the rapidly developing "Artificial Intelligence" and its impact on the world economy, as well as the development of these new innovative technologies in Uzbekistan for the first time, including the way of "Artificial Intelligence" in the education system, are discussed in the article. In the article, the existing problems in the training of specialists and the wide use of foreign experiences in finding their solution, as well as the issues of taking artificial intelligence into account, are mentioned. Scientific conclusions were formed and suggestions were made on improving the calculation of software products using "Artificial Intelligence" technologies.

Keywords: artificial intelligence, cloud infrastructure, education, software, smart machines, accounting, financial statements.

Kirish

Dunyoda yuz bergan turli beqarorlik, ertangi kun sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli havf-xatarlar va iqtisodiy inqirozlar, ekologiyani keskin o'zgarishi insoniyat hayot tarzini sezilarli darajada o'zgartirib yubormoqda. Natijada, insoniyat yashab qolish uchun o'ziga kerakli bo'lgan shart-sharitlarni yaratishga xarakat qilmoqda, buning oqibatida insoniyat hayotiga "Sun'iy intellekt" (AI), "3D model", "Internet buyumlar" (IoT), xaydovchisiz boshqarish, blokcheyn, immunoterapiya kabi mutlaqo yangi tushunchalar va texnologiyalar kirib keldi. Ushbu yangi texnologiyalar yaqin kelajakda dunyoni tubdan o'zgartirib yuboradigan texnologiyalar sifatida baholanmoqda.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari asosan sanoatning mashinasozlik sohasini qamrab olgan bo'lib, mashinasozlik bozori segmentini deyarli 70 foizini tashkil etmoqda. O'z navbatida sun'iy intellektning global bozori moliya, bank, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, sug'urta, energetika, mudofaa, telekommunikatsiya, xukumat idoralari va tashkilotlari faoliyatida ham sezilarli ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ayniqsa sun'iy intellekt so'nggi yillarda jahonda iqlim o'zgarib turli kasalliklarni tarqalishi tufayli tibbiyot sohasida tez rivojlandi hamda mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra 2025 yilga kelib, sog'liqni saqlash bunda mutlaqo yetakchilikni o'z qo'liga oladi.

Sun'iy intellektni yanada rivojlantirish masalasida jahonning yirik korporatsiyalari, xususi investorlar va davlatlar hukumatlari tomonidan katta miqdorda moliyalashtirish amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, dunyoning eng boy insonlardan Charlz Lyan tomonidan "Super Micro Computer" kompaniyasida sun'iy intellektni rivojlantirish maqsadida 6,1 mlrd.dollar sarmoya kiritgan bo'lsa, yana bir milliarder Kvak Don Shin esa "Hanmi Semiconductor" kompaniyasida sun'iy intellekt rivojiga 2,9 mlrd.dollar hajmda mablag'larni sarflagan. Natijada, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yil yakunida sun'iy intellekt bozor hajmi 298 milliard.dollarni tashkil etilishi kutilmoqda, hozirda esa bu 207 milliard.dollarga teng. Ushbu bu raqamlar 2030 yilga borib tahminan 1,84 trln.dollarga yetishi mumkin. Bundan olinadigan daromad hajmi, masalan dasturiy mahsulotlarni yaratishdagi sun'iy intellektdan ko'riladigan daromad joriy yilda 94,4 mlrd.dollarga teng bo'ladi.

Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, 2030 yilda sun'iy intellektning jahon iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi taxminan 15 trln. dollardan oshishi kutilmoqda (hozirda bu raqam deyarli Xitoyning YaIMga yoki jahon YaIM hajmining 13,7 foiziga tengdir).

Joriy yil avgustda Prezident Shavkat Mirziyoyev sun'iy intellekt (AI) va axborot texnologiyalar (IT) sohasidagi startap loyihalarni rivojlantirish chora-tadbirlariga doir taqdimot bilan tanishar ekan, yurtimizda ushbu yangi sohalarni yanada rivojlantirish xususida alohida to'xtalib o'tdi. Prezidentimiz tomonidan sun'iy intellekt bo'yicha mustahkam qonunchilik bazasini yaratish va sun'iy intellektni joriy etish strategiyasi hamda o'rta muddatli loyihalar dasturini ishlab chiqish kabi muhim vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari markazini tashkil qilish bo'yicha muhim topshiriqlar berildi. Sun'iy intellektni iqtisodiyotimizga

keng joriy etish, jumladan, bank-moliya sohasida sun'iy intellektdan foydalanishni yanada rivojlantirish, buning uchun sohada yetuk raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish masalasida alohida to'xtalib o'tildi.

Respublikamizda Prezidentimiz tashabbusi bilan dastlab 2021-2022 o'quv yilida bitta oliy dargohda keyinchalik boschqichma-bosqich yana 3 ta oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi, lekin bugungi kunda sohada katta ma'lumotlarni qayta ishlash va til modellari bo'yicha deyarli 600 nafar mutaxassislarga talab mavjud. Prezidentimiz shularni inobatga olib, sohalar kesimida talabga mos mutaxassislarni tayyorlash va ularni sifat jihatdan har yili oshirib borish muhimligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, joriy yil 20 avgustda Nukusda bo'lib o'tgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqatida ham quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Endi, barcha sohada sun'iy intellekt texnologiyalari keng joriy qilinadi. IT parktda sun'iy intellekt markazi ochiladi"(izoh). Natijada, bu yo'nalishda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi hamda loyihalarni moliyalashtirish uchun 50 mln. doll.ajratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Sun'iy intellekt (*Artificial Intelligence, AI*) - bu kompyuterning inson aqliga xos bo'lgan o'rganish, qaror qabul qilish va harakatlarni bajarish qobiliyati sifatida namoyon bo'lib, mustaqil fan sifatida u matematika, biologiya, psixologiya, kibernetika kabi fanlarni negizida paydo bo'ldi. Sun'iy intellekt insoniyatga "aqlli" dasturlarni yozishga imkon beradigan va kompyuterlar bo'yicha muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatadigan hamda jahonda shiddat bilan rivojlanib borayotgan

va insoniyatning hayot tarzini mutlaqo yangi sifat bosqichiga olib chiqishi mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyadir. Demak, sun'iy intellektni boshqacha qilib aytganja "aqlli" kompyuter dasturlari deb atash mumkin. O'z navbatida sun'iy intellektni yaratishda boshqa jihatini ham hisobga olish zarur bo'ladi, ya'ni undan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli tahdidlarni ham esdan chiqarmaslik lozim.

Sun'iy intellekt (*Artificial Intelligence, AI*) - bu kompyuterning inson aqliga xos bo'lgan o'rganish, qaror qabul qilish va harakatlarni bajarish qobiliyati sifatida namoyon bo'lib, mustaqil fan sifatida u matematika, biologiya, psixologiya, kibernetika kabi fanlarni negizida shakllanib, u insoniyatga "aqlli" dasturlarni yozishga imkon beradigan va kompyuterlar bo'yicha muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatadigan hamda jahonda shiddat bilan rivojlanib borayotgan va insoniyatning hayot tarzini mutlaqo yangi sifat bosqichiga olib chiqishi mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyadir. Boshqacha qilib aytganja "aqlli" kompyuter dasturlari deb atash mumkin. O'z navbatida uni yaratishda boshqa jihatini ham hisobga olish zarur bo'ladi, ya'ni undan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli tahdidlarni ham esdan chiqarmaslik lozim.

Tan olish kerak, jahonning ilg'or mamlakatlarida allaqachon shakllanib. hozirda rivojlanish palasiga kirgan sun'iy intellekt va unda qo'llanilayotgan texnologiyalar biroz bo'lsada biz uchun yangilikdir. Jahonda so'nggi yillarda inson hayotini yaxshi tomonga misilsiz o'zgartirib yuborayotgan su'niy intellekt tushunchasi borasida turli qarashlar va yondoshuvlar mavjud.

Su'niy intellekt - bu an'anaviy ravishda insonning vakolati hisoblangan ijodiy funksiyalarni bajarish uchun aqlli tizimlarning xususiyati bo'lib, dasturiy

ta'minot yaratish asosida muammolar hal etiladi (Averkin, 1992).

Sun'iy intellekt soxasida ko'zga ko'ringan yirik olimning fikricha: sun'iy intellekt - bu aqlli kompyuter tizimlarini, ya'ni biz an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan imkoniyatlarga ega tizimlarni rivojlantiradigan informatika sohasi - tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilishdir (Faygenbaum, 1979).

Sun'iy intellekt - kompyuterlarga o'z tajribalarini o'rganishga, berilgan parametrlarga moslashishga va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarishga imkon beradi (II, 2021).

Sun'iy intellekt inson aql-idrokini tushunish uchun kompyuterlardan foydalanishdir, ammo biologik jihatdan maqbul usullar bilan chegaralanib qolmaslik kerak (*Artificial intelligence*, 2024).

Mazkur aqlli texnologiyalar haqida ko'plab olimlarning fikrlarini keltirish mumkin, masalan, J. Makkarti tomonidan esa: sun'iy intellekt aqlli o'zini tutadigan mashinalarni ishlab chiqaradi deya ta'rif berilgan (Makkarti, 1959). Bu soxada olim Elaine Richning fikrlari diqqatga sazovordir: "sun'iy intellekt - bu kompyuterni hozirgi paytda odam ko'proq muvaffaqiyatga erishadigan narsalarni qilishni o'rgatish haqidagi fan" (Elaine Rich, 2019)

Xulosa qilinganda, sun'iy intellekt aqlli kompyuterlar va mashinalarni yaratuvchi fan va texnologiyalar bo'lib, ular hayotga tadbqiq etilishi tufayli kompyuterlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni aniq vazifalarni bajarishga "o'rgatish" imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada respublikamizda ilk bora tilga olingan su'niy intellekt texnologiyalari tushunchasi va uni ustivor soxalarda rivojlantirish hamda ta'lim tizimida

ushbu texnologiyalar yo'nalishida mutaxassisliklarni tayyorlashda, sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hisobga olishda ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni shakllantirish maqsadida tadqiqotda qo'llaniladigan induksiya va deduksiya, tahlil va cintezi, tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, taqqoclash kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, dasturiy mahsulotlarni buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni yuritish masalasida hisob usullaridan, jumladan: ikkiyoqlama yozuv, schotlar rejasi, hujjatlashtirish va moliyaviy hisobot kabilardan keng foydalanildi.

Natija va muhokama.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham sun'iy intellektni rivojlantirishga davlatning ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Xususan, «Raqamli O'zbekiston - 2030» Strategiyasi (PF-158, 2023 y.) hamda «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (PQ-4996, 2021 y.) qaror va farmonlarni keltirib o'tish mumkin. Mazkur hujjatlarda sun'iy intellektni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish belgilangan. Natijada, respublikamizda ilk bora, «Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti» tashkil etildi, o'tgan qisqa muddatda ustivor tarmoqlar va sohalar, jumladan bank, moliya, soliq, transport, energetika, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, farmasevtika, elektron hukumat kabilarda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ularga malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida ta'lim tizimida sun'iy intellekt yo'nalishida mutaxassisliklar ochilishi ko'zda tutildi va bu jarayon bo'yicha yuqorida ta'kidlab

o'tilganidek, respublikamizning 4 ta oliy ta'lim muassasalarida mazkur yo'nalishda bakalavriat yo'nalishi hamda magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda su'niy intellekt sohasida qanday o'quv dasturlari asosida mutaxassislar o'qitilmoqda va oliy ta'limda qaysi fanlardan darslar berilmoqda. Biz bugun bu jarayonga qay darajada tayyor bo'ldik, mutaxassislarni tayyorlashda qaysi xorijiy ilg'or tajribalardan keng foydalanilmoqda.

Dastavval ushbu sohada xorij tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Shveysariya universitetlarida «sun'iy intellekt» va yangi innovatsion texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun 40 dan ortiq bakalavr dasturlari mavjud. Buni tassavur qilishning o'zi bir mo'jiza, biz xali endigina bu sehrli texnologiyalar ostonasida turibmiz. Shveysariyada sun'iy intellekt texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda asosan, magistratura bosqichidagi o'qitiladigan fanlarga jiddiy e'tibor qaratiladi. Masalan, Shveysariya Texnologik universitetida (ETH Zurich) Axborot texnologiyalari (sun'iy intellekt) ta'limidagi o'qitiladigan fanlar: informatika nazariyasi, axborot havfsiligi, muhandislik dasturiy ta'minot, robot texnikasi, tizimlar taqsimoti. Dasturiy ta'minot ishlanmasi. Vizual hisoblashish, bioinformatika va boshqarish tizimlari. Ushbu fanlarni o'zlashtirgan talabani ertangi kuniga axborot texnologiyalari sohasida yetuk mutaxassis bo'lib yetishiga hech shubxalanmasa xam bo'ladi (birgina mazkur universitetning o'zida Albert Eynshteyn, Santyago Kalatrava kabi 20 dan ortiq Nobel mukofotini olgan mashhur bitiruvchilari bor).

Amerika Qo'shma Shatatlarini axborot texnologiyalari vatani deyishimizga asoslarimiz yetarli. Mamlakatning kuchli kompyuter dasturchilari va yetuk olimlari axborot texnologiyalari

soxasida dunyoga mashhur “Google Inc”, “Microsoft” va “Apple” kabi brendlarni vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. AQShda Axborot texnologiyalari soxasida o‘nlab universitetlar bo‘lsada, ular orasida eng kuchli va nufuzli uchta universitetdagi ta’limni alohida e’tirof etish mumkin bo‘ladi.

Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) dunyodagi eng nufuzli universitetlardan biri bo‘lib, sun’iy intellekt va robototexnika sohasidagi ishlanmalari bilan mashhurdir. Shuningdek, bu yerdagi muhandislik, IT, iqtisodiyot, fizika, kimyo va matematika kabi dasturlar dunyodagi eng yaxshi dastur hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini o‘rganish dasturlari muhandislik fakultetida o‘tkaziladi. Talabalar kompyuter tizimlarini loyihalashtirish va ishlash prinsiplari va qoidalarini chuqur o‘rganadilar. Bugungi kunda institutning “Linkoln” laboratoriyasida 60 ga yaqin kompyuter fanlari turli innovatsion jamoalar (grantlar) faoliyat yuritib kelmoqda. Eng muhimi birgina shu institutning o‘zida 84 nafar bitiruvchilari Nobel mukofoti sovrindorlari bo‘lgan. Bakalavrlar fizika, matematika, muhandislik va informatika, dasturiy ta’minot va texnik vositalar bo‘yicha nazariy va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar hamda kompyuterlarni yaratish va ularni takomillashtirish tamoyillarini o‘rganadilar.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’limi yetakchilari orasida Buyuk Britaniya universitetlarini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Ma’lumki, Buyuk Britaniya universitetlarini bitirgan mutaxassislarning amaliy ko‘nikmalari barcha har doim ham ish beruvchilarning yuqori bahosiga sazovar bo‘lib kelgan. Sun’iy intellekt texnologiyalari soxasida mutaxassis tayyorlovchi universitetlardan biri bu - Oksford universitetidir. Bu yerda dunyodagi eng qadimgi ingliz tilida so‘zlashadigan universitet bo‘lib, kompyuter texnologiyalari

va AT fakulteti Yevropada yetakchi hisoblanadi.

Yuqorida biz iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning yetakchi universitetlarida sun’iy intellekt texnologiyalari soxasida mutaxassislarni tayyorlash yo‘nalishlari va hamda ularda o‘qitiladigan fanlar xususida to‘xtalib o‘tdik. Demak, mamlakatimizda ham “Sun’iy intellekt” yo‘nalishida mutaxassislarni o‘qitishda tayyor, sinalgan ilhor xorijiy tajriba mavjud.

Ushbu ta’lim tizimida o‘qitiladigan fanlarda bakalavriat yo‘nalishida bo‘yicha asosan Shveysariya Texnologik universiteti (ETH Zurich) Axborot texnologiyalari (sun’iy intellekt) ta’limi tajribasi olingan bo‘lsa, magistratura mutaxassisliklari uchun esa, Buyuk Britaniyaning Oksford (University of Oxford) va Manchester (University of Manchester) universitetlaridagi o‘qitiladigan fanlarni eng ma’qbuli deb baholash mumkin.

Respublikamizda sun’iy intellekt sohasida mutaxassislarni tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalarining fan dasturlarini AQShning **Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) ning “Biometriya va muhandislik”, Stenford universiteti “Robot texnikasi”, Karnegi-Mellon universiteti “IT va mobil tizimi (MSIT-MOB)” hamda London Imperial kollejining fan dasturlari** asosida takomillashtirish lozim bo‘ladi.

Bugungi kunda yurtimizda Oliy ta’lim bilan birga quyidagi sohalar va tarmoqlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha jadal ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan:

- qishloq xo‘jaligida yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi ishini monitoring qilish;

- bank tizimida tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini

soddalashtirish, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash;

- moliya sohasida budjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, nafaqa to'lovlari tahlil qilish va samaradorligini oshirish;

- soliq sohasida yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to'lovlaridagi tafovutlarni aniqlash;

- transport sohasida lokomotivlarni boshqarish jarayonida ularning harakatini kuzatib borish va xavfli vaziyatlarda mashinistlarni ogohlantirish, jamoat transporti harakatini tahlil qilish va ularning optimal yo'nalishlarini aniqlash, avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilish;

- energetikada energiya resurslarini ishlab chiqarish va ularning iste'molini prognoz qilishda, texnologik uskunalarni ishini optimallashtirish;

- sog'liqni saqlashda inson o'pkasining kompyuter tomografiyasi tahlili asosida pnevmoniyani aniqlash hamda mammografiya tahlili asosida ko'krak bezi saratoniga ilk bosqichda tashxis qo'yish;

- farmasevtika sohasida bozorning dori vositalari va tibbiy buyumlariga bo'lgan ehtiyojlarini tahlil qilish va prognozlashtirish;

- elektron hukumatda elektron davlat va moliya xizmatlarini ko'rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID).

- buxgalteriya hisobi sohasida dasturiy ta'minot asosida tashkilotning moliyaviy holati, foyda (zarari), pul mablag'lari va xususiy kapitalini hisobga olish, soliq va boshqa majburiyatlarni to'lash, investitsiyalarni keng jalb etish hamda xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish.

Respublikamizda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish jarayonida

iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish, shuningdek, 2025 yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik sub'ektlarining ulushini 90 foizga yetkazish, sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, «internet buyumlar», «sun'iy intellekt» kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini (2027 yilgacha), apparat qismini esa 2030 yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliyashtirish ko'zda tutilgan. Natijada, Respublikamizda raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirilishi IT-park asosida ilg'or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun «aqli yechimlar» ni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Demak, bunday yuqori ko'zlangan marralarga yetishish uchun raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Agar biz shu soxada malakali kadrlarni tayyorlamas ekanmiz, sohani rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan har qanday chora-tadbirlar, yo'naltirilgan investitsiyalar va moliyalashtirish jarayonlari biz ko'zlagan natijalarni bermaydi. Sun'iy intellekt sohasida kadrlarni tayyorlash jarayoni maktabgacha ta'lim, umumta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi bosqichlarni qamrab olinishi lozim. Ya'ni mamlakatimizda sun'iy intellekt sohasida kadrlarni tayyorlashning ekotizimi yaratiladi.

Respublikamizda sun'iy intellektni rivojlantirishda muhim masalalardan biri ularni buxgalteriyada hisobga olishdir. Chunki, sun'iy intellekt asosida yaratilgan

har qanday yangi texnologiyalar, jumladan dasturiy ta'minotlar korxonaning uzoq muddatli foydalanishdagi mablag'lari ya'ni aktivlari sifatida tan olinadi. Bunday aktivlar amaldagi buxgalteriya hisobining milliy standartlarida "Nomoddiy aktivlar" nomi bilan yuritiladi. Masalan, korxona su'niy intellekt markazida mutaxassisini o'qitdi. Mutaxassis olgan bilimlari asosida korxonaning qurilish bilan bog'liq jarayoni muhim muhandislik ishlanmalari bo'yicha "Qurilish-dizayn" nomli dasturiy mahsulotni yaratdi. Hodim tomonidan sun'iy intellekt asosida yaratgan dasturiy mahsulotni korxonaning ustav kapitalini shakllantirishga yo'naltirildi. Ya'ni ta'sischi sifatida xodim o'z ulushini kiritmoqda. Dasturiy mahsulotning ustav kapitaliga kiritiladigan qo'ymati 100 mln. so'm deb tomonlar kelishuviga asosan baholandi. Natijada korxona buxgalteri tomonidan ushbu dasturiy ta'minot uzoq muddatli aktivlar sifatida tan olinib balansga olinadi (kirim qilinadi).

"Nomoddiy aktivlar" nomli 7-son BHMSning 2-bandiga muvofiq nomoddiy aktivlar ustav kapitaliga ta'sischilarning (ishtirokchilarning) hissasi ko'rinishida kelib tushish ko'rsatib o'tilgan.

1. Ta'sischining ulushini aks ettirilishi:

Debet 4610 "Ta'sisichilar bilan hisob-kitoblar" schoti -100 mln. so'm.

Kredit 8330 - "Pay va qo'yilmalar" schoti - 100 mln. so'm.

Korxonaning ustav kapitaliga ulush hisobiga olingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati, bizning misolimizdagi "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) agarda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, korxona ta'sischilari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan ularning puldagi bahosi asosida tan olinadi.

2. "Qurilish-dizayn" nomli dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ni ta'sischining ulushi sifatida balansga olinishi:

Debet 0430 - "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) - 100 mln. so'm.

Kredit 4610 - "Ta'sisichilar bilan hisob-kitoblar" schoti -100 mln. so'm.

BHMSga muvofiq "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ning qiymati amortizatsiya hisoblash yo'li bilan qoplanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat foydali xizmat muddati mobaynida korxona xarajatlariga amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida tizimli taqsimlanadi. Amortizatsiyaning qoldiqni kamaytirish usuliga ko'ra amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi hisobot yili boshidagi "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) qoldiq qiymatidan va foydali xizmat muddatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiyaning ikki baravar me'yorida kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo'yicha amortizatsiyani hisoblashda kutilayotgan tugatish qiymati boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

3. Dastlabki yil uchun amortizatsiyaning hisoblanishi. Dasturiy mahsulotdan foydalanish muddati 5 yil:

Debet 9420 - "Ma'muriy xarajatlar" - 40 mln. so'm. (kamayib boruvchi qoldiq usulida).

Kredit 0530 - "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) amortizatsiyasi - 40 mln. so'm.

Shuningdek, chiqib ketayotgan "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ning qiymati balansdan hisobdan chiqariladi. Bizning misolimizdagi nomoddiy aktiv to'liq amortizatsiya qilingani uchun hisobdan chiqariladi.

4. Dasturiy mahsulotning foydali muddati tugatilishi va uning to'liq hisobdan chiqarilishi:

Debet 9220 - "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" dasturiy mahsulot - 100 mln. so'm.

agar ta'sischi ishtirokchilar ichidan chiqib ketayotgan bo'lsa 8330 - "Pay va qo'yilmalar" schoti - 100 mln. so'm ko'rsatiladi.

Kredit 0430 - "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) - 100 mln. so'm.

Bizning fikrimizcha, korxonaning hisob siyosatida "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) haqida quyidagilar yoritib berilishi lozim:

- "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ning foydali xizmat muddati;

- "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) bo'yicha amortizatsiya ajratmasini hisoblash usuli;

- "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ning hisobot davri boshi va oxiridagi umumiy balans qiymati va jamg'arilgan amortizatsiya summasi;

- kelib tushishi, chiqib ketishi va boshqa harakatlari natijasida hisobot davri boshi va oxirida "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) balans qiymatidagi o'zgarishlar;

Shuningdek, korxonaning mmoliyaviy hisobotida quyidagilar ham ochib berishi lozim:

- "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ning balans qiymati, aktiv tavsifi, balans qiymati va qolgan amortizatsiya davri;

- agar "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ga amortizatsiya hisoblanmasa, uning tavsifi va balans qiymati hamda amortizatsiya hisoblanmasligi sabablari;

- moliyaviy hisobot tuzilishi sanasiga "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ni aktiv deb tan olinishi mezonlari;

- kelgusida iqtisodiy naf olinishi kutilayotgan "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ni yaxshilashga yo'naltirilgan faoliyat turlari;

- "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt)ning joriy qiymat aniqlash uchun asosi;

- "Qurilish-dizayn" dasturiy mahsulot (sun'iy intellekt) qayta baholashning haqiqatdagi sanasi.

Umumiy xulosa qilinaganda, korxonaning nomoddiy aktivlari sifatida hisobga olinadigan su'niy intellektni hisobga olish tartibini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga asosan takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki bugungi kun tendensiyasi shundaki, dasturiy ta'minot asosida tashkilotning moliyaviy holati, foyda (zarari), pul mablag'lari va xususiy kapitalini hisobga olish, soliq va boshqa majburiyatlarni to'lash, investitsiyalarni keng jalb etish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda.

Xulosa.

Mamlakatimizda "Sun'iy intellekt" va IT texnologiyalarini rivojlantirish va malakali kadrlarni tayyorlashda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

- iqtisodiyotimizning turli soxalari uchun sun'iy intellekt yo'nalishida malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorijning yetakchi universitetlaridan o'qituvchilar va amaliyot mutaxassislarni jalb qilish;

- Oliy ta'limda "Sun'iy intellekt" bo'yicha bakalavriat va magistrnlarning o'quv standartlarini xalqaro tajribadan keng foydalangan holda doimiy takomillashtirib borish;

- Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga sun'iy intellekt va shu kabi yaqin kelajak texnologiyalari to'g'risida kerakli me'yorlarni kiritish;

- "Sun'iy intellekt"da kadrlarni nafaqat texnika soxasidagi universitetlarda, balki iqtisodiyotning tarmoqlari va soxalari (bank-moliya, soliq, sug'urta, tibbiyot, qurilish, qishloq xo'jaligi) bo'yicha ham mutaxassislarni tayyorlash;

- respublikamizda ilk bora "Sun'iy intellekt ekotizimi" bozorini yaratish va bunga

yetakchi universitetlar, innovatsion parklar, su'niy intellekt markazlari hamda ishlab chiqaruvchilarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda dunyo hayotini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan yaqin kelajak texnologiyalari, jumladan "Sun'iy intellekt" texnologiyalarini 2030 yilgacha rivojlantirib

borish bosh maqsad etib belgilandi, zero, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni yo'lga qo'ygan ekanmiz, avvalo ilm-fan va innovatsiiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib hizmat qilishi lozim".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'R PQ-4996 (2021). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli Qarori. 17.02.2021 y. <https://lex.uz/ru/docs/5297046>
2. O'R PF-6079, (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston - 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. 2020 yil 5 oktabr. <https://lex.uz/docs/5030957>
3. Аверкин А. Н. (1992) Толковый словарь по искусственному интеллекту. - М.: Радио и связь, 1992. - 256 с.
4. Edward A. Feigenbaum (1979). The Handbook of Artificial Intelligence; Computers and Thought. Stanford University Department of Computer Science. 1979. <https://www.sciencedirect.com/book/the-handbook-of-artificial-intelligence>
5. Искусственный интеллект (2024). https://www.sas.com/ru_ru/insights/articles/ytics/what-is-artificial-intelligence.html
6. ETH Zurich, Departemente. <https://ethz.ch/de.html>
7. Massachusetts Institute of Technology (MIT). <https://www.mit.edu/>
8. Stanford University. <https://www.stanford.edu/>
9. University of Oxford. <https://www.ox.ac.uk/>
10. Rizaev N.K. Development of artificial intelligence in Uzbekistan (Evidence from Education System). Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 7, July 2021: 4693 – 4702. <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/4518>

UDK: 657.1

Muhammadiyev Zarrux Umarovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instiuti
doktorant, PhD
mukhammadiev90@mail.ru

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KAPITAL INVESTITSİYALAR
HISOBINING OʻZIGA XOS JIHATLARI**

Мухаммадиев Заррух Умарович
Самаркандский институт экономика и сервис
докторант, PhD

**ОСОБЕННОСТИ УЧЕТА КАПИТАЛЬНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЦИФРОВОЙ
ЭКОНОМИКЕ**

Mukhammadiev Zarrukh Umarovich
Samarkand Institute of Economics and Service
doctorant, PhD

**SPECIFIC ASPECTS OF CAPITAL INVESTMENT ACCOUNTING IN THE
DIGITAL ECONOMY**

Annotatsiya. Maqolada kapital investitsiyalar hisobi, ularni raqamli iqtisodiyot sharoitidagi ahamiyati, kapital investitsiyalar hisobining oʻziga xos xususiyatlari, korxonalarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida nomoddiy aktivlar, biologik aktivlar, yerni obodonlashtirishga kapital investitsiyalar, uzoq muddatli ijara shartnomasi boʻyicha olingan asosiy vositalarga kapital investitsiyalar boʻyicha amalga oshirilgan xoʻjalik operatsiyalari, ushbu jarayonlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish holati va takomillashtirish masalalari oʻrin olgan.

Tayanch soʻzlar: kapital investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, biologik aktivlar, nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, yerni obodonlashtirish, uzoq muddatli ijara shartnomasi boʻyicha olingan asosiy vositalar.

Аннотация. В статье рассмотрен учет капитальных вложений, их значение в условиях цифровой экономики, особенности учета капитальных вложений, в условиях становления цифровой экономики на предприятиях, хозяйственные операции, осуществляемые с нематериальными активами, биологические активы, капитальные вложения в мелиорацию земель, капитальные вложения в основные средства, полученные по договору долгосрочной аренды, состояние учета и совершенствования этих процессов.

Ключевые слова: капитальные вложения, цифровая экономика, бухгалтерский учет, биологические активы, нематериальные активы, основные средства, мелиорация, основные средства, приобретенные в долгосрочную аренду.

Abstract. *In the article, the accounting of capital investments, their importance in the conditions of the digital economy, the specific features of the accounting of capital investments, in the conditions of the formation of the digital economy in enterprises, economic operations carried out on intangible assets, biological assets, capital investments in land improvement, capital investments in fixed assets obtained under a long-term lease agreement, the state of accounting and improvement of these processes are included.*

Keywords: *capital investment, digital economy, accounting, biological assets, intangible assets, fixed assets, land improvements, fixed assets acquired under long-term leases.*

KIRISH

Respublikamizda muhim sanalgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish"[1] kabi eng asosiy vazifalar belgilab berilgan. Demak, ushbu normativ-huquqiy hujjatda belgilangan strategik vazifalardan shuni bilib olish mumkinki, bugungi kunda, mamlakatda investitsion muhitni barpo etish, turli sanoat tarmoqlarida modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirish hamda korxonalarda kapital investitsiyalarni kiritishga alohida ahamiyat qaratish, xossatan ularning buxgalteriya hisobini shaffof yuritish bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida "Nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs"[2] deb keltirilgan bo'lib, ushbu normativ-huquqiy hujjatga muvofiq, nodavlat ta'lim tashkilotlari ham o'z faoliyatlarini amalga oshirishi uchun tegishli yuqori turuvchi tashkilotdan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish huquqini beradigan

litsenziyaga kapital investitsiyalar kiritishlari lozim.

Yuqorida keltirilgan dolzarb masalalardan kelib chiqib ushbu tadqiqot yo'nalishi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni, xossatan nodavlat ta'lim tashkilotlarida kapital investitsiyalar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni lozim, deb topdik.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiya davlatining "Rossiya Federatsiyasida kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Federal qonunida quyidagi ta'rifni uchratish mumkin: "kapital qo'yilmalar – asosiy kapitalga (asosiy vositalarga) qo'yilmalar, shu jumladan yangi qurilish, mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash, mashinalar, asbob-uskunalar, asboblarni, inventarlarni sotib olish, loyiha qidiruv ishlari va boshqa xarajatlar"[4].

AQShning Ogayo universiteti olimlaridan U.Kenton, "Kapital qo'yilmalar – bu kompaniyaning uzoq muddatli biznes maqsadlari va vazifalariga erishish uchun foydalanish uchun jismoniy aktivlarni sotib olish. Ko'chmas mulk, ishlab chiqarish korxonalari va mashinalar kapital qo'yilmalar sifatida sotib olinadigan aktivlar qatoriga kiradi"[5], deb ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati

to'g'risida"gi Qonunda kapital investitsiyalar iqtisodiy kategoriyasiga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Asosiy fondlarni yaratish va takror ko'paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kapital investitsiyalar jumlasiga kiradi"[3].

"Korxona o'zini modernizatsiya qilishga investitsiya qilayotgan mablag'lar kapitalizatsiya xarajatlari yoki kapital qo'yimlar deb ataladi"[6].

"Kapital qo'yimlar kelajakda foyda olish maqsadida biznesga pul qo'yish jarayonini anglatadi. Bu uzoq muddatli investitsiyalar bo'lib, u ma'lum vaqt davomida daromad olishni kutish bilan amalga oshiriladi. Ushbu uzoq muddatli sarmoya aktivlarni sotib olish, texnologiyalarni yangilash, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki yangi infratuzilmani qurish kabi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin"[7].

Yuqorida keltirilgan kapital investitsiyalarga doir ta'rif va tavsiflardan shunday fikr-mulohazalarga kelish mumkinki, kapital investitsiyalar milliy iqtisodiyot ravnaqida muhim ahamiyat kasb etib, korxonalarda kapital investitsiyalar hisobi buxgalteriya hisobining muhim ob'ekti hisoblanadi. Shu bois, mazkur tadqiqot ishida turli faoliyatni amalga oshiruvchi sub'ektlarda, xossatan nodavlat ta'lim tashkilotlarida kapital investitsiyalar hisobining amaldagi holati va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kapital investitsiyalar hisobining o'ziga xos jihatlari, ularni korxonalarda hisobini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishimizda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv,

qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, "Istiqbolli Ta'lim" NTM ham o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun tegishli yuqori turuvchi tashkilotdan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish huquqini beradigan litsenziyaga kapital investitsiyalar kiritgan. Tashkilot tomonidan litsenziya bo'yicha kapital investitsiyalarga buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshirilgan:

Debet 0830 "Nomoddiy aktivlarni xarid qilish"

Kredit 6990 "Boshqa majburiyatlar"

Nodavlat ta'lim muassasasida xarid qilingan nomoddiy aktivlar ularning boshlang'ich qiymati bo'yicha foydalanishga topshirilgan va buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshirilgan:

Debet 0410 "Patentlar, litsenziyalar va nou-xau"

Kredit 0830 "Nomoddiy aktivlarni xarid qilish"

Yuqorida keltirilgan "Istiqbolli Ta'lim" NTM amaliy ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan buxgalteriya yozuvlaridan shuni ko'rish mumkinki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda nomoddiy aktivlar bo'yicha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar 0830-"Nomoddiy aktivlarni xarid qilish" schyotida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi hamda hisobi yuritiladi. Mazkur schyot xuddi yuqorida tadqiq etilgan kapital investitsiyalarni hisobga olishga mo'ljallangan boshqa schyotlar kabi nomoddiy aktivlarga kiritilgan kapital investitsiyalar bo'yicha umumiy yo'nalishdagi axborotlarni o'zida jamlaydi. Bu esa, bizning nazarimizda, buxgalteriya hisobi axborot foydalanuvchilarining nomoddiy aktivlarga kiritilgan kapital

investitsiyalarga doir axborotlarni olish imkoniyatini chegaralab qo'yimoqda.

Tadqiqotlar davomida korxonalarning amaliy ma'lumotlari asosida kapital investitsiyalar hisobiga oid boshqa schyotlar bo'yicha amalga oshirilgan boshqa yo'nalishdagi buxgalteriya operatsiyalarini ham tadqiq etdik. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniq bo'ldiki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda 0840-"Asosiy podani tashkil qilish", 0850-"Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar", 0860-"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar" va 0890-"Boshqa kapital qo'yilmalar" bo'yicha kapital investitsiyalar amalga oshirilgan bo'lib, buxgalteriya hisobida ushbu operatsiyalarga o'ziga xos buxgalteriya yozuvlari qayd etilgan. Korxonalarda ushbu operatsiyalar va ularga buxgalteriya yozuvlari bilan quyida tanishib chiqamiz.

0840-"Asosiy podani tashkil qilish" schyoti bo'yicha:

1-vaziyat. Korxona asosiy faoliyati bilan bir qatorda chorvachilik faoliyati bilan ham shug'ullanadi. Mazkur korxonada hisobot yili boshida ta'minotchilardan nasl olish maqsadida "zotdor qoramollar" sotib olingan bo'lib, unga yil mobaynida xarajatlar amalga oshirilgan. Hisobot davrida qilingan barcha turdagi xarajatlar buxgalteriya hisobida 1110-"O'stirishdagi hayvonlar" schyotining debetida yig'ib borilgan. (Mazkur tadqiqot ishimizda 1110-"O'stirishdagi hayvonlar" schyoti tadqiqot ob'ektimiz hisoblanmaganligi bois korxonada amalga oshirilgan ushbu operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya yozuvlarini keltirib o'tirmadik.) Qoramollarning boshlang'ich va ularning ortiqcha vaznlarining rejali qiymatlari bo'yicha mazkur qoramollar asosiy podaga o'tkazilgan. Korxonada amalga oshirilgan bunday operatsiyalarga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilgan:

Debet 0840 "Asosiy podani tashkil qilish"

Kredit 1110 "O'stirishdagi hayvonlar"

Bir vaqtning o'zida,

Debet 0170 "Ishchi va mahsuldor hayvonlar"

Kredit 0840 "Asosiy podani tashkil qilish"

2-vaziyat. Mazkur korxonada yuqorida keltirib o'tilgan operatsiyalardan tashqari, bir vaqtning o'zida dehqonchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida "ishchi hayvonlar" sotib olingan. Korxonada ishchi hayvonlarni shakllantirish, ularni boqish, parvarishlash hamda davr oxirida asosiy podaga qo'shish jarayonlari amalga oshirilgan bo'lib, xuddi yuqorida keltirilgan operatsiyalar kabi ushbu yo'nalishda ham aynan bir xil buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilgan.

Demak, yuqorida tadqiq etilgan korxona operatsiyalari hamda buxgalteriya yozuvlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda, korxonalarda boqilgan va asosiy podaga kirim qilingan hayvonlar ularning korxonada foydalanish maqsadidan qat'iy nazar yagona 0840-"Asosiy podani tashkil qilish" schyotida hisobga olingan. Korxonalarda amalga oshirilgan bunday vaziyatlar buxgalteriya hisobi va hisobotining nafilik darajasini pasaytirishga sabab bo'lmoqda, deb o'ylaymiz.

0850-"Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar" schyoti bo'yicha:

1-vaziyat. Korxona balansida mavjud bo'lgan yerni obodonlashtirish maqsadida xarajatlar amalga oshirilgan bo'lib, buxgalteriya hisobida quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshirilgan:

Debet 0850 "Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar"

Kredit 6990 "Boshqa majburiyatlar"

Debet 0111 "Yerni obodonlashtirish"

Kredit 0850 "Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar"

Ushbu buxgalteriya yozuvidan ko'rish mumkinki, korxonalarda yerni

obodonlashtirish maqsadida amalga oshirilgan xarajatlar buxgalteriya hisobida xuddi o‘stirishdagi hayvonlarni hisobga olishga mo‘ljallangan schyotlar (1110-“O‘stirishdagi hayvonlar”) kabi alohida hisobda qayd etilmay, balki bir vaqtning o‘zida 0850-“Yerni obodonlashtirishga kapital qo‘yilmalar” schyotida olib borilgan. Korxonalarda amalga oshiriladigan bunday kapital investitsiyalarga yuqorida keltirilgan tarzda buxgalteriya yozuvlari berilishiga sabab 21-son BHMSda yerni obodonlashtirish bo‘yicha xarajatlar aynan ushbu schyotda hisobga olinishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi xarajatlarni hisobga olishga mo‘ljallangan boshqa alohida schyot nazarda tutilmagan. Mamlakatimizda hali amalda bo‘lgan milliy standartlarimiz oldidagi bunday kamchiliklar kapital investitsiyalarning ushbu yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borishni vazifa qilib qo‘ymoqda.

2-vaziyat. Mazkur korxonada yuqorida keltirib o‘tilgan buxgalteriya operatsiyalardan tashqari, aynan ushbu davrda yashil iqtisodiyotni barpo etish maqsadida ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borilgan bo‘lib, ko‘p yillik o‘simliklar xarid qilingan. Korxonada ro‘y bergan bunday operatsiyalarga buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda yozuv qayd etilgan:

Debet 0850 “Yerni obodonlashtirishga kapital qo‘yilmalar”

Kredit 6990 “Boshqa majburiyatlar”

Debet 0180 “Ko‘p yillik o‘simliklar”

Kredit 0850 “Yerni obodonlashtirishga kapital qo‘yilmalar”

Korxona amaliyotida ro‘y berayotgan bunday jarayonlarga yuqorida keltirilgan tarzda buxgalteriya yozuvlarini qayd etish buxgalteriya hisobi oldida ma‘lum vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. Xossatan, bugungi yashil iqtisodiyot sharoitida 0850-“Yerni obodonlashtirishga kapital qo‘yilmalar” schyoti nazarimizda, bir vaqtning o‘zida ikkita vazifani bajaryabdi: ham yerni obodonlashtirishga amalga

oshirilgan kapital investitsiyalarni hisobga olyabdi va ham ko‘kalamzorlashtirish maqsadida ko‘p yillik o‘simliklarga kiritilgan kapital investitsiyalarni hisobga olyabdi. Zotan, ushbu jarayonlar buxgalteriya hisobida alohida aks ettirilishga hamda moliyaviy va boshqaruv hisobot shakllarida shaffof yoritilishga muhtoj, deb hisoblaymiz.

0860-“Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar” schyoti bo‘yicha:

Korxonalar amaliy ma‘lumotlari asosida olib borilgan ushbu tadqiqot ishimizda korxonalar balansida turgan asosiy vositalar uzoq muddatli shartnoma bo‘yicha ijara asosida kiritilgan bo‘lib, bunday aktivlarga ham kapital investitsiyalar amalga oshirilgan. Korxonalarda kapital investitsiyalar hisobiga doir bunday operatsiyalarga quyidagi tartibda buxgalteriya yozuvlari berilgan:

Debet 0860 “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar”

Kredit 6990 “Boshqa majburiyatlar”

Debet 0112 “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish”

Kredit 0860 “Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar”

Korxonalarda bugungi kunda bunday tartibda amalga oshirilayotgan buxgalteriya yozuvlaridan aynan qaysi turdagi ijara shartnomasi asosida olingan asosiy vositalarga kapital investitsiyalar kiritilganligini aniqlab bo‘lmaydi.

0890-“Boshqa kapital qo‘yilmalar” schyoti bo‘yicha:

Korxonalarda yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan kapital investitsiyalardan tashqari yana boshqa jarayonlar bo‘yicha ham kapital investitsiyalar kiritilgan hamda quyidagi ko‘rinishda buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilgan:

Debet 0890 "Boshqa kapital qo'yilmalar"

Kredit 6990 "Boshqa majburiyatlar"

Debet 0190 "Boshqa asosiy vositalar"

Kredit 0890 "Boshqa kapital qo'yilmalar"

Yuqorida keltirilgan buxgalteriya yozuvlari korxonaning asosiy vositalariga kiritilgan kapital investitsiyalarni aks ettirsada, biroq asosiy vositalarning turlari kesimida, aynan asosiy vositalar turi bo'yicha kapital investitsiyalar amalga oshirilganligi to'g'risida axborot bermayabdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar misolida kapital investitsiyalar hisobi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari hamda kapital investitsiyalarga doir buxgalteriya yozuvlaridan aniq bo'ldiki, korxonalarda asosan 0810-"Tugallanmagan qurilish" hamda 0820-"Asosiy vositalarni xarid qilish" schyotlari bo'yicha buxgalteriya operatsiyalari amalga oshirilgan bo'lib, kapital investitsiyalarga doir boshqa buxgalteriya

schyotlari bo'yicha operatsiyalarni boshqa korxonalarning amaliy ma'lumotlari asosida tadqiq etishni taqozo etdi. Shu bois, ushbu tadqiqotlar davomida kapital investitsiyalarga doir buxgalteriya operatsiyalarini amalga oshirgan ta'lim xizmatlari faoliyati bilan shug'ullanuvchi "Istiqbolli Ta'lim" nodavlat ta'lim muassasasi va boshqa korxonalarning amaliy ma'lumotlari asosida yoritildi. Xossatan, korxonalarda nomoddiy aktivlar, biologik aktivlar, yerni obodonlashtirishga, uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga va boshqa aktivlar bo'yicha amalga oshirilgan kapital investitsiyalar hisobi, ularni xalqaro standartlarda keltirilgan tartib-qoidalarga muvofiq takomillashtirish masalalari tadqiq etildi.

Bizning nazarimizda, tadqiqotlarimiz davomida erishilgan yuqoridagi natijalar mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda kapital investitsiyalar hisobini to'g'ri yuritishga ko'maklashadi hamda korxonalarning moliyaviy va boshqaruv qarorlarini aniq qabul qilinishiga, kapital investitsiyalarga doir axborotlarni moliyaviy hisobot shakllarida atroflicha shaffof aks ettirilishiga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2017 yil 07 fevral. PF-4947.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, № O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 25 dekabr. 598-son.
4. Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Federal Qonuni. 1999 yil 25 fevral. № 39-F3.
5. <https://www.investopedia.com/terms/c/capital-investment.asp>
6. https://buxgalter.uz/ru/publish/doc/text171564_asosiy_vositalar_tarkibida_operacion_harajatlarni_oshirmasdan_nimani_kapitalizaciyalash_mumkin
7. <https://happay.com/blog/capital-investment/>

UO‘T 339.138..336.7

Abdullayeva Nazokat Amrulloevna*PhD, dotsent,**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**E-mail: nazokat.abdullayeva1990@gmail.com*

FOND INDEKSLARI VA ULARNI HISOBLASH USULLARI

Абдуллаева Назокат Амруллоевна*PhD, доцент,**Ташкентский государственный экономический университет*

ФОНДОВЫЕ ИНДЕКСЫ И МЕТОДЫ ИХ РАСЧЕТА

Abdullayeva Nazokat Amrulloevna*PhD, Associate professor,**Tashkent State University of Economics*

STOCK INDICES AND THEIR CALCULATION METHODS

Annotatsiya. Mazkur maqolada fond bozori instrumentlaridan hisoblangan, birja indekslari mohiyati va ularni iqtisodiyotdagi ahamiyati o'rganilgan. Mashhur indekslar ma'lumotlaridan foydalanib, har bir hisoblash usullarining afzallik va kamchilik jihatlari bayon etilgan, hamda ulardan qimmatli qog'ozlar bozori holatini aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida foydalanish bo'yicha umumiy xulosalar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: fond birjasi, birja indeksi, aksiya, o'rtacha arifmetik usul, o'rtacha geometrik usul, o'rtacha tortilgan arifmetik usul, bazaviy davr, hisobot davri, investitsion portfel, rentabellik.

Аннотация. В данной статье исследуется сущность биржевых индексов как инструментов фондового рынка и их значение в экономике. На основе данных известных индексов описаны преимущества и недостатки каждого метода расчета, а также сформулированы общие выводы об их использовании в качестве показателей, отражающих состояние рынка ценных бумаг.

Ключевые слова: фондовая биржа, фондовый индекс, акция, метод простой средней арифметической, метод средней геометрической, метод средней арифметической взвешенной, базовый период, отчетный период, инвестиционный портфель, рентабельность.

Abstract. This article examines the essence of stock market indices as stock market instruments and their importance in the economy. Based on the data of well-known indices, the advantages and disadvantages of each calculation method are described, and general conclusions are formulated about their use as indicators reflecting the state of the securities market.

Key words: *stock exchange, stock index, simple arithmetic mean method, geometric mean method, weighted arithmetic mean method, base period, reporting period, investment portfolio, profitability.*

KIRISH

Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining hozirgi bosqichi turli xil moliyaviy instrumentlarning mavjudligi, xususi va institutsional investorlar amalga oshirishi mumkin bo'lgan bitimlarning keng doirasi bilan izohlanadi. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida birja indeksleri (boshqa nomi – fond indeksi) rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy bozorlar holatining asosiy ko'rsatkichlarini shuningdek, qimmatli qog'ozlar to'plami narx parametrlarining o'rtacha xususiyatlarini ifodalaydi. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar uchun esa, savdo ob'ekti, ya'ni bazis aktiv bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ular portfel investitsiyalarda faol qo'llaniladi, ya'ni moliyaviy instrumentlarni tanlashda, investitsiya yo'nalishlari va nisbatlarini belgilashda qo'llanma sifatida foydalaniladi.

Ushbu maqola doirasida qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining zamonaviy sharoitida zarur bo'lgan birja indeksining sifatlarini aniqlashga va tahlil qilishga, shuningdek, mashhur fond indeks ma'lumotlari asosida hisoblash usullari va formulalarini o'rganishga va baholashga harakat qilamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital bozorida turli fond indekslarining o'zgarish dinamikasi holati tahlili bo'yicha hamda investorlarga ushbu holatning ahamiyati bo'yicha xorijlik iqtisodchilar nazariy-amaliy tadqiqotlarni olib borganlar. Shuni ta'kidlash kerakki, 2008 yilda jahon moliyaviy inqirozi xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining holatiga juda

salbiy ta'sir ko'rsatdi, ammo fond indekslarini tahlil qilish asnosida, hech qanday tub o'zgarishlar yuz bermaganligi kuzatildi va natijada iqtisodchi olimlarning ushbu masalaga qiziqishi ortdi.

N. P. Sherstyankinani ta'kidlashicha, "fond indeksi – bu qimmatli qog'ozlar bozori holatini baholash ko'rsatkichi bo'lib, sodir bo'layotgan makroiqtisodiy jarayonlarni kompleks ifodalaydi. Iqtisodiyotda inqirozlar sodir bo'lsa, uning miqdori pasayadi. Iqtisodiy o'sish davrida esa uning miqdori ortib boradi. Shuning uchun fond indekslarini barcha mamlakatlarda iqtisodiyot holatini umumlashgan miqdoriy ko'rsatkichlari deb qabul qilingan" [1].

To'liq umumlashtirilgan ta'rif N.L. Marenkov tomonidan berilgan bo'lib, «birja indeksleri qimmatli qog'ozlar bozorining holatini umumiy baholashni ta'minlaydi» deb hisoblaydi [2].

S. Elmirzayev, F. Muxamedov va boshqalar tomonidan yozilgan "Moliya bozori va birja ishi" darslikda "fond indeksi – bu qimmatli qog'ozlar bozori holatini baholash ko'rsatkichi bo'lib, sodir bo'layotgan makroiqtisodiy jarayonlarni kompleks ifodalaydi. Iqtisodiyotda inqirozlar sodir bo'lsa, uning miqdori pasayadi. Iqtisodiy o'sish davrida esa uning miqdori ortib boradi. Shuning uchun fond indekslarini barcha mamlakatlarda iqtisodiyot holatini umumlashgan miqdoriy ko'rsatkichlari deb qabul qilingan" [3].

A. Akramov esa o'zining ilmiy maqolasida "fond indeksleri orqali investorlarga axborotlar qulay va tushunarli tarzda yetkaziladi. Fond indeksi – bu o'zida bir qancha qimmatli qog'ozlarning kunlik o'zgarish dinamikasini ifodalovchi, tarkibi fond birjalari yoki boshqa tashkilotlar tomonidan yaratilgan axborot ko'rinishidagi

ko'rsatkich hisoblanib, investorlarning faollik darajasiga doimiy ravishda ta'sir etadi yoki ta'sirlanadi" [4] deb ta'kidlab o'tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, kapital bozoriga investorlarni keng jalb etishda fond indekslarining mohiyati va ularni hisoblash usullari tahlil qilishda Dow Jones, Nikkei, Value Line Composite Average, FT-30 indeks ma'lumotlaridan foydalanildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi usullardan samarali foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Indeks tarmoqlar va sanoat bo'yicha keng ko'lamli kompaniyalardan ma'lumotlarni to'playdi, birgalikda bu ma'lumotlar umumiy bozor ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi. Bu esa, bozorning joriy narxlar darajasini o'tgan narxlar bilan solishtirishga yordam beradi. Oddiy qilib aytganda, fond bozori indeksi ma'lum bir aksiyalar, obligatsiyalar guruhi yoki ma'lum bir sektorning aksiyalari narxlarining o'zgarishini o'lchaydi.

Fond bozori indeksleri aksiyalar asosida hisoblangan indeks, obligatsiyalar indeksi, kompozit indeksarga bo'linadi. Aksiyalar indeksi portfeldagi aksiyalarga qilingan investitsiya rentabelligini, obligatsiyalar indeksi esa portfeldagi obligatsiyalarga qilingan investitsiya rentabelligini ko'rsatadi. Kompozit indekslar (aksiyalar va obligatsiyalar) – rentabellik va riskni boshqarishning va turli strategiyalarni shakllantirishda hamda barqaror rentabellikni ta'minlashda asosiy indeks sifatida qaraladi.

Birja indekslarini hisoblash o'rtacha oddiy arifmetik, o'rtacha geometrik, o'rtacha

tortilgan arifmetik usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. (1-rasm). Har bir usul birja indekslarini hisoblashda o'ziga xos yondashuvga ega bo'lib, bozor kapitallashuvi, aksiyalarning bahosi va indeks tarkibidagi kompaniyalar soni kabi omillarni hisobga oladi.

o'rtacha oddiy arifmetik usul

o'rtacha geometrik usul

o'rtacha tortilgan arifmetik usul

1-rasm. Birja indekslarini hisoblash metodologiyasi¹

Birinchi usul (o'rtacha oddiy arifmetik hisoblash) eng qadimgi hisoblanadi. Bu indeksga kiritilgan aksiyalarning bozor narxlarini yig'indisi kiritilgan aksiyalar soniga bo'linishidan iborat. Mashhur Dow Jones indeksi shunday hisoblanadi.

$$J = (\sum P_i) / N,$$

bu yerda –

J – indeks;

- kompaniyaning bir dona aksiya bahosi;

N – kompaniyalar soni.

Dow Jones Industrial Average (DJIA) 30 ta kompaniyaga asoslangan bo'lib, o'rtacha oddiy arifmetik usuli yordamida hisoblanadi. Shuning uchun ushbu indeks kompaniyalarning ma'lum bir sanadagi aksiyalar narxlarini yig'indi qiymatini kompaniyalar soniga, ya'ni 30 ga bo'lish orqali topiladi.

Darhaqiqat, indeksni hisoblashning dastlabki davrida bo'luvchi 30 raqami bo'lgan. Biroq, indeks tarkibidagi kompaniya aksiyalarining bozor qiymati oshgani sayin, emitentlar aksiyalari narxini 20 dan 100 AQSH dollar intervalida bo'lishi uchun split amaliyotini o'tkazadilar. Mazkur amaliyot birja ishtirokchilari uchun odatiy hisoblanib, bo'linishni amalga oshirayotganda birja

¹ Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan shakllantirilgan.

indeksi qayta hisob-kitob qilinadi va yangi bo‘linuvchi topiladi. Mazkur hisoblash amaliyotini, ya’ni splitgacha bo‘luvchi hamda splitdan keyingi bo‘luvchi qiymati o‘zgarishini 30 ta kompaniya aksiyalari asosida 1-jadval ma’lumotlari orqali tahlil qilamiz.

1-jadval

O‘rtacha oddiy arifmetik usulda indekslarni hisoblash (Aqsh doll.)²

K o m - paniyalar	Splitgacha 1 dona aksiyaning narxi, AQSH dol.	Split	Splitdan keyingi 1 dona aksiyaning narxi
A	60	1:3	20
B	50	-	50
C	80	1:2	40
:	:	:	:
N	30	-	30
Jami:	1500	-	1300

Splitgacha bo‘lgan birja indeksi 50 AQSh dollariga teng bo‘ladi, mazkur natija 30 ta kompaniyaning 1 dona aksiyasining bozor narxi asosida hisoblanadi. Aksiyalarni split qilish natijasida birja indeks qiymati o‘zgaradi. Bunda, A kompaniyaning aksiyalari 1:3 nisbatda, ya’ni bitta aksiya uchta yangi aksiyaga, C kompaniyaning aksiyalari esa 1:2 nisbatda ya’ni bitta aksiya ikkita yangi aksiyaga bo‘linib, natijada ko‘rib chiqilayotgan 30 ta kompaniya aksiyalarining bozor qiymati 1300 ni tashkil etadi.

$$N = \frac{\sum P_i}{J} = \frac{1300}{50} = 26.$$

Shunday qilib, keyingi davr uchun indeksni hisoblashda, keyingi split sodir bo‘lgunga qadar 26 bo‘luvchi sifatida ishlatiladi. Eng mashhur yapon fond indeksi Nikkei (Nikkei Dow Jones Average) ham oddiy arifmetik o‘rtacha usuli yordamida hisoblanadi. U Tokio fond birjasida sotiladigan 225 ta aksiya asosida

² Tadqiqot natijalariga ko‘ra muallif tomonidan shakllantirilgan.

aniqlanadi. Bugungi kunda fond indekslarini hisoblashning birinchi va ikkinchi usullari ko‘pincha qo‘llaniladi.

Birja indekslarini hisoblashda qo‘llaniladigan yana bir usul o‘rtacha geometrik bo‘lib, bugungi kunda mashhur indekslarni hisoblashda foydalanib kelinmoqda. Masalan, AQShda 1695 ta aksiyalarning kotirovkalarini o‘z tarkibiga olgan Value Line Composite Average va Buyuk Britaniyadagi eng qadimgi FT-30 indekslar bunga misol bo‘la oladi. FT-30 indeksi 30 ta kompaniyaning aksiya bahosi asosida, quyidagi geometrik o‘rtacha usul formulasi yordamida hisoblanadi:

$$J = \sqrt[n]{J_1 \times J_2 \times J_3 \times \dots \times J_n} \text{ ,}$$

- J – kompozit indeks,
- – kompaniya aksiyalarining bozor qiymatining o‘rish sur‘ati (individual indeks),
- n – indeks tarkibidagi kompaniyalar soni.

2-jadvalda o‘rtacha geometrik usul yordamida fond indeksini hisoblashning shartli misoli keltirilgan. Dastlab, kompaniyaning individual indeksi aniqlab olinadi. Hisobot davridagi aksiyalar narxini bazaviy davrdagi aksiyalar narxiga nisbati kompaniyaning individual indekslarini keltirib chiqaradi, mazkur ma’lumot asosida kompozit indeks aniqlanadi.

2-jadval

O‘rtacha geometrik usulda indekslarni hisoblash (ft.ster.)³

Kom- paniya	1-aksiya narxi, ft.ster.		Individual indeks bahosin- ing o‘rish sur‘ati
	Bazaviy davr	Hisobot davri	
A	20	21	1,05
B	37	40	1,08
C	28	26	0,93
D	50	53	1,06

³ Tadqiqot natijalariga ko‘ra muallif tomonidan shakllantirilgan.

$$J = \sqrt[4]{1,05 \times 1,08 \times 0,93 \times 1,06} = \sqrt[4]{1,0079} = 1,028.$$

Ushbu indeks orqali fond bozori dinamikasini baholash mumkin bo'ladi. Agar indeks qiymati 1 dan katta bo'lsa, indeks tarkibidagi kompaniyalar aksiyalarining bozor narxlari ko'tarilayotganligini, aksincha indeks qiymati 1 dan past bo'lsa, bu bozorning pasayishini ko'rsatadi.

Geometrik o'rtacha usul yordamida hisoblanadigan indekslarni aniqlashda kompaniyalarning bozor kapitalizatsiyasi hamda ayrim emitentlarning aksiyalari savdosi hajmi hisobga olinmasligi, mazkur hisoblash usulining kamchiligi sifatida qaraladi.

Indeksni hisoblashda eng keng tarqalgan usul bu o'rtacha tortilgan arifmetik usulidir. Bu usul kompaniya bozor kapitalizatsiyasini va fond bozoridagi operatsiyalar ko'lamini hisobga oladi. Odatda, mazkur indeksni hisoblashda kompaniyaning bozor kapitallashuvi qiymatidan foydalaniladi. Bu usul yordamida juda mashhur indekslar hisoblanadi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida Standard & Poor's (S&P) kompozit va sanoat indekslari, Nyu-York fond birjasining kompozit indekslari, NASDAQ tizimi indekslari, Amerika fond birjasi indeksi va Wilshire 5000 indekslari o'rtacha tortilgan arifmetik usul yordamida hisoblanadi.

Indeks o'rtacha tortilgan arifmetik usul yordamida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$J = \frac{\sum_{i=1}^n P_i^1 \times Q_i^1}{\sum_{i=1}^n P_i^0 \times Q_i^0} \times K,$$

va - bazaviy va hisobot davrida
i – ta kompaniyaning aksiya bahosi,
va - bazaviy va hisobot davrida muomalada bo'lgan aksiyalar soni
i – 1, 2, 3,, n – indeks

tarkibidagi kompaniyalar soni,
K – bazaviy indeks qiymati.

3-jadval

Muomaladagi aksiyalar soni va bahosi⁴

Kompaniya	Bazaviy davr			Hisobot davri		
	Aksiya bahosi (Aqsh dol.	Aksiyalar soni (mln. dona)	Bozor kapitalizatsiyasi (mln. Aqsh dol.)	Aksiya bahosi (Aqsh dol.	Aksiyalar soni (mln. dona)	Bozor kapitallashuvi (mln. Aqsh dol.)
A	20	25	500	21	25	525
B	37	10	370	40	18	720
C	28	50	1400	26	70	1820
D	50	20	1000	53	26	1378
Jami:	.	.	3270	.	.	4443

Indeksni hisoblashda ushbu usul dastlab ma'lum bir sanada bazaviy davridagi kompaniyalarning bozor kapitallashuvini aniqlaydi. Misol uchun, Nyu-York fond birjasi indeksini hisoblashda bazaviy qiymat 1965 yil 31 dekabrda birjada ro'yxatga olingan 2200 ta aksiyaning bozor kapitallashuvi hisoblanadi. Ushbu bazaviy kapitallashuv indeksning asosiy qiymati bilan belgilanadi masalan, Nyu-York fond birjasi bazaviy indeks qiymati 50, NASDAQ indekslari uchun esa bazaviy indeks qiymati 100 ga teng.

Faraz qilaylik, ko'rib chiqilayotgan 3-jadvaldagi asosiy parametrlarni hisoblash 1992 yil 2-yanvar holatiga ko'ra amalga oshirildi va uning bazaviy indeks qiymati 100 sifatida qabul qilindi. Agar hisobot sanasi

⁴ Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan shakllantirilgan.

uchun indeksni hisoblamoqchi bo'lsak, u holda bozor kapitallashuv bazaviy va hisobot sanalari bo'yicha taqqoslanadi va indeksning bazaviy qiymatiga qayta hisoblab chiqiladi:

$$J = \frac{4443}{3270} \times 100 = 135,87.$$

3-jadval ma'lumotlari asosida o'rtacha tortilgan arifmetik usul yordamida hisoblangan hisobot sanasidagi birja indeksi 135,87 ni tashkil etdi. Indeksning bazaviy qiymati 100 qilib olinganligi sababli, natija ko'rib chiqilayotgan davrdagi kompaniyalarning bozor kapitallashuvi 35,87 foizga oshganini ko'rsatadi. O'rtacha tortilgan arifmetik usul yordamida hisoblangan indeks avtomatik ravishda aksiyalarning bo'linishi, ularning qo'shimcha chiqarilishi yoki sotib olinishi, aksiyalar narxining oshishi kabi holatlarni hisobga oladi. Shuning uchun fond bozorlarida hisoblangan indekslarning katta soni ushbu usul yordamida aniqlanadi.

foydalaniladigan ko'rsatkich hisoblanadi. Birja indeksi esa quyidagi maqsadlarni o'zida ifodalaydi:

- umumlashtirilgan shaklda qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir guruhining holatini ifodalaydi;
- alohida aksiyalarning narxi turli yo'nalishlarda o'zgarganda ham bozorning umumiy dinamikasini baholash imkonini beradi;
- bir butun bozor harakatini o'rganish uchun har bir aksiya narxini kuzatib borish shart bo'lmaydi;
- rentabellik va riskni aniqlash imkoniyati mavjud.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda birja indeksleri va ularning harakatlari, investor uchun iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni tushunishga, risklarni adekvat baholashga va kerak bo'lganda qimmatli qog'ozlar portfelini o'z vaqtida diversifikatsiya qilishga imkoniyat yaratadi.

XULOSA

Umuman olganda, indeks - bu bir xil hodisaning ikkita holatini taqqoslashda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шерстянкина Н.П. (2007) Модели и методы анализа способов расчета фондовых индексов : дис. – Иркутск.
2. <https://unec.edu.az/application/uploads/2018/11/CAVADOV-AH-N-VAH-D.pdf>
3. Elmirzayev S., Muxamedov F., Abdikarimova D., Karimov A., (2023), Moliya bozori va birja ishi, Darslik - T.: OOO "Diadema Nur Serviz" 520 b.
4. Karimov A. "Kapital bozorida investorlar faolligini oshirishda fond indekslarining o'rni" – Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2024 yil, mart. www.e-itt.uz
5. Dow Jones (2024) Companies sorted by Weight. Slickcharts. Retrieved February 26
6. Куликов, А.А. Форекс для начинающих. Справочник биржевого спекулянта. 2-е изд. — СПб.: Питер, 2009.
7. Маляров А.Н., Герасимова Е.А. (2015) Портфель малой капитализации, имитирующий рыночный индекс //Вестник СамГУПС. – №. 2-2. – С. 60-64.
8. <https://www.finra.org/investors/investing/investment> products/stock-splits
9. <https://gazprombank.investments/blog/market/stock-indices/>

Udk:336.64:330.3(575.1)

Сагдиллаева Зулфия Асаналиевна,
Профессор Ташкентский государственный
экономический университет

**СОВРЕМЕННЫЙ ФИНАНСОВЫЙ АНАЛИЗ, КАК ИНСТРУМЕНТ
ОБОСНОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ, ОПЕРАЦИОННЫХ И
ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ**

Sagdillayeva Zulfiya Asanaliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti professori.

**ZAMONAVIY MOLİYAVIY TAHLIL MOLİYAVIY, OPERATSION VA
INVESTITSIYA QARORLARINI ASOSLASH VOSITASI SIFATIDA**

Sagdillayeva Zulfiya Asanaliyevna
Professor Tashkent State University of Economics

**MODERN FINANCIAL ANALYSIS AS A TOOL FOR SUBSTANTIATING
FINANCIAL, OPERATIONAL AND INVESTMENT DECISIONS**

Аннотация. В работе указана роль и значение финансового анализа при принятии финансовых, операционных и инвестиционных решений, рассмотрены ключевые показатели эффективности финансового управления, вопросы финансовой стратегии.

Ключевые слова. Финансовый анализ, финансовое планирование, финансовая стратегия, бюджеты.

Annotatsiya. Ish moliyaviy, operatsion va investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyaviy tahlilning roli va ahamiyatini ko'rsatadi, moliyaviy menejmentning asosiy ko'rsatkichlari va moliyaviy strategiya masalalarini o'rganadi.

Tayanch so'zlar. Moliyaviy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy strategiya, byudjetlar.

Annotation. The paper indicates the role and importance of financial analysis in making financial, operational and investment decisions, considers key performance indicators of financial management, issues of financial strategy.

Keywords. Financial analysis, financial planning, financial strategy, budgets.

Введение

Традиционно финансовый анализ является важнейшим инструментом финансового управления. Однако в связи с серьезными изменениями, происходящими в настоящее время как в самих компаниях, так и в окружающей их внешней среде, необходимы особые подходы, связанные с целевой направленностью современного финансового анализа, расширением его информационной базы, использованием новых методов и показателей.[2] Современные методы управления требуют организации комплексной и всесторонней оценки всех сторон хозяйственной деятельности: операционной, финансовой, инвестиционной, внешнеэкономической и инновационной. В результате которого будут достигнуты цели устойчивого развития и уровни стабильного финансового положения хозяйствующих субъектов. Если в традиционном экономическом анализе хозяйственной деятельности поддерживалось устойчивое функционирование хозяйствующих субъектов, где не уделялось особо важного значения аналитическому обеспечению и интересам заинтересованных пользователей. Современный финансовый анализ должен служить эффективному развитию бизнеса, в основе которого лежит инновационная предпринимательская деятельность.

Анализ и результаты

Современный финансовый анализ – это процесс, основанный на изучении финансового состояния, результатов деятельности и денежных потоков хозяйствующих субъектов, меняющихся под воздействием внешней и внутренней среды, с целью оценки эффективности принимаемых решений. Он охватывает весьма широкий круг вопросов, которые

выходят за рамки традиционного анализа финансовой отчетности. Финансовый анализ даёт возможность оценить :

- финансовую устойчивость;
- риски, которые могут повлиять на финансовое состояние в будущем;
- потребность в источниках финансирования с учётом выбранной стратегии развития;
- направления инвестирования средств с учётом бизнес-модели организации;
- эффективность финансовых, операционных и инвестиционных решений.

Методология исследования

Считаем целесообразным проводить финансовую аналитическую работу на предприятии по конкретным объектам финансового управления на основе способов и методик факторного анализа.

Важно различать внешний и внутренний финансовый анализ, поскольку их целевые установки, используемый инструментарий и информационная база будут отличаться.

Результат и обсуждение.

При проведении финансового анализа внешними пользователями (инвесторами, кредиторами, партнёрами и контрагентами, конкурентами, рейтинговыми агентствами, аудиторскими и консалтинговыми фирмами, государственными органами, другими заинтересованными сторонами), его основными целями может быть оценка инвестиционной привлекательности организации (и (или) её долевых и долговых ценных бумаг), финансовой устойчивости и платежеспособности, непрерывности и стабильности деятельности, обоснованности выплаты дивидендов и другие.

Внутренний финансовый анализ ориентирован на решение конкретных стратегических и оперативных задач управления ресурсами, рационального выбора источников привлечения средств, поддержания финансовой устойчивости, обеспечения необходимой отдачи на вложенный собственниками капитал, удовлетворения финансовых требований иных заинтересованных сторон.

Необходимое условие успешности финансового анализа — его соответствие целям развития организации. В зависимости от поставленных целей в методике анализа будут приоритетными те или иные его направления (например, оценка рентабельности, денежных потоков); определенные показатели будут выбраны в качестве ключевых, оценочных или контролируемых. Все это делает необходимым понимание целевой картины бизнеса (миссии организации).

Целевая картина (миссия) отражает долгосрочную концепцию развития организации. В качестве миссии организации могут рассматриваться, например, завоевание лидирующих позиций в конкретной сфере деятельности, рост благосостояния акционеров, наибольшее удовлетворение потребностей заказчиков выпускаемой продукции или оказываемых услуг и т.д. Миссия характеризует концепцию развития организации на качественном уровне и конкретизируется в виде целевых задач.

Для осуществления выбранной миссии организации необходимо обосновать и разработать цели и стратегию их достижения. Так, общая целевая установка — занять лидирующие позиции — предполагает достижение определенных целей в области финансов, производства, управления персоналом и в других важнейших сферах деятельности.

Таким образом, целевая картина (миссия) должна быть конкретизирована в виде ряда целевых задач, например:

- стабильное получение необходимой прибыли;

- укрепление позиций на существующих рынках сбыта и освоение новых рынков;

- внедрение новейших технологий с целью обеспечения высокого качества продукции (оказываемых услуг);

- повышение мотивации персонала.

Для оценки степени достижения поставленных целей необходимы определенные количественные измерители. Такие измерители получили название целевых, или ключевых, показателей.

Пример. Целевая задача — повышение рентабельности инвестирования капитала.

Конкретный результат — на 5%.

Срок достижения — IV квартал ... года.

Поставленная задача должна быть конкретизирована через выбор и обоснование значений показателей, являющихся факторами достижения целевого значения рентабельности.

Применительно к финансовым целям организации к числу ключевых показателей обычно относят показатели прибыли, рентабельности собственного капитала, экономической добавленной стоимости (**EVA**). Анализ показателей, выбранных в качестве ключевых, изучение основных факторов, определяющих их динамику, позволяют обосновать значения важнейших показателей бизнес-плана.

Для реализации поставленных целей и достижения необходимых значений ключевых показателей должна быть разработана финансовая стратегия организации. Обычно стратегия — это ключ к финансовому успеху, ее отсутствие снижает вероятность достижения

поставленных целей. Действительно, цель увеличения прибыли или роста эффективности, скорее всего, останется общим лозунгом, если в организации, во-первых, не будут разработаны способы повышения эффективности и, во-вторых, отсутствуют конкретные измерители, позволяющие количественно оценить, насколько организация приблизилась к достижению поставленной цели.

Если, например, в качестве финансовой цели выдвигается рост рентабельности инвестирования капитала, то это предполагало бы, возможно, следующие направления действий (стратегию):

- увеличение продаж за счет применения новых технологий маркетинга, изменения ценовой политики, освоения новых рынков сбыта;

- сокращение затрат вследствие экономии на накладных расходах;

- повышение эффективности использования активов за счет сокращения операционного цикла (уменьшение сроков хранения запасов, погашения дебиторской задолженности и т.д.), избавления от излишних долгосрочных активов.

Финансовая стратегия компании должна базироваться на результатах стратегического финансового анализа, поскольку именно он позволяет понять, достаточно ли у компании финансовых ресурсов для достижения поставленных целей, какие выбрать пути для их достижения, каковы риски того или иного сценария.

Стратегический анализ позволяет избежать последствий неэффективных финансовых решений о вложении средств в то или иное направление бизнеса, которые могут иметь необратимый характер. Важнейшими задачами стратегического финансового анализа будут:

- разработка различных сценариев финансового плана и оценка их последствий;

- выбор ключевых показателей для всех сценарных вариантов финансового плана;

- обоснование значений ключевых показателей применительно к различным временным периодам и в динамике;

- оценка сбалансированности показателей;

- анализ чувствительности ключевых параметров деятельности к различным факторам риска.

Предприятие также имеет общефирменные цели – они определяются учредителем, размером уставного капитала, влиянием внешней и внутренней среды на предприятие. Направление развития компании, ориентированное на долгосрочную перспективу называется стратегией. Совокупность различных способов и методов, по средствам которых осуществляется достижение целей предприятия, включается в стратегию. У каждого предприятия есть определенная цель. Целей может быть и несколько, ставят их обычно собственники, а для достижения используются материальные и кадровые ресурсы, с помощью которых осуществляется финансово-хозяйственная деятельность. То есть по сути своей финансово-хозяйственная деятельность является инструментом для достижения иерархических, экономических и других целей, стоящих перед конкретным предприятием.

Стратегия по форме представляет собой документ, который содержит набор правил, какими руководствуется предприятие, принимая управленческие решения. Стратегическое управление представляет собой процесс последовательных действий организации, включающий: постановку целей, анализ внешней и внутренней среды, определение нужных ресурсов, выработку стратегии, контроль за ее реализацией .

Рассмотрение причинно – следственных связей движения финансовых потоков может дать ключ к пониманию существующих проблем на предприятии, выявить его сильные и слабые стороны, а также сформулировать принципы его финансового развития и стратегию на долгосрочную перспективу. Осуществление этой задачи возможно благодаря комплексному финансовому анализу.

Финансовый анализ как неотъемлемая часть хозяйственной оценки имеет цель не просто дать характеристику финансовому положению предприятия, но и сформулировать предложения по совершенствованию его экономической деятельности. Глубокое исследование фактов хозяйственной жизни, структуры, состава, динамики активов позволяет получить стратегическое видение развития предприятия и, как следствие, разработать эффективную финансовую стратегию его функционирования.

Вопросы, связанные с финансовым состоянием компании, всегда актуальны и требуют повышенного внимания, поскольку финансовое состояние организации является не только результатом деятельности прошедших периодов, но и является предпосылкой дальнейшего развития компании. Поэтому важно знать текущее финансовое состояние предприятия для того, чтобы выявить возможности повышения эффективности функционирования данного предприятия с помощью рациональной финансовой политики.

В зависимости от цели могут применяться и иные подходы стратегического анализа, например GAP анализ и PEST анализ. GAP анализ, или «анализ разрывов», основан на сравнении текущего состояния компании с желаемым положением дел в будущем, а также на оценке возможных путей решения

целевых задач и их принципиальной достижимости на основе собранной информации. PEST анализ концентрирует стратегическое исследование только на факторах макроуровня и предназначен для выявления политических (policy), экономических (economy), социальных (society) и технологических (technology) аспектов внешней среды, которые могут повлиять на стратегию компании. Разработанная финансовая стратегия находит отражение в показателях финансовых бюджетов. К основным финансовым бюджетам относят бюджет доходов и расходов, бюджет движения денежных средств и прогнозный баланс. Одно из основных требований бюджетирования состоит в том, что бизнес-план должен быть внутренне непротиворечив. Показатели отдельных бюджетов должны логически соответствовать друг другу. Так, если компания планирует рост продаж, необходимо предусмотреть соответствующее запланированному росту увеличение оборотного и основного капитала, а также необходимые для этого источники финансирования. Поэтому важнейшей задачей финансового анализа (как стратегического, так и текущего) является оценка сбалансированности показателей бюджетов. К числу основных способов обеспечения сбалансированности показателей следует отнести построение системы показателей, например на базе показателей EVA, ROE или ROA.

Важной составной частью финансовой отчетности предприятия является отчет о прибылях и убытках. Основное назначение данного отчета заключается в характеристике финансовых результатов деятельности предприятия за отчетный период. Анализ каждого из элементов отчета имеет большое значение для руководства предприятия, его

учредителей, акционеров и кредиторов. Для руководства такой анализ позволяет определить перспективы развития предприятия, так как прибыль является одним из источников финансирования капитальных вложений и пополнения оборотных средств. Учредителям и акционерам она является источником получения дохода на вложенный ими в данное предприятие капитал. Кредиторам подобный анализ дает возможность погашения предоставленных хозяйствующему субъекту кредитов и займов, включая и уплату причитающихся процентов. Прибыль предприятия является важнейшим показателем эффективности его деятельности, источником финансирования производственных и социальных расходов, дополнительного вознаграждения работников.



Рис. Оценка сбалансированности показателей бюджетов.

При анализе таких расчетов в динамике по отчету прибылях и убытках можно увидеть, что с 2019 по 2023 год падает доля валовой прибыли в выручке с 20% до 8% и при этом растет себестоимость продукции. Безусловно, это негативный сигнал, который в данном случае говорит о росте расходов и снижении отпускных цен на продукцию предприятия.

Анализ отчета о прибылях и убытках с помощью финансовых коэффициентов имеет следующие цели:

1) оценить эффективность работы предприятия с помощью показателей рентабельности;

2) оценить эффективность использования отдельных активов предприятия.

Для расчета всех ключевых показателей эффективности понадобятся не только показатели отчета о прибылях и убытках, но и балансовые показатели.

Если показатели рентабельности увеличиваются в динамике, то это свидетельствует о повышении эффективности хозяйственной деятельности на предприятии.

Рентабельность продаж (ROS) показывает, какой доход имеет предприятие с каждого сума реализованной продукции. Данный показатель определяется по формуле.

$$ROS = \frac{\text{чистая прибыль}}{\text{выручка}} \times 100\%$$

Различия в значении данного показателя во многом определяются успешностью управления. Величина рентабельности продаж находится в непосредственной зависимости от структуры капитала. Инвестор капитала (акционер) вкладывает свои средства с целью получения дохода от инвестиций, поэтому с точки зрения инвестора капитала наилучшей оценкой результатов деятельности субъекта является наличие дохода на вложенный капитал.

Рентабельность собственного (ROE) капитала определяется по формуле.

$$ROE = \frac{\text{чистая прибыль}}{\text{собственный капитал}} \times 100\%$$

При расчете данного показателя значение собственного капитала берется как среднее арифметическое число за период. В аналитических целях определяется рентабельность мобильных и иммобилизованных активов по формулам Ros и Roe. соответственно, а также всей совокупности активов по формуле.

$$RCA = \frac{\text{чистая прибыль}}{\text{текущие активы}} \times 100\%$$

$$RFA = \frac{\text{чистая прибыль}}{\text{долгосрочные активы}} \times 100\%$$

$$ROA = \frac{\text{операционная прибыль}}{\text{активы}} \times 100\%$$

При расчете данных показателей значение знаменателя также берется как среднее арифметическое за период (Таблица).

С каждого сума средств, вложенных в его совокупные активы, в 2023 году получена прибыль 1,1 сум. При этом в базовом периоде рентабельность совокупных активов составляла 6,1%. Значительно снизилась эффективность

использования оборотных средств: вместо 7,3 сум дохода, получаемого с сума текущих активов в 2019 году, убыток с каждого сума средств, вложенных в текущие активы, в 2023 году составил 1,3 сум.

Рентабельность внеоборотных активов в рассматриваемом периоде снизилась на 28,7% и составила в 2023 году – 8,9%.

Максимальное значение рентабельности собственного капитала зафиксировано в конце 2020 года на уровне 22,9%, при этом к концу рассматриваемого периода убыток от не эффективного использования собственного капитала составил 4 сума на каждый вложенный в них сум.

Таблица

Анализ показателей рентабельности АО «XXX».

№	Показатель	2019 г.		2020 г.		Отклонение	
		Общая рентабельность	Чистая рентабельность	Общая рентабельность	Чистая рентабельность	Общая рентабельность	Чистая рентабельность
	Рентабельность реализации (продаж) $K_{рп}$	20,3%	6,0%	18,1%	6,5%	-2,2%	0,5%
1	Рентабельность активов $K_{ра}$, ROA	20,6%	6,1%	17,7%	6,4%	-2,9%	0,3%
3	Рентабельность собственного (акционерного) капитала $K_{рск}$, ROE	76,1%	22,5%	63,2%	22,9%	-12,9%	0,3%
4	Рентабельность затрат K_{pz}	25,5%	7,5%	22,1%	8,0%	-3,4%	0,4%
5	Рентабельность внеоборотных активов $K_{ва}$	127,0%	37,6%	136,9%	49,5%	9,9%	11,9%
6	Рентабельность оборотных активов $K_{оа}$	24,6%	7,3%	20,3%	7,3%	-4,3%	0,1%



Рис. Динамика показателей рентабельности.

Заключение

Рассчитанные показатели позволяют сделать следующие выводы. Данное предприятие на конец рассматриваемого периода убыточно и, в целом, стало хуже использовать свое имущество. Ухудшение позиций рентабельности констатируется по всем рассмотренным позициям.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.

1. Современный словарь иностранных слов : около 20 000 слов. М., 1992. С. 43
2. Ефимова О.В. Финансовый анализ:инструментарий обоснования экономических решений. КНОРУС-Москва-2023.
3. Ковалев В. В. Финансовый анализ: методы и процедуры. М., 2005. С. 22.
4. Шеремет А. Д., Козельцева Е. А. Финансовый анализ : учеб.-метод. пособие. М., 2020. С. 18.
5. Шеремет А. Д., Козельцева Е. А. Финансовый анализ : учеб.-метод. пособие. М., 2020. С. 18–19
6. З.А.Сагдиллаева, И.Х.Чориев, А.Б.Абдуллаев. Экономический анализ. Т.: «Nihol print» ОК.2022.
7. Григорьева Т. И. Финансовый анализ для менеджеров: оценка, прогноз : учебник для магистров. М., 2012. С. 11.

UO‘T:657.1/658.330

Mamatkulov Akram Xalmurodovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Moliyaviy tahlil” kafedrası (PhD)

**QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR
HISOBI HAMDA TAHLILINI USTUVOR JIXATLARI**

Mamatkulov Akram Khalmurodovich,
Tashkent State University of Economics,
Department of «Financial Analysis» (PhD)

**PRIORITY ASPECTS OF COST AND INCOME ACCOUNTING AND
ANALYSIS IN PROCESSING ENTERPRISES**

Маматкулов Акрам Халмуродович,
Ташкентский государственный
экономический университет,
Кафедра «Финансового анализа» (PhD)

**ПРИОРИТЕТНЫЕ АСПЕКТЫ УЧЕТА И АНАЛИЗА ЗАТРАТ И ДОХОДОВ
НА ОБРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

Annotasiya: *Maqolada qayta ishlash korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini tahlil natijalari bo'yicha ijobiy moliyaviy natijalarga erishish hamda faoliyat istiqboli uchun muhim bo'lgan korxonani strategik masalalari yoritilgan. Shuningdek qayta ishlash korxonalarida olinadigan har bir mahsulot uchun qilinadigan xarajat va undan kutilayotgan daromad ko'rsatkichlari tahliliy natijalari orqali ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

Tayanch so'zlar: *xarajatlar, daromadlar, tannarx, qayta ishlash korxonalari, mahsulotlar, moliyaviy natija, faoliyat istiqboli, strategik masalalar.*

Abstract: *The article describes the strategic issues of the enterprise, which are important for the achievement of positive financial results and the perspective of the activity based on the results of the analysis of the cost and income account in the processing enterprises. Also, scientific conclusions and proposals were developed through the analytical results of the cost and expected income indicators for each product obtained in the processing enterprises.*

Key words: *costs, revenues, cost, processing enterprises, products, financial results, business prospects, strategic issues.*

Аннотация: *В статье описаны стратегические вопросы предприятия, важные для достижения положительных финансовых результатов и перспектива деятельности на*

основе результатов анализа учета затрат и доходов перерабатывающих предприятий. Также были разработаны научные выводы и предложения по результатам анализа показателей себестоимости и ожидаемой прибыли по каждой продукции, полученной на перерабатывающих предприятиях.

Ключевые слова: *затраты, выручка, себестоимость, перерабатывающие предприятия, продукция, финансовые результаты, перспективы бизнеса, стратегические вопросы.*

KIRISH

Global iqtisodiyot bugungi kunda mamlakatimizga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda va respublikamiz taraqqiyoti uchun zaruriy bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish strategik masalalarga aylanmoqda. Shu bois, Yangi O'zbekiston ham mavjud xom-ashyo resurslarini inobatga olib qayta ishlash korxonalarini zamonaviy rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda. Respublikamizda bir qancha olib borilayotgan islohotlarining natijasida qayta ishlash korxonalari faoliyatiga ham chora-tadbirlar ishlab chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi. Bu esa, o'z navbatida ushbu sohani barqaror faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy-moliyaviy hisob-kitoblarini takomillashtirish lozimligini taqozo etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun barcha qayta ishlash korxonalar o'ziga qarashli mavjud resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish bugungi iqtisodiyotning asosiy talablaridan biridir. Shu o'rinda korxonada olingan mahsulotlarni tannarxi va daromadi bo'yicha faoliyatning ijobiy yakuniy moliyaviy natijaga erishishi uchun - xarajatlar hisobi hamda tahlilini ustuvor jihatlariga e'tibor qaratish joizdir. Bundan tashqari, qayta ishlash korxonalarida xarajatlar hisobi hamda tahlili oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri - korxonani boshqaruv tizimini haqiqiy

ma'lumotlar bilan ta'minlashdir. Bu ma'lumotlar orqali korxonalar iqtisodiy ravnaqi uchun hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar yechimi bo'yicha zaruriy qarorlarni ishlab chiqishda hamda muhim vazifalarni belgilab olishda o'z ahamiyatiga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan "xarajatlar va daromadlar hisobi hamda tahlili" bo'yicha bir qancha ilmiy qarashlar e'tirof etilgan va ular quyidagicha:

Rossiyalik olimlar G.M.Lisovich va I.Yu. Tkachenkolar tadqiqotlarida zamonaviy ishlab chiqarish hisobi, ishlab chiqarish xarajatlarini kuzatish, ortiqcha xarajatlarning sabablarini hamda uni kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qilishga ustivorlik beriladi hamda xarajatlarni turlari va paydo bo'lish joylari bo'yicha hisobini yuritish tavsiya etiladi. [1]

Ye.B. Kozin va TA Kozinalar qarashlarida, xarajatlarning paydo bo'lish joyi boshqaruv hisobida analitik hisobining alohida ob'ekti bo'lib, unda kuzatish, nazorat qilish va boshqarish maqsadida me'yorlashtirish, rejalashtirish, hisobni umumlashtirish zarurligi takidlanadi.[2]

T.P. Karpova xarajatlar hisobiga daxldor birliklar sifatida quyidagilarni tarkiblaydi: to'la tannarx hisobi, javobgarlik markazlari bo'yicha hisob.[3]

A.A.Karimov, I.K.Ochilov, Z.U.G'aniyevlar tadqiqotlarida "asosiy mahsulot xarajatlarini qo'shimcha mahsulotlarning yoki chiqitlarning bozor qiymatiga kamaytirishni tavsiya etishadi."[4]

M.Yu.Raximov, N.N.Mavlanov, N.N.Kalandarovalar natijaga daxldor bo'lgan elementlarni alohida tarkiblab, daromadlar-aktivlarning ko'payishi sifatida, xarajatlar-aktivlarning ishlatilishi yoki foydalanishi natijasida kamayishi sifatida e'tirof etiladi.[5]

A.X.Mamatqulov “Korxonalar faoliyatida xarajatlar korxona tashkil topishida, xo‘jalik faoliyatida, ishlab chiqarishni amalga oshirilishida, sotish jarayonida shuningdek moliyaviy va favqulodda holat bo‘yicha yuzaga keladi. Har bir xarajatning xususiyati, zarurligi, o‘z o‘rni, maqsadi va vazifalari, yuzaga kelishidagi muhim jixatlari hamda xususiyatlarini bilan turlarga va guruhlariga bo‘linishi ta’kidlanadi.” [6]

Tadqiqot metodologiyasi.

Kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash, tizimli yondashuv, gipoteza va guruhlash usullaridan foydalanildi. Kuzatish orqali korxona faoliyatiga tegishli xarajatlar, daromadlar hamda foyda ko‘rsatkichlari o‘rganiladi va ularning uzviy bog‘likligi aniqlashtiriladi. Mantiqiy va abstrakt fikrlash orqali xarajatlarni maqsadli amalga oshirish orqali kutilayotgan daromad ko‘rsatkichlaridan ijobiy moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyatlarini izlab topadi. Tizimli yondashuv asosida xarajatlar qaysi maqsadlar uchun sarflanishi va daromadlar ko‘rsatkichlarini shakllantirib foydani oshirish yo‘llarini belgilab beradi. Gipoteza usullari orqali xarajatlar va daromadlar hisobi va tahlili bo‘yicha kutilayotgan natijani ijobiy bo‘lishiga qaratiladi. Yuqoridagi usullar orqali qayta ishlash korxonalarida xarajatlarni maqsadli amalga oshirib, korxona faoliyatida har bir qilamayotgan sarfning natijasi samarali bo‘lishiga va tahlil qilish korxona imkoniyatlarini aniqlab berishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlaridan ma’lumki, aynan qayta ishlash korxonalarida xarajatlar va daromadlar hisobini to‘g‘ri yuritish hamda ularning ma’lumotlarini tahlil qilish orqali ijobiy natijaga ega bo‘lishi uchun muhim ustuvor

jixatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Natija va muhokama.

Qayta ishlash korxonalarida faoliyatning iqtisodiy rivoji uchun xom-ashyo resurslar bilan uzluksiz ta’minlanishi, ulardan samarali foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha optimal darajadagi tannarx hamda bahoning belgilanishi muhim masala hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning qayta ishlash korxonalar faoliyati bir-biridan farq qilsada, ularning iqtisodiy negizida manfaatiga erishish maqsadi bir xildir. U ham bo‘lsa korxonaning iqtisodiy rivojidir.

Ma’lumki, xarajat qilmasdan turib, daromadga erishib bo‘lmaydi. Muammoli masala shundaki, foydali daromadga erishish uchun qancha xarajat yoki sarfni amalga oshirish lozimligini aniqlab olish zarur. Agarda daromadga kam xarajat bilan erishilsa, bu naftidir, chunki u foydaga olib keladi. Aksincha, daromadga ko‘p xarajat amalga oshirilsa, bu zararga olib keladi.

Shuningdek, qayta ishlovchi korxonalarda xom-ashyodan asosiy tayyor mahsulot olinishi bilan birgalikda qo‘shimcha mahsulotlar ham yaratiladi. Ular ham ma’lum bir qiymatga ega bo‘lishi kerak. Chunki ularni ham sotib korxona ma’lum daromadga ega bo‘lishlari mumkin. Ikkilamchi bo‘lgan qo‘shimcha mahsulotlarni ham tannarxini mukammal darajada shakllantirish korxona faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini ijobiy bo‘lishiga olib keladi. Buning uchun qayta ishlashdagi va faoliyatdagi barcha xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash talab qilinadi.

Misol uchun: Paxta xom-ashyosini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxona. Korxonaning ishlab chiqarish balansida paxta xom-ashyosining navlari bo‘yicha qayta ishlashdan olingan mahsulot turlarining miqdorlarini quyidagi 1-jadval ma’lumotlarida ko‘ramiz.

1-jadval

Korxonaning ishlab chiqarish balansi¹

№	Olingan mahsulotlar			Qayta ishlashga berilgan paxta					Jami
		1-nav	2-nav	3-nav	4-nav	5-nav			
		7315	591	243	107	119	8375		
		KTS kuyindisi							
		29	4	3	3	3	42		
		Qayta ishlangan paxta xom-ashyosi							
		7286	587	240	104	116	8333		
1	Tola	Reja	kg	2426	185	69	28	30	2738
			%	33,3	31,6	28,9	26,8	25,8	32,9
		Haqiqatda	kg	2427	188	72	29	31	2747
			%	33,3	32,0	30,0	27,9	26,7	33,0
2	Chigit	Reja	kg	3803	299	118	50	54	4324
			%	52,2	50,9	49,2	47,9	47,3	51,9
		Haqiqatda	kg	3697	291	113	49	53	4203
			%	50,7	49,6	47,1	47,1	45,7	50,4
3	Momik (lint)	Reja	kg	146	14	6	3	4	173
			%	2,0	2,3	2,7	3,1	3,2	2,1
		Haqiqatda	kg	256	19	8	3	4	290
			%	3,5	3,2	3,3	2,9	3,4	3,5
4	Ulyuk	Reja	kg	29	2	3	1	2	37
			%	0,4	0,4	1,1	1,4	1,6	0,4
		Haqiqatda	kg	51	2	3	1	2	59
			%	0,7	0,3	1,3	1,0	1,7	0,7
5	Kalta momik	Reja	kg	328	27	15	7	8	385
			%	4,5	4,6	6,1	6,4	6,5	4,6
		Haqiqatda	kg	247	27	15	7	8	304
			%	3,4	4,6	6,3	6,7	6,9	3,6
6	Kuyindi	Reja	kg	554	60	29	15	18	676
			%	7,6	10,2	12	14,4	15,6	8,1
		Haqiqatda	kg	608	60	29	15	18	730
			%	8,3	10,2	12,1	14,4	15,5	8,8

1-jadval ma'lumotlarida: qayta ishlashga berilgan 8375 kg paxta xom- ashyosi, 42 kg KTS kuyindisi, 8333 kg qayta ishlangan paxta xom-ashyosi va uni qayta ishlash natijasida: asosiy mahsulot bo'lgan tola 2747 kg, ikkilamchi mahsulotlar: chigit 4203 kg, lint 290 kg, ulyuk 59 kg, pux 304 kg hamda kuyindi 730 kg ni tashkil qilgan. Ushbu mahsulotlarni olinishi uchun quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan:

¹ Tadqiqot natijasi bo'yicha olingan muallif ishlanmasi

a) PHB - paxta xom-ashyosini harid bahosi -27258924 so'm;

b) TTX – tayyorlov transport xarajatlari -701747 so'm;

v) PQIXJ - paxtani qayta ishlash xarajatlarining jami -3725495 so'm;

Axborot texnologiyalari korporatsiyasi texnologiyalarning biznesga ta'sirini va kelgusi besh yil ichida integratsiya vaqtini hisobga oladigan juda foydali Global bank texnologiyalari radarini ishlab chiqdi. Shuningdek, IBM (International Business Machines) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro biznes operatorlari bank sohasiga bulutli (gibrid bulut) hisoblari bilan kirishgan va aksariyat banklar an'anaviy IT, davlat va xususiy bulutlarning optimal aralashmasini qidirmoqdalar.

ADABIYOTLAR

1. Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — Toshkent, № 6 (766). — 32-b.
2. Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. 4-bet
3. Lavrushin O, Mwengei, (2014). Assessing the Factors Contributing to Non – Performance Loans in Kenyan Banks, European Journal of Business and Management 3 (32), 2014.;
4. Mirziyoev Sh.M. (2019) Banklar endi "O'z aravasini o'zi tortishi kerak". <https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075>. 4-bet
5. Ortiqov O.A., Qulliev I.Ya. (2015) Bank menejmenti va marketingi. Tafakkur Bo'stoni. –Toshkent., — 224.
6. Qoraliyev T.M., Norqobilov S. (2009) "Bank resurslari va ularni boshqarish". Monografiya./ –T.: "Iqtisod-Moliya". -3 bet.
7. Sayfiddinov I.F., Qulliev I. (2006) "Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish". O'quv qo'llanma./ –T.: "Iqtisod-Moliya".-3 bet.
8. Sharx (2022) O'zR Markaziy bankining 2022 yil yarim yillik uchun Moliyaviy barqarorlik sharxi, 4-bet.

Udk:311/320

Eshpulatov Erkinbek Nuraliyevich

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASI RIVOJLANISHI
JARAYONLARINING KOMPLEKS STATISTIK TAHLILI**

Эшпулатов Эркинбек Нуралиевич

*Соискатель Ташкентский государственный
экономический университет*

**КОМПЛЕКСНЫЙ СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ
ТУРИЗМА И РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Eshpulatov Erkinbek Nuralievich

*Tashkent state economy
independent student of the university*

**COMPREHENSIVE STATISTICAL ANALYSIS OF THE PROCESSES OF
TOURISM DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasini milliy iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni, uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash, turizm sohasidagi iqtisodiy rivojlanishni statistik baholash masalalari va yo‘nalishlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: turizm, xizmatlar sifati, diversifikatsiyalash, sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish tashkilotlari, turizm infratuzilmasi, sayyohlik mahsulot, tarmoqning raqobatbardoshligi

Аннотация: В государстве рассматривается роль туризма в национальной экономике, факторы, влияющие на ее развитие, повышение качества услуг, вопросы и направления статистической оценки экономического развития в туризме.

Ключевые слова: туризм, качественный сервис, диверсификация, санатории, организации отдыха, туристическая инфраструктура, туристические продукты, конкуренция.

Annotation: this article describes the role of tourism in the national economy, the factors influencing its development, improving the quality of services, issues and directions of statistical assessment of economic development in tourism.

Keywords: tourism, quality of services, diversification, sanatoriums, recreation organizations, tourism infrastructure, tourism products, industry competitiveness

KIRISH

Jahondagi globallashuv sharoitida xalqaro turizm aholi bandligini ta'minlash va daromadlarni oshirish tufayli hayot sifatini ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro turizm chet el valyutasi kelishining faol manbaidir va mamlakat tashqi savdo to'lov balansiga, milliy iqtisodiyotga ta'sir etish bilan bir qatorda ularning ijtimoiy, madaniy, ekologik muhitiga ta'sir etadi.

Jahonda turizm sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi bo'lib, uning jahon yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi 10,0 foizni tashkil etadi. Shuningdek, yaratilayotgan ish o'rinlarining har yettinchisi turizm sohasiga to'g'ri keladi.[12]. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) prognozlariga ko'ra, iqtisodiyotning bu sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va yaqin yillar ichida u eng muhim sohaga aylanadi. Turizm sohasiga investitsiyalarning yillik o'sishi taxminan 30%ni tashkil qiladi[13].

BTT davlatlarga turizm salohiyatini oshirish, yangi xizmatlarni taklif etish, yangi turizm brendlarini yaratish, turizm sohasining raqobatbardoshligini tubdan oshirish bo'yicha takliflar kiritish, turizm geografiyasini yanada kengaytirish, mamlakatlar YaIMdagi ulushini oshirish hamda turizmning rentabellik sohalardan biriga aylantirish zarur ekanligini ta'kidlamokda. Shuningdek, jahonda turizm xizmatlari bozori boshqaruvini ilmiy asosda tashkil etish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha tadqiqotlarni takomillashtirish, sayyohlik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va istiqbollarini baholashga e'tibor kuchaytirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish, xususan turizm xizmatlarini boshqarish, ularning samaradorligini statistik baholash borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot

ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Kvartalnov V.A[5], Kabushkin N.I [6], Senin V.S.[7] va boshqalarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida turizmning nazariy jihatlarini, rivojlanish tarixi, evolyusiyasi, bosqichlari, tamoyillari hamda hozirgi sharoitda turizmni xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotidagi tutgan o'rni, turizm infratuzilmasi va boshqa shu kabi masalalarga katta e'tibor qaratilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Norchaev [8], S.Ro'ziev [9], O.Xamidov [10], B.To'raev [11]larning ilmiy ishlarida ham O'zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish muammolari va mehmondo'stlik industriyasi, boshqarish nazariyasi va amaliyoti, hududlarning salohiyati va uni rivojlantirish omillari, boshqarish va iqtisodiy tahlili masalalariga keng e'tibor qaratilgan.

Yuqoridagi nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlar turizm sohasini boshqarish, uning infratuzilmasini rivojlantirish, respublikamizda turizm salohiyatini yanada oshirish borasida ilmiy-nazariy jihatdan menejment fanini rivojlantirishga katta ilmiy hissa qo'shganlar. Ammo ular turizm industriyasini innovatsion boshqarish, hududlar miqyosida turizmni rivojlantirish, turizm xizmatlari bozori samaradorligini oshirish, turizm infratuzilmasini takomillashtirish kabi masalalarni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ymaganlar. Shu jihatlarni hisobga olganda, globallashuv sharoitida mamlakatimiz va uning hududlarida alohida tarmoq sifatida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish va uning innovatsion asosda tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish, boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni kompleks statistik baholash hamda boshqaruv samaradorligini oshirish, hududlar darajasida turizm xizmatlari va uning infratuzilmasini tadqiq etish dolzarb va muhim masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga sayyohlik korxonalarida boshqaruvning

innovatsion asosda tashkil etilishi boshqaruv samaradorligini ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni asosiy tendensiyalarini statistik baholash bugungi kundagi eng muhim ilmiy tendensiyalardan sanaladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikamizda faoliyat yuritayotgan turizm korxona va mikrofirmalari iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatimizda turizm tarmog'ini rivojlanish holatini statistik tahlil qilish va istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi mamlakatimizda turizm tarmog'ini rivojlanishi va uning statistik tahliliga oid tadqiqotlarni o'rganib chiqish, mamlakatimiz hududlarida turizmni rivojlanishidagi muammolar va ularni yechimlarini o'rganish, iqtisodiy faoliyatini statistik tahlilini amalga oshirish bo'yicha asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm tarmog'i faoliyatini har tomonlama iqtisodiy-statistik tahlilini amalga oshirish va samaradorligini baholash asosida kompleks statistik tahlilni kengaytirishdan iborat.


NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonda xizmatlar sohasini, xususan turizm xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan: turizm xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida normativ-xuquqiy xujjatlar, standartlar va yangi talablar ishlab chiqildi, boshqaruv tuzilmalari takomillashtirildi. O'z

navbatida milliy turizm sohasining yanada rivojlanishiga hamda xorijlik sayyohlar oqimi va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirish, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar sonining ko'payishi hamda ularda boshqaruvning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida sohada qator sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekistonda turizm tarmog'ini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy sayyohlik mahsulotni faol tanitib borish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi 549-sonli Qonuni qabul qilinib, uning doirasida ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda[2].

Turizm insoniy resurslarning tarkibiy qismi sifatida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishiga turtki bo'ladi (1-rasm):



1-rasm. Milliy turizm sohasining asosiy vazifalari ¹.

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Turizmning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish funksiyasi turizm sohasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va shu orqali YaIMni yaratishda ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi. Jahonda turizm tarmoqlarida 9,2 trln. doll. yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) yaratilgan bo'lib, YaIMning qariyb 10,5 %ini tashkil etadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yilda turizm 13,6 trln. so'm miqdorida YaQQ yaratilgan bo'lib, uning YaIMdagi ulushi 2,2 %ni tashkil etdi[14].

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizga 2023-yil 1-yanvar holatiga 5232,8 kishi sayyoh

sifatida xorijiy fuqarolar tashrif buyurgan. Ularning 51,0 foizini ayollar, 49,0 foizini erkaklar tashkil etadi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonga tashrif buyurayotgan sayyohlarning aksariyati qarindoshlarini yo'qlash (89,0 foiz), bo'sh vaqt va dam olish (7,5 foiz), davolanish (1,3 foiz), xizmat yuzasidan (1,6 foiz) kelmoqda. Shuningdek, xorijiy davlatlardan o'qishga, tijorat maqsadida ham xorijiy fuqarolar tashrif buyurmoqda.

Tahlil qilinayotgan yillarda ayollarning sayyoh sifatida mamlakatimizga tashrif buyurishi, qarindoshlarni yo'qlashga kelishi, o'qish uchun kelishi sezilarli darajada

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida sayyohlik maqsadlarida kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi[14].

	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	+, -	%
Jami kelgan chet elliklar	5346,3	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	-113,5	99,7
ayollar	2830,5	3530,0	738,7	924,6	2647,0	-183,5	93,5
erkaklar	2515,8	3218,5	765,4	956,7	2585,8	70,0	102,8
Bo'sh vaqt va dam olish	458,1	1043,9	129,3	155,1	392,2	-65,9	85,6
ayollar	215,6	548,6	58,9	109,9	164,2	-51,4	76,1
erkaklar	242,5	495,3	70,4	45,2	228,0	-14,5	94,0
Davolanish	52,5	55,6	15,0	3,4	70,0	17,5	133,3
ayollar	32,3	31,5	8,0	13,9	39,3	7,0	121,6
erkaklar	20,2	24,1	7,0	18,5	30,7	10,5	152,0
Qarindoshini yo'qlash	4713,5	5520,7	1321,4	1613,1	4657,6	-55,9	98,8
ayollar	2555,1	2916,8	664,7	769,1	2410,3	-144,8	94,3
erkaklar	2158,4	2603,9	656,7	844,0	2247,3	88,9	104,1
O'qish	14,6	21,4	4,7	6,4	8,8	-5,8	60,3
ayollar	8,6	12,3	2,3	4,9	3,3	-5,3	38,4
erkaklar	6,0	9,1	2,4	1,5	5,5	-0,5	91,6
Xizmat safari	56,6	53,1	17,4	60,7	83,8	27,2	148,0
ayollar	9,9	9,4	2,2	51,3	16,9	7,0	170,7
erkaklar	46,7	43,7	15,2	9,4	66,9	20,2	143,2
Tijorat	50,9	53,8	16,3	13,6	20,5	-30,4	40,3
ayollar	9,0	11,4	2,4	7,6	13,1	4,1	145,5
erkaklar	41,9	42,4	13,9	6,1	7,4	-34,5	17,6

kamaygan. Ammo xizmat yuzasidan, davolanish uchun hamda tijorat maqsadlarida kelishi sezilarli darajada ortgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni hududlar kesimida tahlil qilish orqali mamlakatimizda turizmni rivojlanishiga katta ta'sir qilayotgan hududlarni aniqlab olish imkoniyati yuzaga keladi (2-jadval).

Mamlakatimizda sayyohlik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni 2018-yilda 502 tani, 2020-yilga kelib esa pandemiya sababli ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar soni 337 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda sayyohlik firma va tashkilotlar soni 348 tani tashkil etib, ular tomonidan 673,8 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan yoki o'tgan yilga nisbatan qariyb 16,6 foizga ortgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan sayyohlik firma va korxonalar soni 2021-yilga nisbatan oshgan bo'lsada (101,6%), ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 47,8 foizga kamaygan. Shuningdek, mamlakatimizda tashrif buyurganlar soni bo'yicha Xorazm viloyati (418,7 ming kishi) yuqori o'ringa ega bo'lgan bo'lsa (o'tgan yilga nisbatan 177,1%), tashrif buyurganlar sonining o'tgan yilga nisbatan o'sishi bo'yicha Buxoro viloyatining (6,2-marta ortgan) birinchi o'rinni egallaganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, mamlakatimizda ichki turizm ham ildam rivojlanib kelmoqda (3-jadval).

2- jadval

Sayyohlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar va xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni

Hududlar	Sayyohlik firmalar soni, birlik			Tashrif buyurganlar soni, ming kishi		
	2020	2021	2022	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	337	288	348	212,3	577,8	673,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8	11	13	3,9	6,9	9,8
Andijon	5	3	4	0,2	0,1	1,0
Buxoro	11	16	31	1,1	6,3	39,3
Jizzax	8	3	5	10,5	16,2	15,5
Qashqadaryo	4	3	7	1,7	0,5	0,8
Navoiy	4	10	13	0,9	4,4	14,8
Namangan	4	1	3	0,7	0	0,3
Samarqand	45	41	57	17,6	7,8	27,8
Surxondaryo	0	2	4	0	0	3,8
Sirdaryo	1	1	2	0,2	0,5	4,5
Toshkent vil.	7	3	5	6,3	4,5	0,3
Farg'ona	5	8	9	4,2	10,1	1,3
Xorazm	6	8	14	77,2	236,4	418,7
Toshkent sh.	229	178	181	88,1	284,1	135,8

3-jadval

O‘zbekistonda ichki turizm bo‘yicha tashrif buyuruvchilar soni

Hududlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2022 yilda 2020 yilga nisbatan o‘zgarishi, %
O‘zbekiston Respublikasi	176 646	522 009	538 938	3,1m
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 897	6 853	9 684	2,5m
Andijon	164	5 944	224	137,0
Buxoro	993	16 177	27 751	27,9 m
Jizzax	10 456	427	14 839	1,5 m
Qashqadaryo	1 632	4 398	653	40,0
Navoiy	890	0	14 817	16,6 m
Namangan	634	6 599	220	34,7
Samarqand	13 989	24	8 022	57,3
Surxondaryo	0	520	2 528	-
Sirdaryo	200	4 375	4 490	22,4 m
Toshkent vil.	6 163	7 394	324	5,2
Farg‘ona	4 016	220 940	2 194	54,6
Xorazm	71 967	243 678	366 176	5,1m
Toshkent sh.	616	0	87 016	141,2 m

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimiz aholisining sayyoh sifatida tashrifi 2022 yilda 2020 yilga nisbatan jiddiy sur’atlarda (3,1 marta) o‘sgan. Xorazm viloyati o‘rganilayotgan yillarda ichki turizmda tashrif buyurganlar soni bo‘yicha eng ko‘p bo‘lgan hudud sifatida yuqori ulushga ega bo‘lgan.

O‘zbekistonga 2023 yil davomida 6 626,3 ming nafar xorijiy fuqarolar tashrif buyurgan bo‘lib, bu o‘tgan 2022 yilga nisbatan 26,6% ortganligini ko‘rsatadi. Tashrif buyurgan sayyohlarning 16,9 %i (1 116,8 ming kishi) havo transportida, 1,4 %i (95,7 ming kishi) temir yo‘l orqali, 0,4 %i (28,8 ming kishi) avtomobil transportida kelgan bo‘lsa, ularning 81,3 % (5 386,4 ming nafari) chegarani piyoda kesib o‘tgan.

Respublikamizga ushbu davr mobaynida Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridan kelgan fuqarolar o‘tgan


yilga nisbatan 23,0 % o‘sgan bo‘lsa, boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan soni esa 95,4 % ga ko‘p bo‘lgan. Bunga qo‘shimcha sifatida ushbu yilda yurtimizga MDH davlatlaridan 6 109,0 ming kishi kelgan bo‘lib, bu mamlakatimizga jami tashrif buyurganlarning 92,2 % ini tashkil etib, O‘zbekistonga dunyoning boshqa mamlakatlaridan tashrif buyurgan soni 517,3 ming kishini (7,8 %) tashkil qilgan.

O‘zbekistonga sayyohlar asosan qarindoshlarni yo‘qlash, bo‘sh vaqt va dam olish, xizmat, davolanish, tijorat va o‘qish maqsadlarida tashrif buyuradilar.

O‘zbekistonga o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha chet el fuqarolari qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida kelganlar soni 9561,1 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2019 yilda 5 520,7 ming kishi bo‘lgan. 2020 yilda (1 321,4 ming kishi) jiddiy pasayishdan keyin 2021 hamda 2022 yillarda mos ravishda 1 613,1 va 4 657,6 ming kishiga yetgan[14].

Ushbu o'rganilayotgan davr mobaynida bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish va dam olish maqsadlarida mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni o'rganilayotgan davr boshiga 1043,9 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda avvalgi ko'rsatkichdan farqli ravishda sezilarli darajada past ko'rsatkichni qayd etgan (2023 yilda 773,3 ming kishi). Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham 2020 yildan 2022 yilgacha bo'lgan uch yillik davrda jiddiy pasayishni kuzatishimiz mumkin(mos ravishda 129,3 ming,155,1 ming va 392,2 ming kishi).

O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni to'g'risida keltirilgan ma'lumotlardan, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi chet el fuqarolari soni 2018-2019-yillarda (2018-yilga 2017-yilga nisbatan 2 barobar, 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 126 %) keskin oshgan bo'lib, 2020-yilga kelib, butun dunyoda kuzatilayotgan pandemiya sababli keskin (22,2 % yoki 2019-yildagidan 4,5 barobar kam) tushib ketgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni dinamikasi, ming kishi²

Shu bilan birga, 2021 hamda 2022-yillarda mos ravishda 1881,0 ming va 5233,0 ming tani tashkil qilgan va bu pandemiyadan keyingi davrda ijobiy o'sish va o'zining pandemiyadan avvalgi holatini tiklaganligini ko'rsatib beradi. O'zbekistonga 2023 yil davomida 6 626,3 ming nafar xorijiy fuqarolar tashrif buyurgan bo'lib, bu o'tgan 2022 yilga nisbatan 26,6% ortganligini ko'rsatadi. Tashrif buyurgan sayyohlarning 16,9%i (1 116,8 ming kishi) havo transportida,

² <http://www.stat.uz>

1,4 %i (95,7 ming kishi) temir yo'l orqali, 0,4 %i (28,8 ming kishi) avtomobil transportida kelgan bo'lsa, ularning 81,3 % (5 386,4 ming nafari) chegarani piyoda kesib o'tgan[15].

Respublikamizga ushbu davr mobaynida MDH mamlakatlaridan kelgan fuqarolar o'tgan yilga nisbatan 23,0 % o'sgan bo'lsa, boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan soni esa 95,4 % ga o'sgan. Bunga qo'shimcha sifatida ushbu yilda yurtimizga MDH davlatlaridan 6 109,0 ming kishi kelgan bo'lib, bu mamlakatimizga jami tashrif buyurganlarning 92,2 % ini tashkil etib, O'zbekistonga dunyoning boshqa mamlakatlaridan tashrif buyurgan soni 517,3 ming kishini (7,8 %) tashkil qilgan.

O'zbekistonga sayyohlar asosan qarindoshlarni yo'qlash, bo'sh vaqt va dam olish, xizmat, davolanish, tijorat va o'qish maqsadlarida tashrif buyuradilar. Mamlakatimizga 2023 yil yakunlari bo'yicha qarindoshlarni yo'qlash maqsadida kelgan chet el fuqarolari soni 9561,1 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2019 yilda 5 520,7 ming kishi bo'lgan. 2020 yilda (1 321,4 ming kishi) jiddiy pasayishdan keyin 2021 hamda 2022 yillarda mos ravishda 1 613,1 va 4 657,6 ming kishiga yetgan[14].

Ushbu o'rganilayotgan davr mobaynida bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish va dam olish maqsadlarida mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni o'rganilayotgan davr boshiga 1043,9 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda avvalgi ko'rsatkichdan farqli ravishda sezilarli darajada past ko'rsatkichni qayd etgan (2023 yilda 773,3 ming kishi). Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham 2020 yildan 2022 yilgacha bo'lgan uch yillik davrda jiddiy pasayishni kuzatishimiz mumkin(mos ravishda 129,3 ming,155,1 ming va 392,2 ming kishi). Xizmat maqsadida tashrif buyurgan sayyohlar sonida ham xuddi shu kabi o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Xususan, 2020 yilda(17,4 ming kishi) eng

past ko'rsatkich bo'lgan va navbatdagi ikki yil davomida (2021 yilda 60,7 ming kishi va 2022 yilda 83,8 ming kishi) asta sekin o'sa boshlagan. Ammo, ushbu maqsadda tashrif buyurganlar soni davr oxirida jiddiy o'zgarishlarni qayd etgan (2022 yilda 143,5 ming kishi). Bu ko'rsatkich davr boshiga nisbatan qariyb uch marta ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizga tijorat va o'qish maqsadida tashrif buyurganlardagi o'zgarishlar davolanish maqsadida kelgan sayyohlar sonidagi o'zgarishga nisbatan ancha o'xshash dinamikani ko'rsatgan.

Davolanish maqsadida kelganlar soni 2019 yilda 55,5 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 61,3 ming kishini tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha 2023 yilda o'tgan yilga nisbatan pasayishni kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Vaholanki, 2022 yilda 70,0 ming kishi mamlakatimizga davolanish maqsadida tashrif buyurgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 61,3 ming kishini tashkil qilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2023 yilda yurtimizga o'qish maqsadida tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar jami kelganlarning 0,3 % ini (16,8 ming kishi) tashkil qilgan bo'lsa, bu borada tijorat maqsadida kelganlar – 1,1 % ni (70,4 ming kishi), davolanish maqsadida kelgan sayyohlar – 0,9 % ni (61,3 ming kishi), xizmat yuzasidan tashrif buyurganlar 2,2 % ni (143,5 ming kishi), bo'sh vaqt va dam olish uchun – 11,7 % ni (773,3 ming kishi) tashkil qilgan bo'lib, ular orasida eng ko'p sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yo'qlash deb belgilanganlari 5 561,1 ming kishi yoki jamiga nisbatan 83,9 % ga teng bo'lgan [15]. Ularni o'tgan yilga nisbatan qiyoslaganda, qarindoshlarni yo'qlash maqsadida kelganlar 2022 yilga nisbatan 19,4 % ga, xizmat safari maqsadlarida kelganlar soni 71,3 % ga, bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish va dam olishga kelgan sayyohlar 97,2 % ga, o'qish maqsadida mamlakatimizga tashrif buyurganlar 91,5 %

ga va davolanish maqsadidagi safarlar 3,4 baravarga oshgan bo'lsa, tijorat maqsadida kelgan sayyoh 12,5 % ga kamaygan.

MDH va boshqa davlatlardan O'zbekistonga kelgan sayyohlar soni qarindoshlarni yo'qlash maqsadida mos ravishda 5 468,4 va 92,7 ming kishi, bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish va dam olish maqsadlari esa 441,1 va 332,2 ming kishi, davolanish maqsadida kelganlar 61,2 va 0,1 ming kishi, xizmat maqsadida tashrif buyurgan sayyohlar 71,3 va 72,2 ming kishi, tijorat maqsadida esa 62,2 va 8,1 ming kishi hamda o'qish maqsadida 4,8 va 12,0 ming kishini tashkil qilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, 2023 yilda chet el mamlakatlaridan (MDHdan tashqari) asosan dam olish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida kelganlar jami kelganlarning 64,2 % ini, qarindoshlarini yo'qlash uchun kelgan esa 17,9 % hamda xizmat safari uchun tashrif buyurganlar 14,0 % ni tashkil qilgan. Shulardan 2,3 % i – o'qish maqsadida, 1,6 % i – tijorat hamda 0,01 % i davolanish maqsadida tashrif buyurgan [15]. MDH mamlakatlaridan jami tashrif buyurganlarning 89,5 % i qarindoshlarini yo'qlash, 7,2 % i bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish, 1,2 % i xizmat safari maqsadida, 1,0 % i davolanish, 1,0 % i tijorat va 0,1 % i o'qish maqsadida kelganlar hisoblanadi.

Mamlakatimizga qarindoshlarni yo'qlash maqsadida asosan Tojikiston (2 030,5 ming kishi), Qirg'iziston (1 702,0 ming kishi) hamda Qozog'iston Respublikalaridan (1 245,8 ming kishi) tashrif buyurgan bo'lsa, bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish va dam olish maqsadlarida Rossiyadan (235,3 ming kishi), Qozog'iston (63,4 ming kishi) hamda Qirg'iziston Respublikalaridan (43,8 ming kishi) tashrif buyurgan. Davolanish maqsadida Tojikiston (43,2 ming kishi), Qozog'iston (10,7 ming kishi) hamda Qirg'iziston Respublikalaridan (5,5 ming

kishi) tashrif buyurgan bo'lsa, xizmat maqsadida Tojikiston (22,3 ming kishi), Rossiya (19,6 ming kishi) hamda Turkiyadan (17,7 ming kishi) tashrif buyurgan tashrif buyurgan. O'qish maqsadida Hindiston (7,6 ming kishi), Turkmaniston (3,1 ming kishi) hamda Pokistondan (1,4 ming kishi) tashrif buyurgan bo'lsa, tijorat maqsadida Turkmaniston (46,5 ming kishi), Tojikiston (14,8 ming kishi) hamda Afg'onistondan (1,9 ming kishi) tashrif buyurgan [15]. Bularni jinsi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu davrda respublikamizga Tojikistondan kelgan erkaklar soni 1 187,6 ming kishi (jamiga nisbatan 35,8 % i), Qirg'izistondan kelgan erkaklar 732,3 ming kishini (22,1 %), 616,9 ming kishi Qozog'istondan (18,6 %), 369,2 ming kishi Rossiyadan (11,1 %), 85,8 ming kishi Turkiyadan (2,6 %), 44,3 ming kishi Turkmanistondan (1,3 %), 34,3 ming kishi Hindistondan (1,0 %), 29,2 ming kishi Xitoydan (0,9 %) va 21,8 ming kishi Janubiy Koreyadan (0,7 %), boshqa chet el mamlakatlaridan esa 199,0 ming erkak (6,0 %) tashrif buyurgan. Shu bilan birga, mamlakatimizga tashrif buyurgan ayollar kesimida 1024,8 ming kishi Qirg'izistondan (ularning umumiy sonidan 31,0 % i), 967,5 ming kishi Tojikistondan (29,3 %), 716,4 ming kishi Qozog'istondan (21,7 %), 345,1 ming kishi Rossiyadan (10,4 %), 56,0 ming kishi Turkmanistondan (1,7 %), 20,7 ming kishi Turkiyadan (0,6 %), 13,3 ming kishi Xitoydan (0,4 %), 13,0 ming kishi Janubiy Koreyadan (0,4 %), 12,6 ming kishi Italiyadan (0,4 %) hamda qolgan 136,6 ming ayol kishi boshqa davlatlardan (4,1 %) tashrif buyurgan [15].

2023 yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarni yoshi kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 31-55 yoshdagilar ularning asosiy qismini (48,2 % yoki 3 191,5 ming kishi) jumladan, erkaklar – 50,4 % ni, ayollar – 49,6 % tashkil qilgan. 56 va undan yuqori yoshdagi sayyohlar 20,7 % ni tashkil

qilib, ular 1 369,2 ming kishi, jumladan, 40,5 % i erkaklar va 59,5 % i ayollar, 18 yoshgacha bo'lganlar esa 16,1 % ni yoki 1 064,7 ming nafar bola, jumladan, 51,8% o'g'il bolalar, 48,2 % qiz bolalar, 15,1 % i 19-30 yoshdagi tashrif buyuruvchilar bo'lib, ular 1 000,8 ming kishini, jumladan, 60,3 % yigitlar, 39,7 %ni qizlar tashkil qilgan. Mamlakatimizdan 2023 yilda xorijga sayyohlik maqsadlarda ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari 4 787,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lib, 2022 yilga nisbatan MDH davlatlariga ketganlar 7,8 % ga va boshqa mamlakatlarga ketganlar soni 3,8 % ga pasaygan [15]. Ushbu davrda MDHga 4 153,7 ming kishi ketgan bo'lib, ular jami ketganlarning 86,8 % ini tashkil qilgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarga ketganlar soni 633,8 ming kishini yoki jamiga nisbatan 13,2 % ni tashkil qilgan.

XULOSA

Tahlillarimiz va ilmiy kuzatishlarimiz asosida quyidagi ilmiy xulosa va takliflarni bayon etamiz. Ya'ni:

1. O'zbekiston Respublikasida sayyohlik xizmatlar bozorida ham muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz berib, turizm industriyasi hozirgi kunda tadbirkorlar uchun yanada jozibali tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Respublikada sayyohlik biznesni tarkibiy jihatdan qayta qurish va institutsional rivojlantirish talablaridan biri hisoblanadi. Bunda tarmoqlararo va mintaqalararo tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirib, rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sayyohlik faoliyat ishtirokchilari mavjud bo'lgan o'qitish va ta'lim berish usullarini o'zgartirib borishi lozim. Chunki, jahon xo'jaligining integratsiyalashuvi va globallasuvi kuchayib borayotgan bir paytda turizm sohasining oldiga yangidan yangi vazifalar qo'yilmoqda. O'zbekistonda turizm sohasi raqobatbardosh bo'lishi uchun

uning ishtirokchilari turizm bozori talablarini qondira olishi kerak. O'zbekistonga kelayotgan ko'pchilik sayyohlar G'arbiy Yevropadan ekanligini hisobga olgan holda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qitishning me'yorlari xalqaro andozalarga mos kelishi zarur.

3. Turizm sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishish, nafaqat tashkiliy vazifalarni

bajaradigan, balki sayyohlik tashkilotlarini boshqara oladigan yangi avlodni ham tarbiyalashni taqozo etadi. Shuningdek, mahalliy turizm bozori ishtirokchilari uchun treninglar o'tkazish orqali ularning malakasini yuksaltira borib, ular taklif etayotgan xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi 549-sonli Qonuni.
3. Макаров М.Ю. Построение модели устойчивого развития туристской территории (на примере Краснодарского края). Диссертация на поиски ученой степени кандидата экономических наук. Сочи 2016 – ул. 33,34.
4. <http://www.stat.uz/>
5. Квартальнов В.А., Романов А.А. Международный туризм: политика развития: Таълим пособие. М., 1998; Квартальнов В.А. Стратегический менеджмент против туризма: рост современного опыта. М.: Финансы и статистика, 1999.;
6. Кабушкин Н.И. Менеджмент в туризме – Минск.: Новое знание, 2002. – 409 с.;
7. Сенин В.С. Организация международного туризма: Учебник.- 2-е изд.- М.: Финансы и статистика, 2005.- 400 с.
8. Norchayev A.N. Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy o'sishiga ta'siri. – Nomzod. diss., 2004.-22 b;
9. RuziyevS.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. – Nomzod.diss. avtoref.2009.-21 b;
10. Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии на рынке бизнеса и туризма Узбекистана. Конфеты. дисс. автореф, 2006-22 с.
11. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма.-Док.дисс. автореф., 2011.-38 с.
12. <http://vawilon.ru/statistika-v-turizme/>
13. www.unvt
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

UO‘T 103.04.56

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich
Dsc. mustaqil tadqiqotchi, PhD,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI
TURIZM FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

Абдуллаев Зафарбек Сафибуллаевич
Dsc. независимый исследователь, PhD,
Ташкентский государственный экономический университет

**НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПУТЕМ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Abdullayev Zafarbek Safibullaevich
Dsc. Independent Researcher, PhD,
Tashkent State University of Economics

**DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM ACTIVITIES
THROUGH THE IMPROVEMENT OF THE TAX SYSTEM IN UZBEKISTAN**

Annotasiya: Maqolada soliq tizimini takomillashtirish orqali O‘zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari muhokama qilinadi. Turizm sohasi duch keladigan dolzarb muammolarga, shu jumladan yuqori soliq stavkalari va murakkab soliq tartib-qoidalariga e‘tibor qaratilmoqda. Turizm sohasidagi soliqqa tortishning xalqaro amaliyotlari va ularning turizmni rivojlantirishga ta‘siri tahlil qilinadi.

Soliq tizimini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etiladi, masalan, sayyohlik kompaniyalari uchun soliq imtiyozlarini joriy etish, soliq tartib-qoidalarini soddalashtirish va davlat organlari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilash. Turizm infratuzilmasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish muhimligi ta‘kidlandi.

Maqola turizm faolligining o‘rishini rag‘batlantirish va O‘zbekistonning jozibador sayyohlik yo‘nalishi sifatida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida davlat tuzilmalari va biznes uchun tavsiyalar berishga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: turizm sohasi, iqtisodiyot, turistik faoliyat, soliqqa tortishning nazariy kontseptual asoslari.

Abstract: The article examines the directions of development of tourism activities in Uzbekistan through the improvement of the tax system. Attention is paid to the current problems faced by the tourism industry, including high tax rates and complex tax procedures. The article analyzes international taxation practices in the tourism sector and their impact on the development of tourism.

Measures are proposed to optimize the tax system, such as the introduction of tax incentives for travel companies, simplification of tax procedures and improvement of interaction between government agencies and entrepreneurs. The importance of creating a favorable investment climate to attract foreign investment in the tourism infrastructure is emphasized.

The article aims to provide recommendations for government agencies and businesses in order to stimulate the growth of tourism activity and improve the competitiveness of Uzbekistan as an attractive tourist destination.

Key words: turizm sohasi, iqtisodiyot, turistik faoliyat, soliqqa tortishning nazariy kontseptual asoslari.

Аннотация: В статье рассматриваются направления развития туристической деятельности в Узбекистане путём совершенствования налоговой системы. Основное внимание уделяется текущим проблемам, с которыми сталкивается индустрия туризма, включая налоговые ставки и налоговые процедуры. Анализируются международные практики налогообложения в сфере туризма и их влияние на развитие туризма.

Предлагаются меры по оптимизации налоговой системы, такие как введение налоговых льгот для туристических компаний, упрощение налоговых процедур и улучшение сотрудничества между государственными органами и предпринимателями. Подчеркнута важность создания благоприятного инвестиционного климата для привлечения иностранных инвестиций в туристическую инфраструктуру.

Статья направлена на предоставление рекомендаций государственным структурам и бизнесу с целью стимулирования роста туристической активности и повышения конкурентоспособности Узбекистана как привлекательного туристического направления.

Ключевые слова: теоретические концептуальные основы сферы туризма, экономики, туристской деятельности, налогообложения.

Kirish

Turizm sohasi aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi, bu nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy va madaniy almashinuvning katalizatori bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv va xizmat ko'rsatish sohasidagi raqobatning kuchayishi sharoitida turizmni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va aholining hayot sifatini yaxshilashning asosiy omiliga aylanmoqda.

Biroq, etarli soliq siyosatisiz turistik faoliyatning samarali ishlashi mumkin emas. Soliqqa tortish sayyohlik biznesidagi kompaniyalarning moliyaviy natijalariga, shuningdek, sanoatning umumiy rivojlanish tendentsiyalariga ta'sir ko'rsatadigan muhim vositadir. Zamonaviy sharoitda soliqlar turistik faoliyatning o'sishini rag'batlantirishi va to'xtatishi, mintaqa yoki

umuman mamlakatning raqobatbardoshligini belgilashi mumkin [1].

Ushbu maqola turizm sanoatining iqtisodiyotdagi rolini o'rganishga va turizm faoliyatini soliqqa tortishning nazariy kontseptual asoslarini tahlil qilishga qaratilgan. Biz turizmning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz, shuningdek mavjud soliq rejimlarini, ularning turizm biznesiga ta'sirini va soliq yukini optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilamiz. Natijada, ushbu tadqiqot soliq siyosati va turizm sanoatining rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashtirishga, shuningdek uning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berishga qaratilgan [2].

Turizm sohasining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va rivojlanish tendentsiyalari, turizm faoliyatini rivojlantirishda soliqqa

tortishning zamonaviy tizimi qo'llashning kontseptual asoslari, zamonaviy turizmni turli soliq vositalari orqali rag'batlantirishning ilg'or xorij tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki 1980-yillarga kelib turizmning ahamiyati va uning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlari bilan o'zaro aloqasi to'g'risida aniq tushunchalar paydo bo'la boshladi. Ushbu davrga kelib iqtisodchilar tomonidan turizmni iqtisodiy fenomen hamda jahon va milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etila boshlandi [3].

Turizm O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, o'sish va rivojlanish uchun katta salohiyatga ega. Mamlakatning tarixiy merosi, boy madaniyati va noyob tabiiy boyliklari dunyoning turli burchaklaridan tobora ko'proq sayyohlarni jalb qilmoqda. Biroq, sayyohlik faoliyatini samarali rivojlantirish uchun bir qator to'siqlarni engib o'tish kerak, ular orasida soliqlar va soliq tizimi muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda soliq tizimi murakkab va ko'p qirrali mexanizm bo'lib, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu maqolada turistik faoliyatni rag'batlantirish uchun soliq tizimini takomillashtirish mumkin bo'lgan yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Mavjud muammolar, shuningdek, turizm sohasida soliqqa tortishning xalqaro tajribasi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor investitsiyalar va sayyohlik xizmatlarini rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan choralarga qaratilgan[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik faoliyat subyektlarini hamda turizm industriyasini rivojlantirishda soliqqa tortishning optimal usulini topish, xususan,

sohani rivojlantirish uchun zamonaviy soliq imtiyozlari va preferensiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari ilmiy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan J.Ritchie, G.Crouch, D.Goldberg, A.Easson, E.Toder, B.Wasow, M.Ettlinger, S.James, M.Kubichkova, W.Gentry, R.Hubbard, J.Freebairn, D.Stoilova, B.Nerre, T.Kanina, M.Morozov, I.Balabanov, M.Birjakov, S.Barulin, I.Mayburov, T.Malinina, V.Panskov, I.Aleksandrov, I.Nayburova, N.Milayakov, D.CHernika, O.Beketova, T.YUtkina, A.Mishachkovalarning tadqiqotlarida uchraydi[5,6].

Bu boradagi mahalliy olimlardan I.Tuxliev, R.Hayitboev, B.Safarov, G.Tursunova, A.Saidov, B.Turaev, O.Hamidov, E.Golisheva va boshqalarning ishlarida milliy iqtisodiyotda turizm sohasi rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari atroficha o'rganilgan bo'lsa [6], A.Vahobov, A.Jo'raev, S.Xudoyqulov, Q.Bazarov, M.Usmanova, F.SHamsutdinov, T.Malikov, F.Raxmatullaeva, A.Islamkulov, O.YUldashev, Z.Kurbanov, O.Abduraxmonov, N.Ashurova, B.Sanaqulova, N.Xaydarov, S.Voronin, E.Gadoev, I.Niyazmetov, SH.Toshmatov kabi olimlarning ilmiy ishlarida soliq tizimi va soliqlarning turlari, milliy iqtisodiyotning ba'zi tarmoqlarini rivojlantirishda ularning ahamiyati va samaradorligining umumnazariy jihatlarini bayon etilgan[7]. Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, ayni sharoitda iqtisodiyotda turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Ushbu holat taqiqot ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi[8].

Ushbu maqolada abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, tizimli yondashuv, kuzatuv, iqtisodiy-statistik, ekonometrik usullardan va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Turizm sohasining iqtisodiyotdagi oʻrni va turizm faoliyatiga soliq solishning nazariy kontseptual asoslari maqolasida turizmning iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida ahamiyati koʻrib chiqiladi. Turizm nafaqat ish oʻrinlari yaratish va daromadlarni oshirishga yordam beradi, balki infratuzilma, madaniyat va ekologiya rivojlanishiga ham taʼsir qiladi. Adabiyotni sharhi shuni koʻrsatiki, turizmning iqtisodiy ahamiyati: tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, turizm valyuta tushumlarining muhim manbai boʻlib, YAIM oʻsishiga yordam beradi. Turizmning tegishli sohalarga multiplikativ taʼsirini tahlil qiladigan ishlarni taʼkidlash muhimdir. Shuningdek, ijtimoiy va madaniy jihatlari: adabiyot, shuningdek, turizmning ijtimoiy oʻzgarishlarga va madaniy oʻzaro taʼsirga taʼsiriga eʼtibor qaratadi, bu uning global oʻziga xoslikni shakllantirishdagi rolini taʼkidlaydi [11].

Turizm sohasida soliqqa tortish: qoʻshilgan qiymat soligʻi, aktsiz soligʻi va mahalliy toʻlovlarni oʻz ichiga olgan turli xil soliq shakllari muhokama qilinadi. Turizmni rivojlantirishga turtki beradigan muvaffaqiyatli soliq strategiyalarining misollari koʻrib chiqiladi. Muammolar va muammolar: adabiyot soliqlarni tartibga solish bilan bogʻliq muammolarni, shu jumladan samarasizlik va investorlarni qoʻrqitishi mumkin boʻlgan yuqori soliq stavkalarini tahlil qiladi. Turizm sanoatining kelajagi: soʻnggi yillarda asosiy eʼtibor turizmning barqaror rivojlanishiga qaratilmoqda, bu esa soliq siyosatini ekologik standartlarga muvofiq qayta koʻrib chiqish zarurligi haqida savollar tugʻdirmoqda [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, maʼlumotlarni yigʻish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning turistik faoliyatidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning echimlari boʻyicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va meʼyoriy-huquqiy hujjatlar oʻrganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayishiga ijobiy taʼsir qiluvchi samarali soliq imtiyozlarini beruvchi zamonaviy mexanizmlar, turizm industriyasida zamonaviy soliq tizimini takomillashtirish yoʻllari, Oʻzbekistonda soliq tizimini takomillashtirish orqali turizm sohasini rivojlantirishning uzoq istiqbolga moʻljallangan prognoz rejalariga asosan xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 1,5 baravarga oshirish hamda qoʻshimcha 1,5 million yangi ish oʻrinlarini yaratish koniyatlari mavjud.

Hududlarning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, turizm tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan taʼminlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish maqsadida Respublika hududlarining aholisi soni va zichligi, geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi va infratuzilma bilan taʼminlanganlik darajasidan kelib chiqib, aholisi 300 mingdan kam boʻlgan tumanlarda sanoat va xizmatlar sohasi yuqori surʼatlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat koʻrsatish va koʻngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish orqali sohani rivojlantirish imkoni mavjudligini koʻrish mumkin [7].

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yoʻlovchi va yuk tashish, transport vositalarini taʼmirlash va ularga texnik xizmat koʻrsatish hamda koʻngilochar maskanlarda xizmatlar koʻrsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun mazkur faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari boʻyicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash lozimligi izlanishlar natijasida oʻz samarasini berishi mumkinligi aniqlandi.

Bundan tashqari, xizmat koʻrstuvchi turistik subyektlariga yaʼni mehmonxona (joylashtirish vositalari) va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori boʻlgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) boʻyicha yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi va yuridik

shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish orqali ularning faoliyatlarini rivojlantirishga olib kelishi tahlillarimizda oʻz ifodasini topdi. Bunda, yangidan quriladigan obʼektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qoʻllash foyda soligʻini hisoblashda binolarning qiymatini 2 yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqini berish lozim [8].

Turizm hududlarida roʻyxatdan oʻtgan mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, koʻngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini koʻrsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi yaʼni ularni soliqqa tortishda aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foiz qoʻllash lozimligi taklif etilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Aylanmadan olinadigan soliq (AOS) stavkasi 1 foizga tushurilishi natijasida budjetga 2022-yilda AOS boʻyicha yoʻqotishlar hisob-kitobi tahlili¹ mln.soʻm

№	Hudud nomi	Taklif etilgan imtiyozli faoliyat turlari bo'yicha			
		Korxona soni	2022-yil hi-soblanishi kutilayotgan AOS (imtiyozni inobatga olmagan holda)	AOS stavkasi 1 foiz bo'lganida hisoblanishi kutilayotgan AOS	Imtiyoz natijasida yo'qotish (2022-yilda)
Jami hududlar bo'yicha:		14 090	77 534,2	44 198,6	-33 335,6
1.	Qoraqolpog'iston Res.	700	7 597,0	4 506,6	-3 090,4
2.	Andijon viloyati	751	4 239,2	2 440,3	-1 798,9
3.	Buxoro viloyati	994	6 271,2	3 577,1	-2 694,1
4.	Jizzax viloyati	867	5 471,8	3 070,4	-2 401,4
5.	Qashqadaryo viloyati	1 159	5 691,3	3 182,2	-2 509,2
6.	Navoiy viloyati	2 677	6 773,3	3 991,1	-2 782,2
7.	Namangan viloyati	1 000	6 988,6	4 027,9	-2 960,8
8.	Samarqand viloyati	896	3 258,4	1 875,6	-1 382,8
9.	Surxondaryo viloyati	340	3 044,7	1 806,2	-1 238,6
10.	Sirdaryo viloyati	181	654,6	383,1	-271,5
11.	Toshkent viloyati	2 541	15 198,4	8 129,7	-7 068,8
12.	Fag'ona viloyati	403	2 109,4	1 198,1	-911,4
13.	Xorazm viloyati	1 581	10 236,0	6 010,4	-4 225,6

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorlarini mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash tavsiya etiladi.

Ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorlarini mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash tavsiya etiladi[9].

Turizm sohasidagi bandlik ko'rsatkichining xorijiy mamlakatlardagi holat bilan taqqoslama tahliliga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yilda har 1000ta ish bilan band bo'lganlarning 17 tasi turizm sohasida faoliyat yuritgan bo'lsa, dunyo bo'yicha har 1000 ish o'rnidan 100 tasi, Qozog'istonda - 49 ta, Rossiyada - 56 ta, Belarussiyada - 67 ta, Eronda - 73 ta, Ozarbayjonda - 77 ta, Qirg'izistonda - 85 ta, Malayziyada - 147 ta, Gruziyada - 277 ta ish o'rni turizm sohasiga to'g'ri keladi.

Respublikamizdagi mavjud turistik resurslar salohiyatini e'tiborga olganda, erishilgan ko'rsatkichlar qoniqarli emasligi va mazkur sohada iqtisodiy foyda keltiradigan katta zaxira mavjudligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tadqiqot ishida sohadagi soliq imtiyozlaridan foydalanish darajasi va

samaradorligini nazariy tadqiqi va amaliy tahlili bu borada bir qator hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur tadqiqot ishida turizm sohasidagi soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarning turizm sohasini rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini turli stsenariylar asosida prognozlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

birinchi bosqichda turizm sohasining 2014-2023-yillar uchun asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari shakllantirildi. Mazkur ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish uchun ekonometrik model shakllantirildi hamda uning asosida 2024-2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari "STATA" ekonometrik tahlil dasturi asosida hisoblandi.

ikkinchi bosqichda tadqiqotlarimizda keltirilgan turizm sohasidagi soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni qo'llash bilan bog'liq stsenariylar shakllantirildi hamda ularda turizm sohasining prognozlashtirilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi baholandi.

Tadqiqot ishida ko'rilayotgan o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligi, korrelyatsiyasi o'rganildi hamda ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblandi (2-jadval).

Unga ko'ra, o'zgaruvchilarning barchasi bir-biri bilan yuqori korrelyatsion aloqadorlikka egaligi, shu jumladan

2-jadval

Korrelyatsiya jadvali¹

	MTBXTS	YaIMTU	TTITh	TSB	TXEh	TTYaQQh
MTBXTS	1.00					
YaIMTU	0.89	1.00				
TTITh	0.96	0.76	1.00			
TSB	0.93	0.99	0.83	1.00		
TXEh	0.99	0.90	0.95	0.94	1.00	
TTYaQQh	0.96	0.76	1.00	0.83	0.96	1.00

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TSB va MTBXTS orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.93ga, TXEh va TTYaQQh - 0.95ga, MTBXTS va YaIMTU – 0.89ga tengligi aniqlandi. O‘zgaruvchilarning o‘zaro yuqori korrelyatsion bog‘liqlikda ekanligi yuqorida keltirilgan vizual o‘rganish natijalarining to‘g‘riligini isbotlaydi.

Turizm sohasi asosiy ko‘rsatkichlarini har biri uchun yuqorida amalga oshirilgan algoritm asosida “STATA” modeli yordamida tahlillar amalga oshirildi hamda ularning 2024-2030-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari (3-jadval) ekonometrik tahlil dasturi vositasida hisoblandi. Prognozni hisoblashda, tashqi ta’sirlar, mamlakatning tashqi siyosati o‘zgarishsiz sifatida qaraldi.

Unga ko‘ra, barcha ko‘rsatkichlar 2024-yildan barqaror o‘sish sur‘atlarida harakatlangan bo‘lib, ulardagi prognoz ko‘rsatkichlarining harakatlanishidagi ehtimoliy o‘zgarish diapazonlari turlicha ko‘rinish oldi. Xususan, xorijiy turistlar soni 2020-yilda 1 504,1 ming kishi, 2023-yilda 4 697,6 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, prognoz natijalariga ko‘ra, mamlakatga xorijiy turistlar oqimi 2024-yilda 5 778,0 ming nafardan 2030-yilda 10 294,2 kishiga yetadi. Bunga mos ravishda turizm xizmatlari eksporti 2024-yildagi 1 133,2 mln. dollardan 2030-yilda 2 647,6 mln. dollarga yetishi prognoz qilindi. Xorijiy turistlar sonining oshishi va ichki

3-jadval

Turizm sohasi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining 2024-2030-yillar uchun prognoz qiymatlari dinamikasi¹

	2024 y.	2025 y.	2026 y.	2027 y.	2028 y.	2029 y.	2030 y.
Mamlakatga tashrif buyurgan xori-jiy turistlar soni (MTBXTS) (ming kishi)	5778,0	6 760,3	7 605,4	8403,9	9093,0	9693,2	10294,2
Turizm xizmatlari eksporti hajmi (TXEh) (mln.doll)	1133,2	1354,2	1570,9	1822,2	2088,3	2359,8	2647,6
Turizm sohasidagi bandlik (TSB) (ming kishi)	257,6	314,2	374,0	442,3	519,5	605,1	706,0
Turizm tarmoqlaridagi ichki taklif hajmi (TTITh) (mlrd. so‘m)	54810,6	65498,7	75978,5	88135,0	101002,7	114133,1	128057,3
To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm- da yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmi (TTYaQQh) (mlrd. so‘m)	17180,9	20531,2	23816,2	27626,8	31 660,3	35776,3	40140,9
YaIMdagi turizm ulushi (YaIMTU) (foiz)	1,9	2,2	2,6	3,0	3,4	3,9	4,3

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

turizm takliflarining kengayishi ta'sirida sohada bandlik darajasi ham o'sishi prognoz qilingan. Jumladan, 2021-yilda pandemiya ta'sirida sohada band bo'lganlar soni kamayib 78,1 ming tani tashkil qilgan bo'lsa (2019-yilda 230 ming ish o'rni), 2024-yilda turizm sohasining to'liq tiklanishi kutilayotganligi sababli sohada band bo'lganlar soni 257,6 tani tashkil qilishi hamda 2030-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 706,0 mingtani tashkil qilishi prognoz qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra, turizm sohasini rivojlantirish borasida soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan choralarning barchasi joriy qilinganda 2023-yilda turizm sohasiga bo'lgan soliq yuki 30 foizdan 18 foizga tushishi hamda turizm mahsulotining narxi ham mos ravishda 8 foizga arzonlashishiga olib keladi. Buning natijasida esa, narx-talab egiluvchanligi koeffitsientiga muvofiq xorijiy turistlar oqimining oshishi 187,9 ming nafardan 375,8 ming nafargachani tashkil etadi. Turizm xizmatlari eksportini esa eng kamida 36,6 mln. dollardan 73,1 mln. dollargacha ortishiga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, turizm sohasida soliq mexanizmlarini, soliq imtiyozlarini maqsadli va manzilli qo'llash natijasida soha subyektlarining soliq yukini, turizm mahsuloti va xizmatlari narxlarini tushishiga olib keladi. Bu esa, mahalliy hamda xorijiy turistlar oqimini ko'paytiradi va turistik xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi hamda yuzaga kelgan talabdan kelib chiqib turizm sohasining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini ijobiy o'zgarishiga xizmat qiladi[7-9].

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, turizm sohasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani

rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish sanoatning o'ziga xos xususiyatlarini va uning faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo'lgan puxta o'ylangan soliq siyosatisiz mumkin emas.

Sayyohlik faoliyatiga soliq solish moslashuvchan va investitsiyalar va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Soliq rejimlarini optimallashtirish alohida sayyohlik kompaniyalari va umuman mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Soliq tizimi turizmning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi, uzoq muddatli o'sish va innovatsiyalar uchun sharoit yaratishi muhimdir.

Global raqobat sharoitida turizm sohasidagi soliq muhitini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tajriba va amaliyotlarni hisobga olish kerak. Maqolada keltirilgan tavsiyalar turizm sohasi va umuman iqtisodiyotning gullab-yashnashiga yordam beradigan samarali soliq strategiyalarini yanada tadqiq qilish va ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maqolada soliq tizimini takomillashtirish orqali O'zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Turizm sanoatining hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mavjud potentsialga qaramay, yuqori soliqlar va murakkab soliq tartib-qoidalari tufayli bir qator jiddiy to'siqlar mavjud.

Soliq tizimini optimallashtirish bo'yicha taklif qilingan chora-tadbirlar, jumladan, sayyohlik kompaniyalari uchun soliq imtiyozlarini joriy etish, ma'muriy tartib-qoidalarni soddalashtirish va biznes bilan faol shug'ullanish mamlakatning investorlar va sayyohlar uchun jozibadorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Soliq solishda eng yaxshi xalqaro amaliyotlarga e'tibor

qaratish yanada raqobatbardosh muhitni yaratadi va sayyohlik xizmatlarining o'sishini rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, soliq tizimini isloh qilish O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Tavsiya etilgan tavsiyalarni samarali amalga oshirish nafaqat

sayyohlik oqimlari hajmini oshirishga, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy holatini yaxshilashga imkon beradi. Davlat tuzilmalari turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ustida ishlashni davom ettirishlari muhim, bu esa oxir-oqibat O'zbekistonning iqtisodiy ravnaqiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNWTO. (2020). UNWTO World Tourism Barometer, 2008 Edition. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284424160>, <https://www.e-unwto.org/toc/wtobarometereng/21/2>
2. Deloitte. (2017). Economic Impact of Travel and Tourism. Retrieved from Deloitte website.
3. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2022). Economic Impact Reports. Retrieved from WTTC website.
4. Сергеев, И. В. (2021). Налоговая политика и развитие туристического сектора: аналитический обзор. Экономический вестник, 11(2), 30-39.
5. WTTC Taxation Policy Task Force Case Studies. (2021). Principles of Intelligent Taxation, East Lansing: The World Travel & Tourism Tax Policy Center, <https://usajournalshub.com/conferences/index.php/iscrc/article/view/360>
6. Roca J. (2014). Evaluation of the Effectiveness and Efficiency of Tax Benefits. Institutional Capacity and Finance Sector, Discussion Paper IDB-DP-136. IDB.
7. Abdullayev Z.S. Comparative Analysis of Development of Taxations System of Tourism // Журнал научных и прикладных исследований. Научно-практический журнал №2 / 2020. Адрес в Internet: www.gnpi.ru E-mail: gnpi.public@gmail.com ISSN 2306-9147.
8. Abdullaev Z.S. Turizm faoliyatini rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati // «Iqtisod va moliya» ilmiy-amaliy jurnal, 2020. №4(136). B.47-54.
9. Abdullaev Z.S. Turizm faoliyatini soliqqa tortishning iqtisodiy-huquqiy asoslari // «Iqtisod va moliya» ilmiy-amaliy jurnal, 2021. №2(138). B.39-47.
10. Абдуллаев З.С. Об актуальности вопроса моделирования и совершенствования процессов формирования и финансирования малого бизнеса и предпринимательства в Республике Узбекистан. // "Наука и мир" Международный научный журнал, № 5(33). 2016. Том 2. ISSN 2308-4804. Россия, г.Волгоград ул.Ангарская, 17 «Г». info@scienceph.ru www.scienceph.ru C.97-99.
11. Шевченко, А. С. (2020). Международные тенденции в налогообложении туристической деятельности. Журнал «Мировая экономика», 15(3), 102-110.
12. Kozak, M., & Rimmington, M. (2000). Tourism Crisis Management: Preparing for the Unexpected. International Journal of Tourism Research, 2(2), 135-147.

UDK: 336.2:338.012:339.17

Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

e-mail: dilmurod_a@list.ru

**AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ STAVKALARINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA MILLIY IQTISODIYOTNING
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li

Доцент Ташкентского государственного
экономического университета, PhDe-mail: dilmurod_a@list.ru

**ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ОСНОВЕ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТАВОК НАЛОГОВ, ВЗИМАЕМЫХ С
ОБОРОТА**

Abdullayev Dilmurod Aliyarovich

Associate Professor of Tashkent State
University of Economics, PhD

**ISSUES OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL
ECONOMY BASED ON THE IMPROVEMENT OF THE TAX RATES
COLLECTED FROM TURNOVER**

Annotasiya: Mazkur maqolada aylanmadan olinadigan soliq stavkasi va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan hamda soliq stavkasi miqdorining o'zgarishi va uning soliq tushumiga ta'siri tahlil qilingan, soliq stavkasini takomillashtirish bo'yicha iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijasi bo'yicha xulosalar shakllantirilgan holda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: budjet, budjet daromadi, raqobat, raqobatbardoshlik, realizatsiya tushumi, soliq, soliq yuki, soliq rejimi, soddalashtirilgan soliq, soliq stavkasi, stavka turlari.

Аннотация: В данной статье изучены ставка налога с оборота, ее виды и характеристики, проанализированы изменения размера налоговой ставки и ее влияние на налоговые поступления, а также исследования экономистов по вопросам совершенствования налоговой ставки. были изучены налоговые ставки. При этом по результатам исследований были разработаны научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: бюджет, доходы бюджета, конкуренция, конкурентоспособность, выручка от продаж, налог, налоговая нагрузка, налоговый режим, упрощенный налог, налоговая ставка, виды ставок.

Abstract: *In this article, the turnover tax rate and its types and characteristics have been studied, and the changes in the amount of the tax rate and its impact on the tax revenue have been analyzed, and the researches of economists on the improvement of the tax rate have been studied. At the same time, scientific proposals and practical recommendations were developed based on the results of the research.*

Key words: *budget, budget revenue, competition, competitiveness, sales revenue, tax, tax burden, tax regime, simplified tax, tax rate, rate types.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yuzaga kelgan murakkab sharoitda har bir davlat uchun asosiy vazifalardan biri iqtisodiyotini rivojlantirgan holda aholi farovonligini ta'minlash hisoblanadi. Chunki jahon maydonida sodir bo'layotgan turli xil qarama-qarshilik va ziddiyatlar dunyo iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, xalqaro bozorda raqobat kurashi tobora kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonlar xalqaro maydonda muhim o'ringa ega bo'lgan davlatimiz iqtisodiyotiga ham bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, kelgusida iqtisodiyotimizning barqaror o'sish ko'rsatkichlarini saqlab qolish va aholi turmush darajasini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda davlatimizda keng ko'lamlı chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, 2023 yilning 11 sentyabrida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilib, mazkur hujjatda 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlar va uning samaradorlik ko'rsatkichlari belgilab berilgan. Bunda, 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish asosiy iqtisodiy maqsadlardan biri sifatida qayd etilgan[2]. Ushbu maqsadga erishish uchun tadbirkorlik sub'ektlariga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va ular o'rtasida teng raqobat muhitini shakllantirish asosida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish lozim. Aynan raqobatbardosh iqtisodiyot kelgusi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror

rivojlanishini ta'minlaydi. Bu borada davlatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev joriy yilning 20 avgustida tadbirkorlar bilan uchrashuvda alohida to'xtalib, "Ertangi kunimiz – bu teng raqobat muhiti va eksportga qaratilgan sanoat va savdo siyosati" deya ta'kidlab o'tdilar[4]. Bundan ko'rinib turibdiki, kelgusida milliy iqtisodiyotimizni taraqqiy ettirishda ichki bozorlarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda barcha biznes sub'ektlari faoliyat yuritish uchun teng imkoniyatga ega bo'lishi va ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratishda aylanmadan olinadigan soliq muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi. Sababi, yurtimizdagi tadbirkorlik sub'ektlarining aksariyat qismi ushbu soliqni to'laydi. Shu bois, ular teng imkoniyatga ega bo'lishi uchun aylanmadan olinadigan soliq miqdori bir xil taqsimlanishi lozim. Bu borada, ushbu soliq stavkalarini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berish lozim. Soliq stavkasi soliq to'lovchilardan undiriladigan soliq miqdorini belgilab beruvchi aylanmadan olinadigan soliqning asosiy elementi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI.

Aylanmadan olinadigan soliq stavkalarini takomillashtirish va bu orqali kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rag'batlantirish, byudjetga tushumlar hajmini oshirish borasida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olim R.Pomp tomonidan aylanmadan olinadigan soliqlarning kelib chiqish tarixiga alohida e'tibor qaratilgan. Uning qayd etishicha, tijorat faoliyati solig'ini chuqur ildizlari mavjud. Qadimiy davrlarda ko'chmas mulk va tanlangan tovarlarni sotishdan soliq undirilgan. Muayyan tovarlarga, ayniqsa tuzga soliq solish Xitoy, Hindiston va Misrda keng tarqalgan bo'lib, bu hududlarda Ptolomey barcha tovarlardan 5 % miqdorida soliq joriy etgan. Rimliklar Misrni bosib olaganidan keyin, ular oshirilgan 10 % umumiy aylanma soliqni tadbqiq etgan. Avgust hukmronligi davrida bozorlarda yoki kim oshdi savdosi orqali sotilgan barcha buyumlar, harakatlanadigan tovarlar va jihozlarga to'lanadigan soliq 1 % bo'lgan. Qullarga stavka 2 % ni tashkil etgan. Aylanmadan olinadigan soliq Fransiya va Ispaniyaga tarqaldi hamda ushbu mamlakatlarda Rim hukmronligi tugaganidan keyin ham saqlanib qolindi. Shu bilan birga, uning xulosasiga ko'ra oborotdan olinadigan soliqlar to'liq rivojlangan iqtisodiyotlarning o'ziga xos xususiyati emas, balki rivojlanayotgan davlatlarning odatiy jihatiidir[5]. Tadqiqotchi M.Mas-Montserrat va boshqalar fikriga ko'ra, soddalashtirilgan soliq rejimlari sifatida nomlanadigan taxminiy soliq rejimlari soliq majburiyatlarini bajarish xarajatlarini kamaytirish va standart soliq tizimiga nisbatan pastroq stavkalarni qo'llash orqali biznesni rasmiylashtirish hamda soliq tartiblariga rioya qilishni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu rejimlar odatda mikro va kichik biznesga mo'ljallangan hamda bilvosita usullar asosida soliq solinadigan foydaga yaqin bo'lishga mo'ljallangan taxminiy soliq bazasiga soliq solinadi[6]. Kanada davlatidagi Kalgariy universiteti professori J.Wen ta'kidlashicha, aylanma soliqning optimal stavkasi 2 ta harakat chegarasini muvozanatda tutishi kerak. Bir tomondan, aylanmadan olinadigan soliq

stavkasi juda past bo'lishi mumkin emas. Sababi aks holda odatiy rejimdagi ayrim o'rta firmalar mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan rejimga jalb qilinishi mumkin garchi ularga ushbu tizim tegishli bo'lmasa ham. Boshqa tomondan, aylanma soliq stavkasini juda yuqori belgilash mumkin emas chunki mikrokorxonalar soddalashtirilgan soliq rejimidan ro'yxatdan o'tishdan ko'ra ko'proq norasmiy sektorda qolishni afzal ko'rishi mumkin[7].

Mahalliy professor B.Sanaqulova o'zining dissertatsiyasi ishida ulgurji va chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi savdo korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini unifikatsiya qilish taklifini ilgari surgan[8]. Professor J.Urmonovning xulosasiga ko'ra, mamlakatimizda kichik biznesni rivojlanishida soliq stavkalarining pasaytirilishi va soliq imtiyozlarining berilishi kichik korxonalarda soliq yukining kamayishi va sof foydaning oshishiga olib keladi[9]. Tadqiqotchi A.Botirovning ta'kidlashicha, kichik tadbirkorlik subyektlarining amaldagi soliqqa tortish tartibini maqsadli ravishda optimallashtirish bo'yicha faoliyat turi va soliq to'lovchining joylashgan joyiga qarab soliq stavkalarini tabaqalashtirish zarur[10]. Tadqiqotchi R.Xo'jaqulovning fikricha, aylanmadan olinadigan soliq stavkasini yagona 3 foiz qilib belgilash, mazkur unifikatsiya doirasida chekka hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchilar uchun 1 foizlik imtiyozli stavkani saqlab qolish lozim[11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkalarini tadqiq qilish davomida kuzatuv, statistik guruhlash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, deduksiya hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda soliq yukini pasaytirish muhim hisoblanadi. Chunki, korxonalar kam soliq to'lasa, ularning ixtiyorida ko'proq mablag' qoladi va ushbu mablag'larni faoliyatini yanada rivojlantirish uchun yo'naltiradi. Soliq yuki soliq stavkasini pasaytirish asosida kamaytiriladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlatimizda tadbirkorlik sub'ektlarining raqobatbardoshligini oshirishda aylanmadan olinadigan soliq stavkalarini pasaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, mamlakatimiz soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyaga muvofiq 2019 yil 1 yanvardan mazkur soliqning bazaviy stavkasi 1%ga ya'ni 5% dan 4%ga pasaytirildi[3].

Bugungi kunda aylanmadan solinadigan soliqning amaldagi stavkasi Soliq kodeksi bilan belgilangan bo'lib[1], uni quyidagi 2 guruhga ajratish mumkin:

- foizda;
- qat'iy summada.

Foizda ko'rinishidagi soliq stavkalari soliq to'lovchining faoliyat turidan kelib chiqib qo'llaniladi. Bunda soliq summasi hisobot davri yakunlari bo'yicha yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi. Bunda, bir necha soliq solish ob'ektlari va soliq stavkalari alohida bo'lgan faoliyat turi bilan shug'ullanadigan soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'lovini amalga oshiradi. Faoliyat turidan tashqari boshqa manbalardan olingan daromadlarga soliq to'lovchining yil yakuni bo'yicha umumiy jami daromadlaridagi ulushi yuqori bo'lgan faoliyat turi uchun belgilangan stavka bo'yicha soliq solinadi. Faoliyat turlari mavjud bo'lmagan soliq to'lovchilar mazkur daromadlar uchun

4% stavkada soliq to'laydi. Quyidagi rasmda aylanmadan olinadigan soliqning foiz ko'rinishidagi stavkalari o'zgarishini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlari asosida mamlakatimizda 2015-2024 yillarda aylanmadan olinadigan soliqning foizdagi stavkalari o'zgarishini ko'radigan bo'lsak, 2015 yilda soliq stavkalari 26 turdagi soliq to'lovchilar uchun alohida bo'lib, 5 ta toifadagi soliq to'lovchilar guruhi uchun 30 va undan yuqori stavkalar belgilangan hamda bazaviy soliq stavkasi 6 foizni tashkil etgan, 2024 yilda esa 16 ta turdagi soliq to'lovchilar bo'yicha soliq stavkalari asosiy stavka bilan birhillashtirilib, 4 foizgacha pasaytirilgan va o'z navbatida bazaviy stavka 6 foizdan 4 foizga kamaytirilgan. Bundan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu davrda aylanmadan olinadigan soliq stavkasi unifikatsiya qilish va pasaytirish xususiyatiga ega bo'lgan.

O'zbekistonda 2023 yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy summadagi stavkasini qo'llash amaliyoti joriy qilindi. Bunda, soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan summada soliqni soliq to'lovchilar oy boshlanishidan 10 kun oldin hisobda turgan joydagi soliq organini xabardor qilish, yangi tashkil etilganlar esa davlat ro'yxatidan o'tish vaqtida ushbu tartibni tanlash orqali ixtiyoriy to'laydi. Mazkur stavkani tanlagan soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

dividendlar tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinmaydi;

- ushbu soliq va dividendlar tarzidagi daromadlar bo'yicha soliq hisobotlarini taqdim etish majburiyatidan ozod qilinadi. Aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy summadagi stavkasi 2024 yilda uchun tovar aylanmasi 500 mln.so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilar uchun 25 mln.so'm va undan yuqori bo'lganlarga 34 mln.so'm etib belgilangan. Mazkur soliq stavkasi summalari o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda 2015-2024 yillarda aylanmadan olinadigan soliqning foizdagi stavkalari o‘zgarishi tahlili

№	Soliq to'lovchilar	Yillar											Farqi
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024		
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari	6	5	5	5	4	4	4	4	4	4	-2	
2	Elektron tijorat sub'ektlari	6	5	5	5	4	2	2	2	2	2	-4	
3	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tashkilotlar	6	5	5	4	4	4	4	4	4	4	-2	
4	Bojxona brokerlari	6	5	5	5	5	5	5	5	4	4	-2	
5	Sanoat sohasidagi korxonalar	5	5	5	5	4	4	4	4	4	4	-1	
6	Qurilish tashkilotlari	5	5	5	5	4	4	4	4	4	4	-1	
7	OAV tahririyatlari, nashriyotlar, matbaa tashkilotlari va teleradioeshittirish kompaniyalari	5	5	5	5	4	4	4	4	4	4	-1	
8	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish korxonalari	5	5	5	5	4	4	4	4	4	4	-1	
9	Alkogol, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'i va suyultirilgan gaz realizasiyasi	5	4	4	4	4	4	4	4	4	4	-1	
10	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar	5	5	5	5	4	4	4	4	4	4	-1	
11	Chakana va ulgurji tovar oboroti bo'yicha «Sharobsavdo» ixtisoslashgan hududiy bazalari	5	5	5	5	4	4	4	4	4	4	-1	
12	Chakana savdo korxonalari (aholisi 100 ming va undan yuqori shaharlarda)	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	0	
13	Chakana savdo korxonalari (boshqa aholi punktlarida)	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	0	
14	Chakana savdo korxonalari (borish qiyin va tog'li hududlarda)	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	0	
15	Dorixona (aholisi 100 ming va undan yuqori shaharlarda)	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	0	
16	Dorixona (boshqa aholi punktlarida)	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	0	
17	Dorixona (borish qiyin va tog'li hududlarda)	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	0	
18	Umumiy ovqatlanish korxonalari (aholisi 100 ming va undan yuqori shaharlarda)	10	10	10	10	8	8	8	8	4	4	-6	
19	Umumiy ovqatlanish korxonalari (boshqa aholi punktlarida)	10	10	10	10	6	6	6	6	4	4	-6	
20	Umumiy ovqatlanish korxonalari (borish qiyin va tog'li hududlarda)	10	10	10	10	4	4	4	4	4	4	-6	
21	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13	13	13	13	13	13	13	13	4	4	-9	
22	Lombardlar	30	30	30	30	25	25	25	25	4	4	-26	
23	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun lisenziyaga ega bo'lgan korxonalar	30	30	30	30	5	5	5	5	4	4	-26	
24	Turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar	30	30	30	30	30	8	8	8	4	4	-26	
25	Tayyorlov va brokerlik, shuningdek vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33	33	33	33	25	5	5	5	4	4	-29	
26	Lotereyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar	33	33	33	33	4	4	4	4	4	4	-29	

Manba: qonun hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval
Aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy summadagi stavkasining o'zgarishi
tahlili

mln.so'm

№	Soliq to'lovchi jami daromadi	Yillik soliq stavkasi		O'zgarishi	
		2023 y	2024 y	+;-	%
1	500 mln.so'mgacha	20	25	5	125
2	500 mln.so'mdan yuqori	30	34	4	113

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida ushbu soliq bo'yicha 2023-2024 yillarda qat'iy soliq stavkasini o'zgarishini tahlil qilgan holda aytadigan bo'lsak, jami daromadi 500 mln. so'mgacha bo'lgan to'lovchilar uchun mazkur stavkaning yillik miqdori 2024 yilda 25 mln. so'mni tashkil etgan holda 2023 yilga nisbatan 5 mln.so'mga yoki 25 %ga, shuningdek, bu davrda jami daromadi 500 mln.so'mgacha bo'lgan to'lovchilar uchun esa yillik soliq stavkasi 4 mln.so'mga (13%) ya'ni 30 mln.so'mdan 34 mln.so'mga oshgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, aylanmadan olinadigan soliq stavkalaridagi o'zgarishlar natijasida soliq to'lovchi korxonalar soni dinamikasiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Mazkur soliqni to'laydigan yuridik shaxslarning tarkibi va uning o'zgarishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval
Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi korxonalarning soliq stavkalarining
qo'llanilishi bo'yicha soni tahlili

mingta

№	Ko'rsatkichlar nomi	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
	Jami	185,8	176,8	161,3	150,1	208,8	230,2	303,4	314,7	315,5
1	Foiz stavkada soliq to'lovchilar soni	185,8	176,8	161,3	150,1	208,8	230,2	303,4	314,7	258,4
	Ulushi, %	100	100	100	100	100	100	100	100	81,9
2	Qat'iy summada soliq to'lovchilar soni	x	x	x	x	x	x	x	x	57,0
	Ulushi, %	x	x	x	x	x	x	x	x	18,1
2.1	jami daromadi 500 mln. so'mgacha bo'lganlar	x	x	x	x	x	x	x	x	42,6
	Ulushi, %	x	x	x	x	x	x	x	x	74,7
2.2	jami daromadi 500 mln. so'mdan yuqori bo'lganlar	x	x	x	x	x	x	x	x	14,3
	Ulushi, %	x	x	x	x	x	x	x	x	25,3


Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda aylanmadan olinadigan soliqni to'laydigan yuridik shaxslar soni 185,8 tadan 315,5 mingtaga oshgan. Shundan, 2015-2022 yillarda mazkur soliq to'lovchilarning barchasi foiz stavkada soliq to'lagan va uning soni 314,7 mingtaga oshgan. 2023 yilda esa ushbu toifadagi soliq to'lovchilar soni qat'iy summadagi stavkaning joriy qilinishi hisobiga 258,4 taga kamayib,

jami soliq to'lovchilarning 81,9 %ini tashkil etgan. Qat'iy summadagi stavka bo'yicha soliq to'laydigan korxonalar soni 2023 yilda jami soliq to'lovchining 18,1 %ini ya'ni 57,0 mingtani tashkil qilib, shundan ularning 42,6 mingtasi yoki 74,7 %i jami daromadi 500 mln.so'mgacha va 14,3 mingtasi yoki 25,3 %i 500 mln.so'mdan ko'p bo'lgan soliq to'lovchilar bo'lgan.

Fikrimizcha, qat'iy soliq stavkasi tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratishga va byudjet daromadlarini oshirishda samarali natijani bermaydi. Chunki, soliq to'lovchilar doimo kamroq soliq to'lashga harakat qiladi. Shu bois, mazkur stavka turi foiz stavkasi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan tanlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, jami daromadi 850 mln.so'mdan yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar qat'iy summadagi stavkada, aksincha, 850 mln.so'mgacha bo'lganlar esa foiz stavkada soliq to'lashni afzal ko'radi. Bu esa, soliq tushumlari kamayishiga olib keladi.

Soliq stavkalari o'zgarishi ta'sirini baholash uchun soliq tushumlarini tahlil qilish lozim bo'ladi. Aylanmadan olinadigan soliq tushumining o'zgarishini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Aylanmadan olinadigan soliq tushumi o'zgarishi dinamikasi[12]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda aylanmadan olinadigan soliq tushumi 2015-2018 yillarda 2 baravarga ya'ni 2 399,5 mlrd.so'mdan 4 706,4 mlrd.

so'mgacha ko'paygan, 2019 yilda soliq to'lovchilar foyda va qo'shilgan qiymat solig'iga o'tkazilganligi hisobiga 1 988,7 mlrd.so'mga, koronavirus pandemiyasi sababli 2020 yilda 1 988,7 mlrd.so'mga kamaygan. Shu bilan birga 2021-2022 yillarda ushbu soliq turi tushumida o'sish kuzatilib, mos ravishda 1 649,4 va 2 512,7 mlrd.so'mga oshgan. Biroq, ushbu ko'rsatkich 2023 yilda 2 407,3 mlrd.so'mga kamaygan. Rasmiy ma'lumotlarda qat'iy stavkani joriy qilinishi ushbu kamayish ko'rsatkichining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatilgan[12]. Bu esa, keyingi yillarda mamlakatimizda soliq to'lovchilarga soliq yukini teng taqsimlash orqali tushumlarni ko'paytirish uchun ushbu soliq stavkasini takomillashtirishni taqazo etadi.

XULOSA.

Xuloa qilib aytadigan bo'lsak, aylanmadan olinadigan soliq, dunyoning ko'plab davlatlarida mavjud bo'lib, kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soyadan chiqarish asosida raqobatbardoshlikni oshirishda keng foydalanilmoqda. Shu jumladan, mazkur soliq turi mamlakatimiz soliq tizimida ham joriy qilingan bo'lib, bugungi kunda kichik biznes sub'ektlarini faoliyatini rag'batlantirish va qonuniylashtirishda foydalanilmoqda. So'nggi yillarda davlatimizda soliq stavkasi asosida aylanmadan olingan soliq yukini kamaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aylanmadan olinadigan soliq stavkalari miqdori unifikatsiya qilinib, sezilarli ravishda kamaytirilgan. O'ylashimizcha, ushbu islohotlar soliq to'lovchilar ixtiyorida ko'proq mablag' qoldirish va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Fikrimizcha, biznes sub'ektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va

solliq yukini teng taqsimlash, solliq tushumi miqdorini oshirish va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida aylanmadan olinadigan solliq stavkasini quyidagilar hisobiga takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- barcha solliq to'lovchilar uchun aylanmadan olinadigan solliqning yagona stavkasini belgilash lozim. Bu borada, dorixona va chakana savdo korxonalarining tabaqalashtirilgan va elektron tijorat sub'ektlari uchun pasaytirilgan stavkalarni bazaviy stavka bilan birhillashtirish;

- bugungi kunda amaliyotga tadbiiq etilgan qat'iy summadagi solliq stavkalari solliq tushumining kamayishiga va solliq to'lovchilar o'rtasida solliqni to'lashda farqni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, mazkur turdagi solliq stavkalarini bekor qilish;

- Yakka tartibdagi tadbirkorlarning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan aylanmadan olinadigan solliqni to'lashga o'tishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga aylanmadan olinadigan solliqning vaqtinchalik pasaytirilgan stavkasini qo'llash amaliyotini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Solliq kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining solliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni
4. Mirziyoev Sh.M. Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2024 yil 21 avgust, №168 (8791)
5. Pomp, Richard, "Turnover Taxes: Their Origin, Fall from Grace, and Resurrection" (2022). Faculty Articles and Papers. 579.
6. Mas-Montserrat, M. et al. (2023), "The design of presumptive tax regimes", OECD Taxation Working Papers, No. 59, OECD Publishing, Paris.
7. J. Wen (2023), "How to Design a Presumptive Income Tax for Micro and Small Enterprises", IMF Working Papers, Vol. 2023/2.
8. Sanaqulova B.R. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining solliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2015.
9. Urmonov J.J. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini solliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.
10. Botirov A.A. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining solliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo'llari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012.
11. Xo'jaqulov R. Davlat byudjeti daromadlarining shakllantirishda to'g'ri solliqlarning prognozlashtirish masalalari. "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali. 2023 yil 1-son
12. <http://www.imv.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
13. <http://www.soliq.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Solliq qo'mitasi rasmiy sayti.

UO‘T 657.1

Mamatov Baxadir Safaraliyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori
bahadir_mamatov@mail.ru

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR – INTENSIV
TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

Маматов Бахадир Сафаралиевич
Профессор Ташкентского государственного
экономического университета
bahadir_mamatov@mail.ru

ИНВЕСТИЦИИ В ОСНОВНОЙ КАПИТАЛ - ВАЖНЫЙ ФАКТОР
ИНТЕНСИВНОГО РАЗВИТИЯ

Mamatov Bahadir Safaraliyevich
Professor of Tashkent State University of Economics
bahadir_mamatov@mail.ru

INVESTMENTS IN FIXED ASSETS ARE AN IMPORTANT FACTOR OF
INTENSIVE DEVELOPMENT

***Annotatsiya.** Maqolada investitsiyalarning mazmuni, mohiyati, xususiyatlari, funksiyalari va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli tadqiq qilingan. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyot darajasidagi funksiyalari tasniflangan va tavsiflangan. Investitsiyalarning funksiyalarini davlat, iqtisodiyot va xususiy darajada tasniflashning zarurligi asoslab berilgan. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishdagi roli baholangan hamda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning dinamikasi tahlil qilingan. Markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari o‘rganilgan hamda ushbu mablag‘lar hisobidan mamlakatimizda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida umumiy xulosalar shakllantirilgan va asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilish hamda samarali o‘zlashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** investitsiya, investitsiya loyihalari, asosiy kapital, funktsiya, intensiv rivojlanish, ishlab chiqarish sanoati, moliyalashtirish, markazlashgan mablag‘lar, markazlashmagan mablag‘lar, investitsiya faoliyati, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, yalpi ichki mahsulot, modernizatsiya, investitsiya resurslari, moddiy boyliklar, nomoddiy boyliklar, risklar.*

Аннотация

В статье исследованы содержание, природа, особенности, функции и роль инвестиций в экономическом развитии. Классифицированы и описаны макро- и микроэкономические функции инвестиций. Обоснована необходимость классификации функций инвестиций на государственном, экономическом и частном уровне. Оценена роль инвестиций в основной капитал в развитии обрабатывающей и перерабатывающей промышленности, проанализирована динамика инвестиций в основной капитал. Изучены доли инвестиций в основной капитал за счет централизованных и децентрализованных источников финансирования и рассмотрены инвестиционные проекты, реализованные в нашей стране за счет этих средств. По результатам исследования сформированы общие выводы и разработаны рекомендации, направленные на привлечение и эффективное освоение инвестиций в основной капитал.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционные проекты, основной капитал, функции, интенсивное развитие, производственная промышленность, финансирование, централизованные средства, децентрализованные средства, инвестиционная деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционный климат, валовой внутренний продукт, модернизация, инвестиционные ресурсы, материальные ценности, нематериальные ценности, риски.

Annotation. The article examines the content, nature, features, functions and role of investments in economic development. Macro and micro economic functions of investments are classified and described. The need to classify the functions of investments at the public, economic and private levels is justified. The role of investments in fixed assets in the development of the manufacturing and processing industries was assessed, the dynamics of investments in fixed assets was analyzed. We studied the share of investments in fixed assets through centralized and decentralized sources of financing and considered investment projects implemented in our country at the expense of these funds. Based on the results of the study, general conclusions were formed and recommendations were developed aimed at attracting and effectively mastering investments in fixed assets.

Keywords: investments, investment projects, fixed assets, functions, intensive development, manufacturing industry, financing, centralized funds, decentralized funds, investment activities, foreign investment, investment climate, gross domestic product, modernization, investment resources, tangible values, intangible values, risks.

KIRISH

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotini investitsiyalar yordamida rivojlantirish intensiv taraqqiyotga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, «Qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi» [1].

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiyaviy faollikni oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va samarali o'zlashtirish, davlat-xususiy sheriklik doirasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, asosiy kapitalni modernizatsiya qilish yo'lida ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi va ustuvor vazifalar belgilab olindi. Jumladan, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini ko'paytirish, zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy

etgan holda davlat ulushi ustun bo'lgan yirik kompaniyalar va tijorat banklarining transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi» [2] tashkil etildi. Ushbu Jamg'armaning asosiy vazifasi sifatida Jamg'arma aksiyalarini yetakchi xorijiy fond birjasida joylashtirish hamda Jamg'arma aktivlariga investitsiyalarni jalb qilish va ularni xususiy lashtirish jarayonlarida ishtirok etish uchun yetakchi xalqaro institutsional investorlarni jalb qilish belgilab olindi.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning savdo va taraqqiyotga bag'ishlab o'tkazilgan konferensiyasida qayd etilishicha, **«2023 yilda amalga oshirilgan 1,37 trillionlik xorijiy investitsiya oqimi 2022 yildagi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda juda kam o'sishni namoyon etdi.** Yevropaning ayrim mamlakatida ijobiy tendensiyalar kuzatilganiga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning global oqimi 18 foizga kam bo'lgan»[3]. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida global investitsiya o'sishiga dunyodagi umumiy iqtisodiy noaniqliklar, Rossiya-Ukraina mojarosi, iqtisodiy pasayish va inflyatsiya bosimi, ko'plab mamlakatlarda foiz stavkalarining o'sishi ta'sir qilganligi bilan izohlash mumkin. Bir vaqtning o'zida mamlakatda investitsiyalarning o'sishi, hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va ulardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiyotning ravnaq topishiga, fan-texnika taraqqiyotiga, aholi bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, uni intensiv (resurstejam) rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatga erishish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqamlashtirish investitsiyalarni taqozo etadi.

Yuqorida qayd etilganlar kelib chiqib, bunday sharoitda milliy iqtisodiyotni investitsiyalar ko'magida taraqqiy ettirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakatga faol jalb qilish, asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va ulardan samarali foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda.

«2024 yil 2-3 may kunlari o'tkazilgan uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisi doirasida 93 ta mamlakatdan jami 2500 dan ziyod xorijiy ishtirokchilar qatnashib, hukumatlararo va idoralararo hujjatlar, 26 mlrd AQSH dollaridan ortiq miqdordagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi, shuningdek, respublikada investitsiya muhitini mustahkamlash bo'yicha taklif va tashabbuslar ishlab chiqildi» [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig'ilishi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»[5]gi qarori uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi hamda Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlar, imzolangan hujjatlar hamda ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning so'zsiz, o'z vaqtida va to'liq hajmda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ammo, global sanksiyalar va dunyodagi umumiy iqtisodiy vaziyat investitsiyalar taraqqiyotiga g'ov bo'lmoqda. BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, «2023 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi 2 foizga qisqarib, 1,33 trillion AQSH dollarini tashkil etdi» [6]. Shu munosabat bilan mamlakatda investitsiyaviy muhitini yanada yaxshilash, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, asosiy kapitalga

investitsiyalar jalb qilishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash bilan bog'liq dolzarb masalalarni ilmiy tadqiq etishni taqozo qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarning nazariy asoslari va iqtisodiyotdagi roli xususida xorijlik iqtisodchi-olimlar tomonidan talaygina ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu «investitsiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar» [7] tarzida ifodalaydi. Haqiqatdan ham investitsiyalar foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning u yoki bu sohalariga joylashtirilgandan so'ng xarajatlar ko'rinishiga ega bo'ladi. Ushbu xarajatlar, pirovardida, kapital qiymatini saqlash yoki uni ko'paytirishga xizmat qiladi va iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. E.Dj.Dolan va D.Ye. Lindseylar «sarmoyaning harakatlanishi va qo'yilmalar qiymatining oshib borishini, ko'payishini investitsiyalar sifatida ta'riflaydi» [8]. Ularning fikriga ko'ra, sarmoyaning harakati, u yoki bu sohaga kiritilishi, joylashtirilishi va ko'payishi investitsiyalarning tub mohiyatini ifoda etadi. U.F.Sharp, G.D.Aleksandr, Dj.V.Beyli tomonidan investitsiyalarning mohiyati quyidagicha ta'riflangan: «kelajakda (ehtimol noaniq) qiymatga ega bo'lish uchun hozirgi vaqtdagi ma'lum bir qiymatdan voz kechish» [9]. Ushbu ta'rifda investitsiyalar istiqbolda ehtimol nomuayyan qiymatlik olish maqsadida bugungi aniq qiymatlikdan voz kechish yoki bugungi aniq qiymatlikni kelajakdagi noaniq qiymatlikka almashtirish kabi ma'nolar mujassam. Aslida ham shunday, chunki investitsiyalar, birinchidan, istiqbolga qaratiladi, ikkinchidan, ma'lum miqdordagi resurslarning iqtisodiy yoki boshqa faoliyat turlariga joylashtirilishini taqozo etadi,

uchinchidan turli risklarga duch kelish ehtimoli sabab, nomuayyan yoki noaniq miqdorda daromad keltiradi. Ushbu fikrlar G.Birman va S.Shmidt asarlarida atroflicha asoslab berilgan. Ularning qarashlaricha, «investitsiyalar kelajakda daromad olish maqsadida resurslarning sarflanishidir» [10]. Demak, sarmoyaning harakati, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga risk asosida kiritiladigan, joylashtiriladigan barcha turdagi boyliklar investitsiyalarning mohiyati va mazmunin anglatadi. Umuman olganda, investitsiyalarni kelajakda daromadga ega bo'lish uchun hozirgi vaqtda ma'lum miqdordagi turli boyliklarni iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga joylashtirilishi (kiritilishi, qo'yilishi) sifatida tushunish mumkin.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan T.Malikov fikricha, «Investitsiyalar – yuridik jihatdan mustaqil bo'lgan korxonaga uzoq muddat (bir yildan kam bo'lmagan) davomida qo'shimcha foyda olish, ta'sir etish doirasini sotib olish maqsadlarida yoki shu sohada o'z faoliyatini tashkil qilgandan ko'ra uni shunday qo'yish (sarf etish) afzalroq bo'lganligi uchun kapitalni joylashtirish. Foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida pul mablag'lari, maqsadli bank omonatlari, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, boshqa har xil mulklar yoki mulkiy huquqlar hamda intellektual boyliklarni tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari obyektlariga qo'yilishining barchasi investitsiyalar hisoblanadi» [11]. Prof. D.G'ozibekov tomonidan investitsiyalarning mohiyati va mazmuni quyidagicha ta'riflangan: «Investitsiya – bu aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani

olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilariga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi. Bular asosida kapitalning harakatlanish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalarning mohiyatini aks ettiradi» [12]. Investitsiyalarning mazmuni bo'yicha shunga o'xshash ta'riflar A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminov tomonidan ham shakllantirilgan. Jumladan, «Investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar» [13]. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «Investitsiya (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish)dir» [14] sifatida ta'riflangan.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda O'RQ-598-son «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berilgan: «investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar» [15].

Yuqoridagi ta'riflardan hamda investitsiyalarning mazmun-mohiyati va xususiyatlaridan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, investitsiyalarning mazmuni va mohiyatini iqtisodiy va moliyaviy jihatdan ta'riflash mumkin. Iqtisodiy jihatdan investitsiyalar sanoat, agrar soha, transport, qurilish, iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining boshqa

tarmoqlariga kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladigan xarajatlardir. Bunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning bir qismi umumiy iqtisodiy jarayonni, ekologik vaziyatni va ijtimoiy sohani barqarorlashtirish yoki iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan texnika-texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga safarbar etiladi. Shunday qilib, keng ma'noda investitsiyalar iqtisodiyotning o'sishini va rivojlanishini moliyaviy ta'minlash uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni yaratadi.

Moliyaviy jihatdan, ya'ni turli mulk shaklidagi korxonalar va xo'jalik subyektlari hamda aholi nuqtai nazaridan investitsiyalar kelajakda daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga mablag' qo'yish (kiritish)dir. Ushbu ta'rif har qanday biznesning bosh maqsadiga mos keladi.


Biroq, investitsiyalarning mazmun-mohiyati va iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati uning funksiyalarida, o'ziga xos xususiyatlarida, asosiy kapitalni yangilashdagi rolda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli va asosiy kapitalni yangilashdagi ahamiyatini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Har qanday iqtisodiy kategoriyaning, jumladan, investitsiyalarning mazmuni, mohiyati va iqtisodiyotdagi roli uning funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va boshqa bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi va ikki darajali ahamiyat ega: makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy (1-rasm).



1-rasm. Investitsiyalarning funksiyalari [16]

Ko'rinib turibdiki, investitsiyalar iqtisodiyotda g'oyat muhim funksiyalarni bajaradi-ki, ularsiz har qanday mamlakat iqtisodiyoti bir maromda va mutanosib rivojlana olmaydi. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun investitsiyalar, eng avvalo, intensiv (resurstejam ishlab chiqarish, texnika-texnologiyalar) taraqqiyotni ta'minlash uchun zarurdir. O'z navbatida, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika-texnologiyalarni olib kelishga (asosiy kapitalga) yo'naltirilgan investitsiyalar, nafaqat, qattiq raqobat sharoitlarida omon qolishga ko'maklashadi, balki mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va YAIM hajmining tez sur'atlarda o'sishini ta'minlab beradi.

Bizning fikrimizcha, investitsiyalarning funksiyalarini bu tarzda (shaklda) tasniflanishi yoki guruhlanishi ayrim kamchiliklardan xoli emas. Nazarimizda, investitsiyalarning funksiyalarini tasniflashda barcha omillarni e'tiborga olgan holda umumdavlat jihatdan, iqtisodiy jihatdan va xususiy jihatdan tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Umumdavlat darajasida investitsiyalarning funksiyalari tovarlar va xizmatlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishi uchun tegishli shart-sharoitlarni va qulay muhitni ta'minlashdan iborat.

Bir vaqtning o'zida investitsiyalar milliy iqtisodiyot va sanoatning turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Natijada, aholi o'rtasida ishsizlik darajasi pasayadi. Investitsiyalarning umumdavlat darajadagi yana bir muhim funksiyasi aholining turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa turdagi ijtimoiy dasturlarni (iqtisodiy foydani ko'zda tutmaydigan, biroq ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarini) moliyalashtirishdir. Natijada, jamiyatning ilmiy-texnik salohiyati rivojlanadi (agarda biz yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga, natijalari esa keyinchalik moddiy ne'matlarda mujassam bo'ladigan va bozorda sotiladigan turli xil ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritsak).

Iqtisodiy jihatdan (ya'ni, alohida loyihalarni, korxonalarni moliyalashtirish haqida so'z boradigan bo'lsa) investitsiyalarning funksiyalari ishlab chiqarish ko'lamini samarali kengaytirish va rivojlantirish imkoniyatlarini ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini tadqiq qilish va joriy etish imkoniyatini ta'minlashdan iborat. Bu esa ularni yanada raqobatbardosh qiladi va bozorda talabni oshiradi. Shunga ko'ra, natijada aholining u yoki bu tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji yuqori sifat darajasida qondiriladi.

Xususiy darajada investitsiyalarning asosiy funksiyasi insonni shaxsiy boyitishdan iborat. Mablag'lar foyda olish maqsadida turli loyihalarga, bank omonatlariga investitsiya qilinadi. Yanada batafsilroq tushuntiradigan bo'lsak, xususiy darajada investitsiyalarning ikki asosiy funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchisi, bu mablag'larni inflyatsiyadan himoya qilish funksiyasi bo'lsa, ikkinchisi, jamg'armalarni ko'paytirish funksiyasi. Ikki holatda ham investitsiyalar foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish yohud kapital qiymatini saqlash va uni ko'paytirish maqsadlarini

ko'zlaydi. O'z navbatida, bu ikki funktsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Investitsiyalarning mazmun-mohiyati, xususiyatlari va funktsiyalaridan kelib chiqib, ushbu atamaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: davlat, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan foyda olish, ijtimoiy samaraga erishish, kapital qiymatini saqlash va jamg'armalarni ko'paytirish maqsadida risklar asosida turli faoliyat obyektlariga kiritiladigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklarga investitsiyalar deyiladi. Investitsiyalarning asl mohiyati ana shu moddiy va nomoddiy boyliklarning turli faoliyat obyektlariga kiritilishida, joylashtirilishida, harakatlanishida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati bo'lgan U.F.Sharp o'z ilmiy tadqiqotlarida ta'kidlaganidek: «rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiyalarning asosiy qismini real investitsiyalar tashkil qiladi, biroq rivojlangan (zamonaviy) iqtisodiyotda investitsiyalarning katta qismi moliyaviy investitsiyalarga to'g'ri keladi» [17]. Olimning qarashlaricha, «real investitsiyalar, odatda, yer, asbob-uskunalar, zavod va fabrikalar kabi moddiy jihatdan aniq aktivlarning har qanday turiga kiritiladigan boyliklarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy investitsiyalar esa – bu turli qimmatli qog'ozlarga kiritiladigan boyliklarni nazarda tutadi» [18].

Shu nuqtai nazardan, hozirgi iqtisodiy vaziyatda O'zbekistonda moddiy aktivlarning har qanday turiga investitsiyalarni yo'naltirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridandir. Bu asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar sifatida baholanadi. O'z navbatida, «asosiy fondlar, korxonalarning asosiy fondlari – ishlab chiqarishga uzoq xizmat qiladigan, o'z natural buyum shaklini uzoq vaqt o'zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor qatnashadigan mehnat

qurollari va vositalari» [19]. Odatda, asosiy kapitalga yoki fondlarga ishlab chiqarish jarayonida bir yildan ko'p muddat xizmat qiladigan (ko'rsatadigan) mol-mulklar kiritiladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda asosiy fondlarning o'rniga asosiy kapital tushunchasi qo'llaniladi.

O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar deganda yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar yig'indisi tushuniladi. Asosiy kapitalga investitsiyalar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish barobarida, nafaqat, ishlab chiqarishning miqdoriy oshishini ta'minlaydi, balki sifati va raqobatbardoshligini ham oshiradi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari ravnaqini ta'minlashning asosiy vositasidir. Bir vaqtning o'zida, daromad (foyda)ni oshirish, ko'paytirish maqsadida asosiy vositalarni sotib olish, ularni modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish, qurish va boshqa sa'y-harakatlar uchun qo'shimcha xarajatlar hisobiga korxona aktivlari va balans qiymatining oshishi asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalarni anglatadi. Shuni ham alohida qayd etish zarurki, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini qisqa fursatda ta'minlashning deyarli imkoni yo'q, ammo ushbu turdagi investitsiyalar uzoq muddat davomida barqaror daromad (foyda) keltirishning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarga oid statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2018-2023 yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, 2018-2023 yillar mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2,8 barobarga yoki 227,9 trln. so'mga oshgan (2-rasm).




2-rasm. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar, trln. so'mda [20]

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan (4.INVESTISIYA VA QURILISH ISHLARI (1).pdf.).

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar muntazam o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Chunki bunday dinamika shu oraliqdagi yillarning hammasida kuzatiladi. Bunday holat ishlab chiqarish tarmoqlarini, xususan, ishlab chiqarish sanoati, tog'-kon sanoati, elektr, gaz bilan ta'minlash, turar-joy qurilishi, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holatdir. Ammo, bugungi kunda sanoatni samarali rivojlantirish bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjud. Ulardan asosiysi bu «asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy eskirishining yuqori darajasidir. (o'rtacha 50%)» [21]. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida, bunday holat sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik darajasining tushib ketishiga, moddiy xom ashyo resurslaridan samarasiz foydalanilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan «O'zbekiston-2030» strategiyasida asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash vazifasining belgilanganligi asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmini yanada oshirish

va asosiy fondlarni modernizatsiya qilish zarurligini taqozo etadi. O'z navbatida, YAIM hajmining o'sishi asosiy kapitalni yangilashga, texnik qayta qurollantirishga, zamonaviylashtirishga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay va ishonchli muhit yaratadi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2023 yilda 12,7 foizni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 14,8 foizli bandga kamaygan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga jami investitsiyalarning 87,3 foizi o'zlashtirilib, 2019 yilga nisbatan 14,8 foizli bandga ko'paygan (3-rasm).



3-rasm. Markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, foizda [22]

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan (4.INVESTISIYA VA QURILISH ISHLARI (1).pdf.).

Bunday holat, asosiy kapitalni moliyalashtirishda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hamda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida jalb qilingan mablag'lar ulushining qisqarib borayotganligini ko'rsatadi. Aksincha, bank kreditlari va qarz mablag'lari, korxona va aholi mablag'lari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan

xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi asosiy kapitalni moliyalashtirishda yuqori bo'lgan va dinamikada muntazam o'sib borish tendensiyasi kuzatilgan. 2023 yilda markazlashmagan manbalar hisobidan asosiy kapitalni moliyalashtirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (24%) va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlarning (23,4%) ulushi yuqori bo'lgan. Bu esa mamlakatimizda yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilganligi bilan xususiyatlanadi. Jumladan, Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 MVt bo'lgan yangi elektr stansiyasini qurish, 2021-2025 yillarda respublika neft-gaz hududlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, Toshkent viloyatida «Yoshlik 1» konini o'zlashtirish, 2020-2030 yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini oshirish dasturini amalga oshirish, Buxoro viloyatida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyasini qurish, Surxondaryo viloyatida gaz-kimyo kompleksini qurish, 2017-2023 yillarda uglevodorod xom ashyosi qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha Dastur, Samarqand viloyatida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish majmuini tashkil etish va shu kabilar.

2023 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati ustuvor bo'lib, yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish, sement ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik gaz ishlab chiqarishni tashkil etish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish majmuini qurish, paxta-to'qimachilik va agroklaster tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 100,6 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,6 foizi o'zlashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatning ishlab chiqarish sanoatini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanilishiga va

investitsiyaviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA.

1. Investitsiyalarning mazmuni va iqtisodiyotdagi roli uning funksiyalarida, xususiyatlarida, asosiy kapitalni yangilashdagi rolida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning funksiyalarini tasniflashda makro va mikroiqtisodiy jihatdan emas, balki barcha omillarni e'tiborga olgan holda umumdavlat, iqtisodiy, xususiy darajada tasniflash va tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

2. Davlat, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan foyda olish, ijtimoiy samaraga erishish, kapital qiymatini saqlash va jamg'armalarni ko'paytirish maqsadida risk asosida turli faoliyat obyektlariga kiritiladigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar investitsiyalar anglatadi. Investitsiyalarning tub mohiyati ana shu boyliklarning turli faoliyat obyektlariga kiritilishida, joylashtirilishida, harakatlanishida namoyon bo'ladi.

3. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar tarzida ifodalanadi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish barobarida, nafaqat, ishlab chiqarishning miqdoriy oshishini ta'minlaydi, balki sifati va raqobatbardoshligini ham oshiradi.

4. Bugungi kunda jami asosiy ishlab chiqarish fondlarining 50 foizi jismoniy jihatdan eskirgan bo'lib, bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligiga, sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda moddiy xom ashyo resurslaridan samarsiz foydalanilishiga olib keladi. Shuning uchun asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yanada oshirish, buning uchun YAIM hajmining o'sishini ta'minlash zarur bo'ladi.

5. Asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilish va samarali o'zlashtirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: strategik rejalashtirish (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning maqsad va vazifalari, bozor tahlili, mavjud aktivlarning holati va samaradorligi h.k.); moliyaviy baholash (biznes-reja tuzish va uning tahlili, investitsiyalarning qoplanishi tahlili, vaqt omilini hisobga olish va loyiha samaradorligini diskontlash

usullari asosida baholash, risklarni aniqlash va ta'sir doirasini baholash h.k.); moliyalashtirish manbalarini tanlash (ichki va tashqi manbalar, markazlashgan va markazlashmagan manbalar, davlat dasturlari, salohiyatli investorlarni jalb qilish va h.k.); investitsiyalarni samarali boshqarish, boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash va muntazam monitoring olib borish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 27 avgustdagi PQ-303-sonli «O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 15 maydagi [PQ-179-sonli «Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig'ilishi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori](#) Доклад о мировых инвестициях за 2023 год Инвестиции в устойчивую энергетику для всех ([unctad.org](#)). 2023 yilda xorijiy investitsiya oqimi 2022 yildagi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda juda kam o'sishni namoyon etdi ([aniq.uz](#)).
3. Доклад о мировых инвестициях за 2023 год Инвестиции в устойчивую энергетику для всех ([unctad.org](#)). 2023 yilda xorijiy investitsiya oqimi 2022 yildagi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda juda kam o'sishni namoyon etdi ([aniq.uz](#)).
4. Investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishning yaxlit mexanizmi ishga tushdi ([uza.uz](#))
5. Xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tmoqda ([sputniknews.uz](#)).
6. В ООН фиксируют снижение мирового объема прямых иностранных инвестиций ([kommersant.ru](#)).
7. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Пер. с 13-го англ. изд. – М.: ИНФРА-М, 1999. – 974 с.
8. Долан Э.Д., Дейвид Е. Линдсей. Рынок: микроэкономическая модель: [Пер. с англ.] / Эдвин Дж. Долан, Дэйвид Е. Линдсей. – СПб.: Печатный Двор, 1992. - 496 с.
9. Уильям Ф. Шарп, Гордон Дж. Александер, Джеффри В. Бэйли. Инвестиции. – М.: Инфра-М, 2001. – 1035 с.
10. Бирман Г., Шмидт С. Экономический анализ инвестиционных проектов / Г.Бирман, С.Шмидт; Пер. с англ. под ред. Л.П.Белых. – М.: Банки и биржи, 1997. - 631 с.
11. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – B. 761.
12. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – B. 26.
13. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 303.
14. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. «I» harfi. – T.: «O'ME» davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. – B. 145.
15. <https://lex.uz/docs/4664142>.

16. Юзвович Л.И. и др. Инвестиции и инвестиционная деятельность: учебник. Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский государственный экономический университет. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2021. – С. 21.
17. Уильям Ф. Шарп, Гордон Дж. Александер, Джеффри В. Бэйли. Инвестиции. – М.: Инфра-М, 2001. – С. 1035 с.
18. [Инвестиции как источник экономического роста - Введение в экономику \(studref.com\)](http://studref.com).
19. [Asosiy Fondlar haqida — U kim, bu nima — Qomus.INFO](http://qomus.info).
20. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan \(4.INVESTISIYA VA QURILISH ISHLARI \(1\).pdf\)](#).
21. [320358-устойчивое-развитие-промышленности-узбек-1ccd0817.pdf \(neliti.com\)](#).
22. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan \(4.INVESTISIYA VA QURILISH ISHLARI \(1\).pdf\)](#).

UO‘T 330.3(575.1)

Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna

Renessans ta’lim universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

diyorakhon2607@gmail.com

INVESTITSİYALAR TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

Холмуротова Диёрахан Ибрагимовна

Образовательный университет Ренессанс

ассистент кафедры «Экономика»

ПОНЯТИЕ ИНВЕСТИРОВАНИЯ И ЕГО ТЕОРЕТИКО- МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Xholmurotova Diyorakhan Ibragimovna

Renaissance Educational University

Assistant of the “Economics” department

THE CONCEPT OF INVESTMENT AND ITS THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Annotatsiya: Investitsiyalar iqtisodiy o‘shish va boylik yig‘ishda katta o‘rin tutadi, shu sababli ularning nazariy va metodologik aspektlarini chuqur tahlil qilish zarur. Maqolamizda investitsiyalarning ko‘p qirrali mohiyatini, iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi omil sifatida va shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar uchun moliyaviy rejalashtirishning muhim elementi sifatida o‘rganamiz.

Tayanch so‘zlar: Investitsion strategiyalar, Iqtisodiy siyosatning noaniqligi, Texnologik innovatsiyalar, Barqaror investitsiya, ESG mezonlari, miqdoriy tahlil, hatti harakat moliyasi.

Аннотация: Инвестиции играют важную роль в экономическом росте и накоплении богатства, поэтому необходимо глубоко проанализировать их теоретические и методологические аспекты. В нашей статье мы рассмотрим многогранный характер инвестиций как движущего фактора экономического развития, а также как важного элемента финансового планирования для физических и юридических лиц.

Ключевые слова: Инвестиционные стратегии, Неопределенность экономической политики, Технологические инновации, Устойчивые инвестиции, Критерии ESG, Количественный анализ, Линейные финансы.

Abstract: Investments play an important role in economic growth and wealth accumulation, so

it is necessary to analyze their theoretical and methodological aspects in depth. In our article, we will explore the multifaceted nature of investments as a driving factor for economic development and also as an important element of financial planning for individuals and legal entities.

Keywords: Investment strategies, Economic policy uncertainty, Technological innovation, Sustainable investment, ESG criteria, Quantitative analysis, Linear finance.

KIRISH

“Investitsiyalar iqtisodiyot va moliya manzarasida muhim rol o‘ynaydi, ular makroiqtisodiy barqarorlik hamda shaxsiy moliyaviy farovonlikka katta ta’sir ko‘rsatadi [1]. Kelajak uchun kutilayotgan daromadlarga ko‘ra resurslarni taqsimlashni o‘z ichiga olgan investitsiyalar faoliyati qimmatli qog‘ozlar xarididan tortib, jismoniy aktivlar uchun katta mablag‘ sarflashgacha bo‘lgan keng doirani qamrab oladi. Iqtisodiyotning o‘zgaruvchan paradigmalari, bozor dinamikalari va texnologik taraqqiyotlar asosida sarmoya tushunchasini chuqur o‘rganishga qaratilgan nazariy va metodologik yondashuvlar rivojlanmoqda [2].

Investitsiyalar nazariyasining yuragini tavakkalchilik va daromad tahlillari tashkil etadi, bu sohada keng miqyosda o‘rganilgan [3]. Effektiv bozor nazariyasi (EBN) va zamonaviy portfel nazariyasi (ZPN) kabi g‘oyalar investitsiyaviy faoliyatimiz va bozor muvozanatini tushunishimizda muhim rol o‘ynaydi [4]. Shuningdek, ekonometrik modellashirish va sun‘iy intellekt kabi metodologik yutuqlar investitsiya natijalarini tahlil qilish va prognoz qilish qobiliyatimizni yaxshiladi [5].

Soha o‘zgaruvchan bozor sharoitlari, qoidalarining o‘zgarishi va geosiyosiy voqealar kabi muammolar bilan kurashishda davom etmoqda [6]. Shu bilan birga, barqaror va javobgarona investitsiyalar sohasidagi o‘shish, investitsiya qarorlarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) mezonlarining oshib borayotgan ahamiyatini ko‘rsatib berdi [7].

Ushbu maqola investitsiyalar kontseptsiyasini chuqurroq tushunish, uning nazariy asoslarini va metodologik

yondashuvlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Biz investitsiya nazariyasi va amaliyotining rivojlanishini o‘rganib, investitsion qarorlar murakkabligini va ularning investorlar va siyosatchilar uchun oqibatlarini yoritib beramiz [8]. Adabiyotlarni to‘liq ko‘rib chiqish va joriy tendentsiyalarni tahlil qilish orqali, ushbu maqola doimiy o‘zgarib turadigan global moliyaviy manzarada samarali investitsiya strategiyalariga oid davom etayotgan munozaraga hissa qo‘shadi [9].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar kontseptsiyasi iqtisodiy nazariya va amaliyotda o‘shish, innovatsiyalar va boylik yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu adabiyot sharhi, mavjud tadqiqotlarni tanqidiy ko‘rib chiqib, investitsiyalarga oid nazariy asoslar, uslubiy yondashuvlar hamda tadqiqotlardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan [10]. Investitsiyalarning iqtisodiy nazariyasi, xususan investor kayfiyati va foiz stavkalarining ta’siri bilan bog‘liq dastlabki tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot, investitsiya faoliyatlari va ularning nazariy hamda metodologik asoslarini kengroq tushunish maqsadida, miqdoriy va sifat yondashuvlarini qo‘shib olgan aralash metodlar dizaynidan foydalanadi.

Ma’lumotlar yig‘ish:

- Miqdoriy Ma’lumotlar: Miqdoriy tahlillar uchun zarur bo‘lgan ikkinchi darajali ma’lumotlar nufuzli moliyaviy ma’lumotlar bazalaridan yig‘ilgan, jumladan Stat.uz, ochiq ma’lumotlar portali,

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining veb-saytlari va Jahon Bankining Jahon taraqqiyot ko'rsatkichlari. Ushbu ma'lumotlar to'plami 2000-2023 yillar oralig'idagi turli iqtisodiyotlarda kuzatilgan yillik investitsiya ko'rsatkichlari,

- Sifat Ma'lumotlari: 30 ta investitsiya sohasi mutahassislari bilan, jumladan portfel menejerlari, moliyaviy tahlilchilar va venchur kapitalistlari bilan yarim tuzilgan suhbatlar o'tkazildi. Ishtirokchilar keng ko'lamli istiqbollar va tajribalarni ta'minlash uchun maqsadli tanlab olinadi.

Ma'lumotlarni Tahlil Qilish:

- Miqdoriy Tahlil: Miqdoriy ma'lumotlar, potentsial endogenlik va avtokorrelyatsiya muammolarini hisobga olish maqsadida dinamik panel ma'lumotlar modellari yordamida tahlil qilindi.

Sifatli tahlil: Sifatli suhbatlar to'liq transkripsiya qilinib, mavzular bo'yicha tahlil yordamida tahlil qilingan.

Suhbatlar boshlanishidan avval, barcha ishtirokchilardan xabardor rozilik olindi. Ushbu tadqiqot etik me'yorlarga rioya qilishni ta'minlash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Institutsional Taqriz Kengashi (IRB) tomonidan tasdiqlangan.


NATIJA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotning natijalari oldingi bo'limlarda belgilab qo'yilgan nazariy va metodologik asoslarni hisobga olgan holda, miqdoriy va sifat ma'lumotlarining integratsiyalashgan tahlili orqali taqdim etiladi. Topilmalar, ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan asosiy mavzular atrofida shakllantirilgan bo'lib, bu mavzular investitsiya harakatlarining iqtisodiy va moliyaviy tizimlarga bo'lgan ta'sirini tushunishimizga yordam beradi.

Miqdoriy topilmalar:


Investition modellar va iqtisodiy siyosatdagi noaniqligi: Dinamik panel

ma'lumotlar modellari yordamida o'tkazilgan tahlillar, o'rganilayotgan iqtisodiyotlarda iqtisodiy siyosat noaniqligi bilan investitsiya darajalari o'rtasida muhim salbiy aloqani ko'rsatdi. Ushbu kuzatuv, noaniqlik ortishi bilan investitsiya faoliyatining kechiktirilishi yoki kamayishi mumkinligi gipotezasini qo'llab-quvvatlaydi¹.



Rasm 1. Iqtisodiy siyosat noaniqligining investitsiyalarga ta'siri (2010-2023)

Texnologik innovatsiyalarning ahamiyati: Tadqiqot natijalari texnologik innovatsiyalar va investitsiyalar o'rtasida ijobiy munosabatni tasdiqladi, ayniqsa, tezkor raqamli transformatsiyaga ega bo'lgan sohalarda. Tehnologiyaga asoslangan sohalarga qilingan sarmoyalar yuqori daromad olib kelishi kuzatilgan, bu esa texnologik rivojlanishlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.²



Rasm 2. Texnologik innovatsiyalarning investitsiyalarga ta'siri (2010-2023)

¹ Ma'lumotlar Stat.uz tomonidan olingan.

² Ma'lumotlar Stat.uz tomonidan olingan.

Foiz stavkalari va investitsiya harakatlari: Tadqiqot natijalari, neoklassik investitsiya nazariyalarini tasdiqlagan holda, past foiz stavkalari bilan yuqori darajadagi investitsiyalar oʻrtasida bogʻliqlikni aniqladi. Bu kuzatuv, pul-kredit siyosatining investitsiya harakatlarini shakllantirishdagi ahamiyatini koʻrsatadi va bu jarayon, iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlash maqsadida investitsiyalarni targʻib qilishda siyosatchilarga taʼsirchan vosita boʻlishi mumkin.

Sifatli Natijalar:

Investorlarning kayfiyati va bozor dinamikasi: suhbatlar davomida investitsion mutaxassislar investor kayfiyati va bozor dinamikasining sarmoyaviy qarorlarga taʼsirini muhim deb taʼkidladilar. Ishtirokchilar, bozor tendentsiyalari va investor kayfiyatining oʻz investitsiya strategiyalariga taʼsirini tez-tez muhokama qilishdi, bu omillar moliyaviy bozorlarda kuzatiladigan psixologik harakatlarni shakllantirishi mumkin. Bu kuzatuvlar, moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida psixologik omillarning chuqur taʼsirini yoritib beradi.

Raqamli transformatsiya	25	Raqamli texnologiyalar bor koʻrildi kabi ikkalasi ham qiyinchilik va imkoniyat , ochilish yangi sarmoya xiyobonlar .
-------------------------	----	--

Rivojlanayotgan bozorlardagi qiyinchiliklar: Investitsion mutaxassislar, rivojlanayotgan bozorlarda faoliyat yuritishda duch keladigan noyob qiyinchiliklar haqida xabar berishdi, jumladan siyosiy beqarorlik, tartibga solishdagi noaniqliklar va cheklangan kapitalga kirish imkoniyatlari. Bu kabi muammolar, rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan taqdim etiladigan xavflar va imkoniyatlar asosida moslashtirilgan investitsiya strategiyalarining zarurligini koʻrsatmoqda.

Barqaror va masʼuliyatli investitsiyalar: Suhbatlar orqali aniqlangan yana bir muhim tendentsiya - ESG mezonlarining investitsiya qarorlari qabul qilishda oshib borayotgan ahamiyati. Koʻpchilik ishtirokchilar barqaror va masʼuliyatli investitsiyalar nafaqat axloqiy meʼyorlarga mos kelishini, balki uzoq muddatli moliyaviy koʻrsatkichlarga ham hissa qoʻshishini taʼkidladilar. Bu, investitsiya paradigmalarning ijtimoiy va ekologik jihatdan yanada ongli yondashuvlarga oʻtishini koʻrsatadi.

Miqdoriy va sifatli tahlillardan olingan natijalar: Joriy investitsion manzara toʻgʻrisida toʻliq tushuncha beradi. Iqtisodiy siyosatdagi noaniqligining investitsiyalarga salbiy taʼsiri, tartibga soluvchi muhitning barqaror va bashorat qilinadigan boʻlishi zarurligini taʼkidlaydi. Boshqa tomondan, texnologik innovatsiyalar va investitsiyalar uchun qulay foiz stavkalari texnologiyaga asoslangan sektorlarda iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish imkoniyatlarini koʻrsatadi.

Sifatli tushunchalar: Bozor dinamikasi, investor psixologiyasi va rivojlanayotgan

3-jadval
Investitsiyaviy Qaror Omillari - Sifat Insaytlari

Mavzu	Chas-totasi	Kalit insaytlari
ESG mezonlari	22	Ortib bormoqda ahamiyati ESG mezonlari _ ichida sarmoya oʻzgarishlarni aks ettiruvchi qarorlar _ tomon barqaror investitsiya qilish .
Iqtisodiy siyosat - noaniqlik	18	Noaniqlik atrofdagi iqtisodiy siyosatlar sezilarli darajada taʼsir qiladi strategik sarmoya rejalashtirish .

bozorlarda ishlashning o'ziga xos muammolari kabi omillar, investitsiya qarorlarining murakkabligini ta'kidlaydi. ESG mezonlariga ortib borayotgan e'tibor nafaqat moliyaviy daromadlarni, balki ijtimoiy va atrof-muhitga ta'sirini ham qamrab oluvchi investitsiya muvaffaqiyatini kengroq tushunishni taklif qiladi.

Yakuniy mulohazalar: Natijalar bo'limi iqtisodiy siyosat, texnologik innovatsiyalar va bozor dinamikasi o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni sintez qiladi.

XULOSA

Bizning tadqiqotimiz, iqtisodiy siyosat noaniqligi, texnologik innovatsiyalar va ESG mezonlari kabi zamonaviy tendentsiyalar ta'sirida investitsiya qarorlarining murakkab dinamikasini chuqur tushunishga yordam beradi. Dinamik panel ma'lumotlar modellari va sifatli intervyularni birlashtirib, biz bu o'zgaruvchilar va investitsiya xatti-harakatlari o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni aniqladik. Ushbu munozara, topilmalarni tahlil qilish, ularni mavjud adabiyotlar doirasida kontekstlash va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ta'sirlar, cheklovlar va yo'llarni belgilashga qaratilgan.

Bu natijalar, investitsiyalar orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investor ishonchining ahamiyatini ta'kidlovchi klassik iqtisodiy nazariyalar bilan hamohangdir.

Investitsion mutaxassislar bilan suhbatlar orqali ESG mezonlarining investitsiya qarorlarini qabul qilishdagi ortib borayotgan ahamiyati aniqlandi. Bu tendentsiya, global moliyaviy manzarada barqaror investitsiyalarga o'tishni aks ettiradi, bu esa investorlar uchun uzoq muddatli qiymat va ijtimoiy afzalliklarni tobora ko'proq tan olishni anglatadi.

Tadqiqot natijalari, siyosatchilar va investorlar uchun turli xil foydali ma'lumotlarni taqdim etadi:

- **Siyosatchilar** uchun iqtisodiy siyosat noaniqligi va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik, barqaror va shaffof tartibga soluvchi muhitni saqlashni ta'kidlaydi.

- **Investorlar** uchun ESG mezonlariga e'tibor, barqaror va mas'uliyatli investitsiya amaliyotlariga o'tishni anglatadi, bu nafaqat xavflarni kamaytiradi, balki jamiyat qadriyatlari va uzoq muddatli barqarorlik maqsadlariga mos keladigan imkoniyatlardan foydalanadi.

Bizning tadqiqotimiz qimmatli fikrlarni taqdim etsa-da, ma'lumotlar mavjudligi va cheklangan intervyu soni bilan ba'zi cheklovlar mavjud. Kelajakdagi tadqiqotlar, turli investitsiya turlari va manbalarini chuqurroq tahlil qilish, shuningdek, sun'iy intellekt va blockchain kabi texnologiyalarning investitsiya manzaralariga ta'sirini o'rganish orqali global investitsiya dinamikasining murakkabligini to'liq qamrab olishi kerak.

Bizning tadqiqotimiz, iqtisodiy siyosat noaniqligi, texnologik innovatsiyalar va barqaror investitsiyalar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklar to'g'risida chuqur tushuncha taqdim etadi va investitsiya strategiyalari bo'yicha davom etayotgan munozaraga hissa qo'shadi. Ushbu muhim omillarni ta'kidlab, biz doimo o'zgarib turadigan global moliyaviy landshaftda investitsiya qarorlariga yanada strategik va xabardor yondashuvni qo'llab-quvvatlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hemerijck, A. (2017). The uses of social investment. Retrieved from <https://books.google.com>
2. Newman, A., Obschonka, M., Schwarz, S., Cohen, M., & ... (2019). Entrepreneurial self-efficacy: A systematic review of the literature on its theoretical foundations, measurement, antecedents, and outcomes, and an agenda for future research. *Journal of Vocational Behavior*, 110, Part B, 403-419. <https://doi.org/10.1016/j.jvb.2018.05.012>
3. Pererva, P., Kobieliyeva, T., Kuchinskyi, V., & ... (2021). Ensuring the sustainable development of an industrial enterprise on the principle of compliance-safety. *Studies of Applied Economics*, 39(1). Retrieved from <http://ojs.ual.es/ojs/index.php/eea/article/view/3869>
4. Dykha, M., Tanasiienko, N., & Galina, M.K.G. (2017). Ensuring of labor productivity growth in the context of investment and innovation activity intensification. *Problems and Perspectives in Management*, 15(3), 207-217. Retrieved from <https://www.cceol.com/search/article-detail?id=530143>
5. Ravitch, S.M., & Carl, N.M. (2019). *Qualitative research: Bridging the conceptual, theoretical, and methodological*. Sage Publications.
6. De Groot, A.D., & Spiekerman, J.A.A. (2020). *Methodology: Foundations of inference and research in the behavioral sciences*. Retrieved from <https://books.google.com>

UDK: 33:6;658.01

Achilova Shirin Shavkat qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Savdo ishi” kafedrasi dotsenti

**O‘ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR INNOVATSION
FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI:
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI VA KLASTER YONDASHUVLARI**

Ачилова Ширин Шавкатовна
Ташкентский государственный экономический
университет, доцент кафедры «Торговое дело»

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН УЗБЕКИСТАНА:
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО И КЛАСТЕРНЫЕ
ПОДХОДЫ**

Achilova Shirin Shavkatovna
Tashkent State University of Economics,
Associate Professor of the Department of “Trading Business”

**INSTITUTIONAL FACTORS OF MANAGING INNOVATION ACTIVITIES
OF THE FREE ECONOMIC ZONES OF UZBEKISTAN: PUBLIC-PRIVATE
PARTNERSHIP AND CLUSTER APPROACHES**

Annotatsiya. Maqolada EIZlar innovatsion faoliyatini boshqarish masalalari, muammolari, uning institutsional omillari, EIZlarni boshqarishning eng ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish klaster modeli yoritilgan, hamda O‘zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarini boshqarishni takomillashtirish va ularni rivojlanishini yangi innovatsion bosqichiga o‘tishini ta‘minlash masalalari muhokama qilingan.

Tayanch so‘zlar: EIZ, klaster, innovatsion faoliyat, boshqarish, institutsional omillar, EIZ direksiyasi, Ma‘muriy Kengash, davlat-xususiy sherikchiligi, investorlar, vakolat, innovatsion tizim.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы и проблемы управления инновационной деятельностью СЭЗ, ее институциональные факторы, кластерная модель, которая является одним из наиболее передовых направлений управления СЭЗ, обсуждены вопросы совершенствования управления свободными экономическими зонами в Узбекистане и обеспечения перехода их развития на новую инновационную ступень.

Ключевые слова: СЭЗ, кластер, инновационная деятельность, управление, институциональные факторы, дирекция СЭЗ, Административный совет, государственно-частное партнерство, инвесторы, власть, инновационная система.

Abstract. *The article considers the issues and problems of management of innovative activity of FEZ, its institutional factors, cluster model, which is one of the most advanced directions of FEZ management, discusses the issues of improving the management of free economic zones in Uzbekistan and ensuring the transition of their development to a new innovative level.*

Keywords: *FEZ, cluster, innovative activity, management, institutional factors, FEZ Directorate, Administrative Council, public-private partnership, investors, government, innovation system.*

KIRISH

Erkin iqtisodiy zonalar innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy dastaklaridan biri bo'lgani uchun ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, faoliyat yuritishi uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi yuksak ilmiy salohiyatga ega ekanligini inobatga olib, yetakchi ilmiy tashkilotlarning tajriba ishlanmalarini ishlab chiqarishga joriy etmoqda, bu esa kelajakda ushbu ishlanmalarni innovatsion raqobatbardosh mahsulotlarga aylantiradi. Lekin buning uchun bugungi kunda tegishli shart-sharoitlar yaratish, O'zbekiston innovatsion tizimini, jumladan, EIZni yanada rivojlantirish uchun asos bo'ladigan innovatsion infratuzilmani shakllantirish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiyotida raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda erkin iqtisodiy zonalarini boshqarish mexanizmini tartibga solish va takomillashtirish mamlakatning innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun tashqi savdoni rag'batlantirish, sanoat ishlab chiqarishi uchun investitsiyalar va kapitalni jalb qilishga qaratilgan samarali vositadir. Bularga misol tariqasida: Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va boshqarish muammolarining nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlardan Thomas Farole va Cokhan Akinci "Special Economiz zones"

[3], Matthieu DeClerq "Special economic zones as a tool for economic development" [4], Сиваш О.С. "Особые экономические зоны и их влияние на устойчивое развитие инвестиционного процесса". [5]; Шмонов, Н. Н. «Историческое исследование проблем развития особых экономических зон» [6]; Сиразетдинов Р.М., Салахиева Л.Р. «Особые экономические зоны как инструмент инновационного развития национальной экономики: эффективность, тенденции, проблемы и пути их решения» [7] kabi horijiy olimlarning izlanishlarini keltirish mumkin.

O'zbekistonda EIZlarning innovatsion faoliyatini boshqarish masalalariga quyidagi mahalliy olimlarning hissalari katta bo'ldi, ulardan Д.Н.Рахимова, С.И.Исмаилов "Свободные экономические зоны способствуют устойчивому инновационному развитию регионов Узбекистана." [8]; Каримкулов Ж.И. «Ўзбекистоннинг эркин иқтисодий зоналарни ташкил этиш ва ривожлантириш тенденциялари.» [9]; Ш.О.Шарифхўжаев, Л.М.Ташпулатова, Р.А.Джураева, М.Х.Вахидова, Ш.Ачилова. "Эркин иқтисодий худудлар базасида венчур молиялаштириш механизмини ишлаб чиқиш ва амалиётга тақлиф қилиш (хориж тажрибаси асосида)" [10] va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida EIZlarni innovatsion rivojlanish vositasi sifatida o'rganish, tendensiyalarni tahlil qilish va mavjud muammolar, ularni hal etish yo'llarida EIZlar faoliyatiga baho berishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar olib bordilar.

Biroq yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarning aksariyati EIZlarni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ularni hozirgi innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirishda alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish va takomillashtirishni taqozo qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ushbu sohani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, adabiyotlari tahlil qilindi. Ilmiy izlanish jarayonida umumlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, statistik ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonda 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunga muvofiq, EIZga quyidagicha ta'rif berilgan: "yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud" hisoblanadi.[1] Bugungi kunga kelib O'zbekiston EIZlarida quyidagi muammolar mavjud:

- investorlarni jalb etishda ularga yer maydonlari, bino va inshootlarni ajratishda, investitsion loyihalarni joylashtirishda direksiyalar vakolatlarining yo'qligi;

- tashqi iqtisodiy aylanmaning salbiy saldosi;

- EIZdagi korxonalar mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining kamligi;

- eksport hajmining pastligi;


- ishlab chiqarilgan mahsulotlarning past raqobatbardoshligi;

- eksportni asosan MDH mamlakatlariga yo'naltirilganligi;

- ishlab chiqarish diversifikatsiyasining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ushbu muammolarni yechish maqsadida Ma'muriy kengashga berilgan bir qator vakolatlarni EIZ direksiyalariga berish kerak. Ma'lumki, 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonun bo'yicha EIZ ma'muriy Kengash orqali boshqarilib, mahalliy hokimiyat va mutasaddi vazirliklarning vakillaridan tuziladigan kollegial organi bo'lib, Ma'muriy Kengash maqomi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, tegishli viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimi bo'lgan rais rahbarlik qilardi. Ma'muriy Kengash EIZ faoliyatini muvofiqlashtirish bilan shug'ullangan holda investitsiya loyihalarini ko'rib chiqish, zona ishtirokchilariga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berish to'g'risida qarorlar qabul qilish, muhandislik-kommunikatsiya va transport infratuzilmasi qurilishi bo'yicha loyihalarining o'z vaqtida amalga oshirilishini tashkil etish, direksiyaning yillik faoliyati bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqish hamda tasdiqlash vakolatlari berilishi ko'zda tutilgan edi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, istiqbolli loyiha takliflarini shakllantirish, loyihalarni amalga oshirishning barcha davrlarida sifatli tashkil etish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish, jumladan, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, obyektlarni ishga tushirish, zonalarning eksport imkoniyatlarini kengaytirish boshqaruvini samaradorligini oshirishda, xorijiy mamlakatlar tajribasidan

foydalangan holda EIZlarni boshqarishda Ma'muriy Kengashning vazifalarini direksiyaga topshirish zaruriyati tug'ildi. Shu maqsadda direksiyalarning zonalarni boshqarishdagi mustaqilligini oshirishda investitsiyalarni jalb qilish, investitsion loyihalarni ko'rib chiqish, tasdiqlash, EIZ ishtirokchilari uchun yer maydonlarini, bino va inshootlaridan foydalanish huquqini EIZlar direksiyasiga berish lozim.

O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarni boshqarishni takomillashtirish va ularni rivojlanishini yangi innovatsion bosqichiga o'tishini ta'minlash maqsadida EIZlarga oid normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishda quyidagi klaster modelidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:



1-rasm. EIZlarning klaster modeli¹

Yuqoridagi rasmga qaraydigan bo'lsak, EIZlardagi klasterlarni shakllantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishda, ularni xom ashyo bazasini, ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatini mexanizmlarini samarali faoliyat yuritishi uchun kompleks xududiy bozor infratuzilmasini takomillashtirishda, transport-logistika, sug'urta kompaniyalari va banklar, OTM va ilmiy muassasalar bilan, turli loyixalarni boshqarishda

konsalting tashkilotlari bilan hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan.

Klaster yondashuvi EIZlarni boshqarishning eng ilg'or yo'nalishlaridan biridir va klasterlarni shakllantirishda nafaqat bozorda xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida faol ishtirok etuvchi, balki uni nazorat qilish va tartibga solishni ham amalga oshiradigan davlat muhim rol o'ynaydi. Davlat xususiy sektor manfaatlarini inobatga olgan holda, klasterlarning xomashyo bazasini, ishlab chiqarish sanoatini, qayta ishlash sanoati mexanizmlarini samarali faoliyat yuritishi uchun kompleks hududiy bozor infratuzilmasini takomillashtirish dasturlarini yaratishda mazkur modelni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, klasterlarda innovatsion yondashuvni qo'llash EIZ rivojlanishining tabiiy bosqichi bo'lib, uning keng tarqalishini mamlakat iqtisodiy tizimining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishi, deb hisoblash mumkin.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda infratuzilma va innovatsion loyihalarni byudjetdan moliyalashtirish tuzilmasini o'zgartirish tendensiyasi kuzatilmoqda: davlat siyosatining ijtimoiy ahamiyatga ega sohalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, davlat-xususiy sherikchiligi (DXSh) va maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish xususiy kapitalni jalb qilish va uni muhim davlat muammolarini hal etishga yo'naltirishning eng maqbul yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat-xususiy sherikchilik institutini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda g'oyat muhim yo'nalish bo'lib, dunyo iqtisodiyotida infratuzilma loyihalarini, shu jumladan, EIZlar doirasidagi loyihalarni amalga oshirishda eng samarali yo'l sifatida qabul qilinmoqda. Jumladan: boshqaruvda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishdagi to'siqlarni bartaraf etishga, zamonaviy texnologik yechimlarni

¹ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzildi.

joriy etishga, davlat-xususiy sherikligidan foydalanishda davlat byudjeti yukini va davlat aralashuvini sezilarli darajada kamaytirishga, loyiha ishtirokchilari o'rtasida loyiha risklarini teng taqsimlashga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, DXSh – bu vakolatlar, risklar va mas'uliyatlarni taqsimlash asosida ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar yoki xizmatlarni bajarish maqsadida xususiy investor va davlat subyekti o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikdir. [2] Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati doirasida DXSh loyihalarini samarali amalga oshirish quyidagilarga imkon beradi:

- 1 DXSh ishtirokchilari uchun to'laonli ochiq bozorni yaratish
- 2 Boshqa mamlakatlar tajribasidan foydalanish
- 3 Yangi konsessiya (investorlar bilan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha shartnomalar) modellarni ishlab chiqish
- 4 Risklarni hisoblash tizimini takomillashtirish
- 5 DXSh loyihalarining hayotiylik davrini uzaytirish
- 6 DXShda ishtirok etish uchun pensiya va investitsiya fondlarini jalb qilish
- 7 DXShda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish

2-rasm. Davlat-xususiy sherikchiligining asosiy rivojlanish yo'nalishlari²

Yuqoridagilardan tashqari **davlat-xususiy sherikchiligining** yana boshqa rivojlanish yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin.

- noyob kompetensiyalar markazlarini yaratish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish;
- EIZ hududlariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish;
- korxonalar, tarmoqlar va hududlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni ta'minlash;
- O'zbekistonning innovatsion rivojlanish jarayonini tezlashtirish;
- O'zbekistonning jahon miqyosida yuqori texnologiyali va zamonaviy davlat sifatidagi mavqeiini mustahkamlash.

² Muallif ishlanmasi.

Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlanishidagi boshqaruv jihatlarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat Yevropa mamlakatlarida EIZlarni boshqarishda ko'pincha nodavlat tuzilmalar ishtirok etadi. Masalan, Litvada EIZni boshqarish tanlovda g'olib chiqqan boshqaruv kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi, unga a'zo etib Litva hukumati va zona tashkil etilgan hududning munitsipaliteti kengashidan tayinlanadi. Latviyada esa EIZ faoliyati boshqaruv kengashi tomonidan amalga oshiriladi, tegishli vazirliklarning uchta vakilidan tashqari, shahar kengashining uchta vakili va EIZning o'zidan uchta vakil kiradi. Niderlandiyadagi iqtisodiy zonalarini boshqarish jamoat huquqi kompaniyalariga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatga o'tkazilishi mumkin. Shunga o'xshash misollarni boshqa davlatlarning amaliyotida ham uchratish mumkin.

O'zbekistonda ham EIZlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, misol tariqasida, "Navoiy" EIZsini 2022-yilning 25-noyabrida imzolangan shartnomaga ko'ra dunyodagi eng yirik port operatorlaridan biri DP World (BAA) boshqaruviga topshirilganligini keltirib o'tish mumkin. Mazkur kompaniya 2005-yilda Dubai Ports Authority va Dubai Ports Internationalning birlashishi natijasida tashkil etilgan. Ushbu kompaniya xorijiy investorlar talablariga javob beradigan xalqaro huquqiy normalarni amalga oshirish, shuningdek, yirik ishlab chiqaruvchilarni jalb qilish bilan shug'ullanadi. Aeroportlarga xizmat ko'rsatuvchi yana bir Amirlik kompaniyasi – "Terminals Holding" Navoiy aeroportining yuk terminalini o'z qo'liga oldi. Kompaniyaning asosiy maqsadi "Navoiy" xalqaro aeroportining yuk aylanmasini oshirish va yirik yuk tashuvchi xablariga ulanishdan iborat. Bu hamkorlik O'zbekistonning asosiy 100 xalqaro transport

yo'laklari integratsiyalashuviga katta hissa qo'shadi va tranzit hajmini kamida 10 barobarga oshiradi.

XULOSA.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, EIZlarni boshqarishni takomillashtirish maqsadida direksiylarni boshqaruv jarayonidagi vakolatini kengaytirish hamda bu zonalarini boshqarish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan xorijiy kompaniyalarga O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ayrim EIZlar direksiylarining boshqaruv huquqlarini berishni zarur.

EIZlar hududidagi xo'jalik subyektlari o'rtasida sanoat va kooperatsiya aloqalari, logistika tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. EIZlar ishtirokchilari tomonidan raqobatbardosh, eksportbop va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ichki bozorni iste'mol tovarlari va butlovchi buyumlar bilan ta'minlash past darajada qolmoqda. EIZlarni boshqarishni takomillashtirish maqsadida direksiylarni boshqaruv jarayonidagi vakolatini kengaytirish hamda bu zonalarini boshqarish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan xorijiy kompaniyalarga O'zbekiston

Respublikasi hududida joylashgan ayrim EIZlar direksiylarining boshqaruv huquqlarini berish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, yer uchastkalarini investorlarga va tadbirkorlarga ijaraga berish huquqini EIZlar direksiya-sining o'ziga berilishi kerak.

Davlat xususiy sektor manfaatlarini inobatga olgan holda, klasterlarning xomashyo bazasini, ishlab chiqarish sanoatini, qayta ishlash sanoati mexanizmlarini samarali faoliyat yuritishi uchun kompleks hududiy bozor infratuzilmasini takomillashtirish dasturlarini yaratishda mazkur modelni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

EIZ hududida tashkil qilingan xo'jalik subyektlari o'rtasida sanoat va kooperatsiya aloqalari yetarli darajada emas, zarur logistika tizimi takomillashtirilmagan. Ushbu muammoni yechimi sifatida davlat xususiy sheriklik to'g'risidagi 2019-yildagi O'RQ-537-sonli Qonunga ularni vakolatlarini oshirish 105 bo'yicha o'zgartirishlar kiritishni, misol uchun chet el investorlari va firmalarini mahalliy tadbirkorlar bilan bevosita aloqalarni o'rnatish, ularning tashkiliy shakllarini takomillashtirishni ko'zda tutish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 17.02.2020-yildagi O'RQ-604-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xususiy sheriklik to'g'risida"gi 2019-yildagi 26-apreldagi O'RQ-537-sonli Qonuni.
3. Thomas Farole va Cokhan Akinci "Special Economiz zones" The World Bank, 2021, p21
4. Matthieu DeClerq "Special economic zones as a tool for economic development" 2018 OliverWyman publ.
5. Сиваш О.С. "Особые экономические зоны и их влияние на устойчивое развитие инвестиционного процесса". Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2018 - №4;
6. Шмонов, Н. Н. Историческое исследование проблем развития особых экономических зон / Н. Н. Шмонов. - Казань: Изд-во КГУКИ, 2010. - С. 156-16;

7. Сиразетдинов Р.М., Салахиева Л.Р. Особые экономические зоны как инструмент инновационного развития национальной экономики: эффективность, тенденции, проблемы и пути их решения // Российское предпринимательство. — 2016. — Т. 17. — № 21. — С. 2827–2836;
8. Д.Н.Рахимова, С.И.Исмаилов “Свободные экономические зоны способствуют устойчивому инновационному развитию регионов Узбекистана.” Науч.жур. “Globus” №10 (56) 2020, 43-45 стр;
9. Каримкулов Ж.И. Ўзбекистоннинг эркин иқтисодий зоналари ташкил этиш ва ривожлантириш тенденциялари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. №3, июнь 2019 йил;
10. Ш.О.Шарифхўжаев, Л.М.Ташпулатова, Р.А.Джураева, М.Х.Вахидова, Ш.Ачилова. Эркин иқтисодий ҳудудлар базасида венчур молиялаштириш механизмини ишлаб чиқиш ва амалиётга тақлиф қилиш (хориж тажрибаси асосида)./ Монография. Тошкент. “IQTISODIYOT”, 2021, 240-б.

UO‘T 334.75

Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Savdo ishi” kafedrası professori, PhD.
Email: sanjarsobirjon@gmail.com

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Собиржанов Санжар Собиржанович,
Ташкентский государственный
экономический университет профессор кафедры,
«Торговый дело», PhD.
Email: sanjarsobirjon@gmail.com

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ СУБЪЕКТОВ

Sobirjanov Sanjar Sobirjanovich,
Tashkent State economics university
professor of department,
“Trading business”, PhD.
Email: sanjarsobirjon@gmail.com

POSSIBILITIES OF USING DIGITAL PLATFORMS IN THE ACTIVITIES OF BUSINESS ENTITIES

Аннотация: Mazkur maqolada raqamli platformalardan foydalanishning tadbirkorlik faoliyatidagi ijobiy ta'sirlarini yoritish bilan birga, bu sohada mavjud muammolar va ularni yechimlari borasida amaliy takliflar berilgan. Raqamli platformalarning keng qo'llanilishi va texnologik yangilanishlar natijasida biznes modellarini o'zgarishi va biznesning bozordagi raqobatbardoshligiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Raqamli platformalar, tadbirkorlik subyektlari, biznes modellari, raqamlashtirish, innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish, mijozlar bilan muloqot, texnologik transformatsiya, bozorga kirish strategiyalari, jarayonlarni avtomatlashtirish, elektron tijorat, bozor tadqiqotlari, raqamli marketing, startaplar.

Аннотация: В данной статье освещены положительные эффекты использования цифровых платформ в предпринимательской деятельности, а также даны практические предложения относительно существующих проблем в этой сфере и их решения. Анализируется, как широкое использование цифровых платформ и технологических инноваций изменит бизнес-модели и повлияет на конкурентоспособность бизнеса на рынке.

Ключевые слова: Цифровые платформы, предпринимательство, бизнес-модели, цифровизация, инновации, производительность, взаимодействие с клиентами, технологическая трансформация, стратегии выхода на рынок, автоматизация процессов, электронная коммерция, исследования рынка, цифровой маркетинг, стартапы

Abstract: This article highlights the positive effects of the use of digital platforms in business activities, as well as practical suggestions regarding existing problems in this area and their solutions. It is analyzed how the widespread use of digital platforms and technological innovations will change business models and affect the competitiveness of businesses in the market.

Keywords: Digital platforms, entrepreneurship, business models, digitization, innovation, productivity, customer engagement, technological transformation, go-to-market strategies, process automation, e-commerce, market research, digital marketing, startups

Kirish

Bugungi global iqtisodiyotda raqamli platformalar tadbirkorlik muhitini tubdan o'zgartirmoqda. Ular biznes modellarni innovatsiya qilish, yangi bozor segmentlariga kirish va mijozlar bilan muloqot qilish usullarini osonlashtiradi. Shuningdek, raqamli platformalar nafaqat katta korporatsiyalar, balki kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Bu borada yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning "O'zbekistonda faqat raqamlashtirish orqali tannarxni tushirish mumkinligi"ni ta'kidlaganliklari ham bejizga emas [1]. Bu esa o'z navbatida, moliyaviy menejmentning an'anaviy uslublariidan tubdan farq qiladigan raqamli uslublarni joriy etishni talab qilsa, bir vaqtning o'zida bugungi kundagi tovar hamda xizmatlarning sifat va tannarxini belgilashda bozor munosabatlariga muvofiq tarzda amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

So'ngi statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 62,5 %i internetdan foydalanadi, Kepios raqamli konsalting firmasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari esa, qariyb besh milliard odam yoki dunyo aholisining 60 %dan ortig'i ijtimoiy tarmoqlarning faol foydalanuvchisi hisoblanadi [2] 2022-yildan buyon ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 3,7 %ga oshgan va odamlarning ijtimoiy

tarmoqlarda o'tkazadigan vaqti ham oshib, kuniga o'rtacha 2 soat 26 daqiqani tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy biznes landshaftida yuqori ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Raqamli platformalar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Olimlar va tahlilchilar bu borada turli tadqiqotlar olib borishgan va ularning natijalari raqamli texnologiyalarning tadbirkorlikdagi ahamiyatini yoritib beradi.

Porter va Heppelmann 2014 yilgi tadqiqotlarida raqamli platformalarning mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishdagi rolini o'rganib, raqamli texnologiyalarning biznes modelini qanday o'zgartirishi mumkinligini tahlil qilganlar [3].

Chaffey va Ellis-Chadwicklar «Digital Marketing» kitobida raqamli marketing va elektron tijorat platformalarining tadbirkorlikdagi rolini muhokama qilishadi. Ushbu kitobda raqamli marketing vositalaridan foydalanish orqali biznesning mijozlar bazasini qanday kengaytirishi mumkinligi haqida tushunchalar berilgan [4].

Brynjolfsson va McAfee «The Second Machine Age» asarida texnologiyalarning iqtisodiyotga ta'sirini keng miqyosda o'rganishadi. Raqamli platformalar, ularning innovatsion salohiyati va iqtisodiyotdagi

o'zgarishlarga qanday turtki berishi mumkinligini tahlil qiladilar [5].

Kotler va Keller o'zlarining «Marketing Management» kitobida raqamli platformalarning brendni boshqarish va mijozlar bilan muloqot qilishdagi rolini tushuntiradilar. Ular raqamli platformalardan foydalanish orqali biznesning bozordagi mavqei va mijozlar bilan aloqalarini qanday yaxshilash mumkinligini ko'rsatib beradilar [6].

Shoshana Zuboffning «The Age of Surveillance Capitalism» kitobi raqamli platformalarning ma'lumotlarni qayta ishlash va foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali qanday qilib yangi iqtisodiy qiymat yaratish, va bu ma'lumotlarni iqtisodiy manfaatlar uchun qayta ishlash orqali foyda olish jarayonini tahlil qiladi [7].

Osterwalder va Pigneur «Business Model Generation» kitobi raqamli platformalarning biznes modellarini qanday innovatsiya qilishga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi. Mualliflar raqamli platformalardan foydalanish orqali yangi daromad manbalarini qanday yaratish va biznes tuzilmalarini qanday optimallashtirish mumkinligini tahlil qiladilar. [8]

Annabelle Gawer «Platform Dynamics and Strategies» asarida raqamli platformalarning sanoat tuzilmalariga ta'siri va platforma asosidagi biznes strategiyalarining rivojlanishini hamda ulardan maksimal darajada foydalanish mumkinligini o'rganadi [9].

Van Alstyne, Parker va Choudarilar «Platform Revolution» kitobida raqamli platformalarning iqtisodiyotni qayta shakllantirishdagi rolini tahlil qilishadi. Bu asar raqamli platformalarni qo'llash orqali bozorlarni qanday boshqarish va tadbirkor uchun qanday yangi imkoniyatlar yaratish mumkinligini o'rganadi [10].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida nazariy va amaliy o'rganish, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez kabi uslublar va yondoshuvlardan foydalanilgan.

Natija va muhokama

Tadqiqotlar doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli marketingdan foydalanishning o'ziga xos tomonlarini tahlil etishda muallif tomonidan aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tanlab olindi. Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasiga ko'ra, yirik korxonalar o'z faoliyatida raqamli marketing imkoniyatlaridan foydalanish potensialiga ega hamda o'z amaliyotlari doirasida uning afzalliklaridan yetarlicha xabardordir. Kichik biznes vakillari esa bu borada nisbatan orqada deya olamiz [11], ya'ni, hozirda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli marketingdan foydalanish imkoniyatlari borasida bir qancha muammolar mavjud bo'lib, aynan bu kabi masalalarni o'rganib tahlil etish asosida, birinchi, e'tibor qaratiladigan jihat bu Internetning cheksiz qamrov darajasi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish holatidir. «Microsoft» kompaniyasi asoschisi Bill Geyts aytganidek, «Agar siz ijtimoiy tarmoqda faol bo'lmasangiz, demak, siz biznes qilmayapsiz» [12]. Ya'ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari marketing faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari hamda subyektlarning raqamli marketing tendensiyalarini o'z faoliyatlariga joriy etishning samarali yechimi sifatida, birinchi navbatda, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi va imkoniyatlari deb hisoblaymiz.

1-jadval

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari (foizda)¹

Davlat	Faol qatnashchilar	13 yoshdan yuqori qatnashchilar	Ayollar	Erkaklar
AQSh	87,90%	98,70%	54,70%	45,30%
Buyuk Britaniya	84,30%	99,40%	53,80%	46,20%
Germaniya	93,10%	98,70%	50,60%	49,40%
Rossiya	72,70%	86,80%	54,80%	45,20%
Qozog'iston	72,30%	97,10%	56,00%	44,00%
O'zbekiston	18,30%	24,40%	35,00%	65,00%

2-jadval

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari (foizda)²

Davlat	Facebook	Twitter	Pinterst	Instagram	Youtube
AQSh	66,72	10,99	12,19	5,92	1,60
Buyuk Britaniya	55,6	23,46	5,90	8,30	2,42
Germaniya	71,43	5,27	7,84	4,28	3,03
Rossiya	14,93	10,48	15,51	15,37	14,63
Qozog'iston	13,4	7,64	24,09	12,04	24,17
O'zbekiston	23,77	4,06	28,77	12,37	24,17

1 datareportal.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

2 datareportal.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Yuqoridagi 1-jadvalda Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, AQShda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilar 270,1 mlnni tashkil etib, faol ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar 87,9 %ni, 13 yoshdan yuqorilar 98,7 %ni, ayollar 54,7 %ni erkaklar esa 45,3 %ni, Buyuk Britaniyada 57,60 mln ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar mavjud bo'lib, ulardan 84,3 % faol foydalanuvchilar, 13 yoshdan yuqorilar 99,4 %, ayollar 53,8 %ni, erkaklar esa 46,2 %ni tashkil etadi, Germaniyada ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar 72,60 mlnni tashkil etib, faol ishtirok etuvchilar 93,1 %, 13 yoshdan yuqori foydalanuvchilar 98,7 %, ayollar 50,6 %, erkaklar 49,4 %ni tashkil etmoqda. Rossiyada ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar 106,0 mln, faol ishtirok etuvchilar 72,7 %, 13 yoshdan yuqorilar 86,8 %, ayollar 54,8 %, erkaklar 45,2 %ni tashkil etadi. Qozog'istonda ijtimoiy tarmoqlardan

foydalanuvchilar 13,80 mlnni tashkil etib, faol ishtirok etuvchilar 72,3 %, 13 yoshdan yuqorilar 97,1 %, ayollar 56,0 %, erkaklar 44,0 % tashkil etadi. O'zbekistonda Ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar 6,25 mlnni tashkil etmoqda, faol ishtirokchilar 18,3 %ni, 13 yoshdan yuqori 24,4 %ni, ayollar 35,0 %ni, erkaklar 65,0 %ni tashkil etmoqda.

Yuqorida keltirilgan 2-jadvalda AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Twitter, Pinterst, Instagram va Youtube)dan foydalanish holati keltirilgan bo'lib, AQShda Facebookdan 66,72 %, Twitterdan 10,99 %, Pinterstdan 12,19 %, Instagramdan 5,92 % va Yutubedan 1,60 % foydalanuvchi, Buyuk Britaniyada Facebookdan 55,60 %, Twitterdan 23,46 %, Pinterstdan 5,90 %, Instagramdan 8,30 % va Yutubedan 2,42 % foydalanuvchi, Germaniyada Facebookdan 71,43 %, Twitterdan 5,27 %, Pinterstdan 7,84 %,

3-jadval

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari (foizda)¹

Davlat	Reddit	Tumblr	LinkedIn	Vkontakte	Boshqa
AQSh	1,62	0,39	0,36	0,0	0,20
Buyuk Britaniya	2,52	0,65	0,87	0,04	0,24
Germaniya	2,07	5,23	0,50	0,13	0,23
Rossiya	3,56	2,96	0,30	21,91	0,35
Qozog'iston	3,06	2,14	0,58	12,72	0,16
O'zbekiston	3,34	1,70	0,40	1,12	0,30

4-jadval

O'zbekistonda tadbirkorlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish holati (foizda)²

Ijtimoiy tarmoq	Foydalanuvchilar (mln)	Reklama qo'yib boruvchilar	13 yoshdan yuqori foydalanuvchilar	Ayollar	Erkaklar
Facebook	1,5	4,50%	6,10%	32,90%	67,10%
Twitter	0,29	0,08%	0,10%	-	-
Messenger	0,557	1,60%	2,20%	34,80%	65,20%
LinkedIn	0,35	1,40%	1,50%	32,50%	67,50%
Instagram	4,80	14,10%	18,80%	34,40%	65,60%

¹ dataportal.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

² dataportal.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Instagramdan 4,28 % va Yutubedan 3,03 % foydalanuvchi, Rossiyada Facebookdan 14,93 %, Twitterdan 10,48 %, Pinterstdan 15,51 %, Instagramdan 15,37 % va Yutubedan 14,63 % foydalanuvchi, Qozog'istonda Facebookdan 13,40 %, Twitterdan 7,64 %, Pinterstdan 24,09 %, Instagramdan 12,04 % va Yutubedan 24,17 % foydalanuvchi va O'zbekistonda Facebookdan 23,77 %, Twitterdan 4,06 %, Pinterstdan 28,77 %, Instagramdan 12,37 % va Yutubedan 24,17 % foydalanuvchilar foydalanib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan 3-jadvalda ham AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan (Reddit, Tumblr, LinkedIn, Vkontakte va boshqalar) foydalanish holati keltirilgan bo'lib, Aqshda Redditdan 1,62 %, Tumblrdan 0,39 %, Linkedin 0,36 %, Vkontaktedan 0 % va boshqalar 0,20 %ni tashkil etmoqda. Buyuk Britaniyada

Redditdan foydalanish 2,52 %, Tumblrdan 0,65 %, LinkedIn 0,87 %, Vkontaktedan 0,04 % va boshqalar 0,24 %ni tashkil etgan, Germaniyada Redditdan 2,07 %, Tumblrdan 5,23 %, Linkedin 0,50 %, Vkontaktedan 0,13 % va boshqalar 0,23 %ni, Rossiyada Redditdan 3,56 %, Tumberdan 2,96 %, Linkedin 0,30 %, Vkontaktedan 21,91 % va boshqalar 0,35 %ni, Qozog'istonda Redditdan foydalanish 3,06 %, Tumblrdan 2,14 %, Linkedin 0,58 %, Vkontaktedan 12,72 % va boshqalar 0,16 %ni va O'zbekistonda Redditdan 3,34 %, Tumblr 1,70 %, LinkedIn 0,40 %, Vkontakte 1,12 % va boshqalar 0,30 %ni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi 4-jadvalda O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar holati keltirilgan bo'lib, tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy tarmoqdan o'z faoliyatlarida foydalanishda Instagram platformasi yetakchilik qilayotganligini

ko'rishimiz mumkin. Biroq 14,10 % ko'rsatkich raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli mediadan foydalanishning achinarli holatda ekanligidan dalolatdir. Social media advertising and marketing worldwide ekspertlarining fikricha, marketologlarning 76,0 %i Instragramdan foydalanishi hamda butun dunyo bo'ylab tadbirkorlarning 62,0 %i kelajakda instragramdan foydalanishni oshirishlarini aytishganligi³ ijtimoiy platformalarning istiqboldagi o'rni g'oyatda ahamiyatli ekanligini anglatadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Facebook ijtimoiy tarmog'ida erkak foydalanuvchilar ayollarga nisbatan ikki barobar ko'p ulushga ega bo'lib, reklama qo'yib boruvchilar foizi nisbatan yuqori. Bu Facebookning reklama platformasi sifatida ommabopligini ko'rsatadi.

Twitterda esa foydalanuvchilar soni nisbatan kam, shuningdek reklama qo'yuvchilar va 13 yoshdan yuqori foydalanuvchilar soni ham juda oz miqdorni tashkil etadi. Messenger ham asosan erkaklar orasida ommabop platforma sanalib, 13 yoshdan yuqori foydalanuvchilar asosan muloqot yuritish maqsadida tashrif buyurishadi.

LinkedIn professional tarmoq sifatida erkaklar orasida ko'proq mashhur. Reklama qo'yuvchilar ulushining katta qismi kasbiy auditoriya uchun mo'ljallanganligini ko'rsatadi.

Instagram eng ko'p foydalanuvchiga ega ijtimoiy tarmoq bo'lib, ayollar va erkaklar ulushi boshqa tarmoqlarga qaraganda deyarli teng. Reklama qo'yuvchilar va 13 yoshdan yuqori foydalanuvchilar ulushi juda yuqoriligi tarmoqning ommabopligini ko'rsatadi.

Demak, Instagram va Facebook yuqori reklama qo'yib boruvchilar ulushiga egaligi,

ularning marketing va brending uchun juda mos keluvchi platformalar ekanligini ko'rsatadi. LinkedIn va Facebook, Messenger reklama qo'yib boruvchilar o'rtasida ommabop sanalib, ushbu tarmoqlarni turli maqsadlarda ishlatilishini ko'rsatadi. LinkedIn, asosan, biznes va professional aloqalar uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanuvchilar o'zlarining kasbiy tarmoqlarini kengaytirish, yangi ish imkoniyatlarini topish va sohaga oid yangiliklarni kuzatib borish uchun ishlatadilar. Shuningdek, LinkedInda korporativ brendlarni targ'ib qilish va professional mahsulotlar yoki xizmatlarni reklama qilish imkoniyatlari ham mavjud.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'z biznesini rivojlantirish va professional aloqalarni mustahkamlash uchun LinkedIndan foydalanishlari mumkin. Shuningdek, mahsulot yoki xizmatlarni kengroq auditoriyaga targ'ib qilish uchun Instagram va Facebook kabi platformalardan foydalanish tavsiya etilib, ushbu platformalar yordamida tadbirkorlar nafaqat kattalar, balki turli yoshdagi iste'molchilar bilan ham qayta aloqa o'rnatishlari mumkin.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot raqamli platformalarning tadbirkorlik subyektlari uchun yaratiladigan yangi imkoniyatlarni va ularning faoliyatini samarali boshqarishdagi o'rnini ochib berdi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida, tadbirkorlar o'z biznes modellarini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy talablarga moslashtirish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Bozorga kirishning soddalashtirish, xaridorlar bilan aloqalarning kuchayishi va jarayonlarning avtomatlashtirilishi tadbirkorlar uchun katta afzalliklar yaratadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida paydo bo'ladigan muammolar va xatarlarni ham inobatga olish muhimdir. Raqamli texnologiyalarning

³ <https://www.statista.com/statistics/258974/future-use-of-social-media-marketers-worldwide-by-platform/>

samaradorligini oshirish uchun tadbirkorlik subyektlari doimiy ravishda innovatsiyalar va yangi bilimlarni o'zlashtirishlari lozim. Shu

tariqa, raqamli platformalardan foydalanish tadbirkorlikni yangi bosqichga olib chiqib, raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://daryo.uz/2023/12/20/ozbekistonda-faqat-raqamlashtirish-orqali-tannarxni-tushirish-mumkinligi-aytili>
2. <https://www.interfax.ru/world/912624>
3. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How Smart, Connected Products are Transforming Competition. Harvard Business Review.
4. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing. Pearson Education.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company.
6. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson Education.
7. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. Public Affairs.
8. Osterwalder, A., & Pigneur, Y. (2010). Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers. John Wiley & Sons.
9. Gawer, A. (2014). Platform Dynamics and Strategies. In A. Gawer (Ed.), Platforms, Markets and Innovation (pp. 45–76). Edward Elgar Publishing.
10. Van Alstyne, M., Parker, G., & Choudary, S. P. (2016). Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy and How to Make Them Work for You. W.W. Norton & Company.
11. <https://docs.google.com/forms/d/1iMX30OsaN5RcRJY6LpMRIL9gUdIQNoIK68FmVolQ8/edit#responses>
12. <https://www.facebook.com/bizstart.uz/photos/microsoft-kompaniyasi-asoschisi-bill-gates-aytganidek-agar-sizning-biznesingiz-i/857676761022235/>

UO‘T

Odilova Feruza Odilovna.

*Jizzax shahar 3–sonli umumiy o‘rta
ta’lim maktabi o‘qituvchisi
E-mail feruaodilova @ bk.ru.*

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KASB-HUNAR TA’LIMI BITIRUVCHILARINING O’RNI

Одилова Феруза Одиловна

*Учительница средняя общеобразовательная
школа № 3 г. Джизака
E-mail feruaodilova @ bk.ru.*

РОЛЬ ВЫПУСКНИКОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Odilova Feruza Odilovna.

*Jizzakh City No. 3 General middle
School of education teacher
E-mail feruaodilova @ bk.ru.*

THE ROLE OF GRADUATES OF PROFESSIONAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, unda kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining ishtiroki masalalari o‘rganilgan. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining ish bilan ta’minlashni boshqarish tizimi, ularning kasbiy layoqatlari va raqobatbardoshliklarini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiya va takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar: kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik, kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarining bandligi, mehnat sharoiti, istiqboldagi chora-tadbirlar.

Аннотация: В статье рассматривается развитие малого бизнеса и предпринимательства, участие в нем выпускников профессионального образования. Даны практические рекомендации и предложения по системе управления трудоустройством выпускников профессионального образования, выходящих на рынок труда, повышения их профессиональных способностей и конкурентоспособности.

Ключевые слова: малый бизнес и семейное предпринимательство, трудоустройство выпускников профессионального образования, условия труда, будущие меры.

Abstract: The article discusses the development of small business and entrepreneurship, the participation of graduates of vocational education in it. Practical recommendations and

suggestions are given on the employment management system for graduates of vocational education entering the labor market, improving their professional abilities and competitiveness.

Keywords: *small business and family entrepreneurship, employment of graduates of vocational education, working conditions, future measures.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi aholining ma'naviy yuksalishi va moddiy farovonligini oshirishga qaratilganligini e'tiborga olib, yaqin kelajakda aholining ish bilan unumli bandligini ta'minlash hozirgi vaqtda davlat va jamiyat oldida hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu borada ayniqsa kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining mehnat bozoriga moslashishi va ish bilan bandligi, ularning raqobatbardoshligini oshirishni kompleks tadqiq etish talab etiladi, bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligi yanada oshiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida quyidagilar asosiy G'oyalar sifatida aks ettirilgan - "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash"[1]. Mazkur strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishishda mehnat bozoriga birinchi bor kelgan kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, mustaqil fikrlaydigan, motivatsion salohiyati yuqori mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim muassasalari bilan korxonalar o'rtasidagi

o'zaro munosabatlarni tartibga solish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda iqtisodiyotning barcha sohalarida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bir qator dasturiy yo'nalishlar bitiruvchilar orasida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy sharoitlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi ortib bormoqda, u iqtisodiyotdagi etakchi kuchga aylanib, bozorlarimizni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, aholi daromadi va farovonligini oshirishning asosiy manbai, ish bilan ta'minlash bilan bo'g'liq muammolarni hal etishning muhim omiliga aylanayotgani alohida ahamiyat kasb etadi

Hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investision loyihani ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil qilinishiga erishish belgilanganligi mazkur masalaning ahamiyati yuqoriligini anglatadi [2]. Har bir oilaning tadbirkorlik bilan hug'ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizning har bir tuman va shahrida, eng avvalo, olis, tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan "Har bir oila-tadbirkor" Dasturi amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi demografik tarkibida yoshlar ulushi yuqori bo'lib, 2023 yil 1 yanvar holatiga respublika bo'yicha yoshlar (14-30 yosh) soni 9 654 351 kishi tashkil etib, jami aholining 26,8

foiziga teng [3]. Har yili mamlakatimiz aholisining 900 mingdan ortiq nafarga ko'payib borayotganligi yoshlarning ish bilan bandligi, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish va tadbirkorlikda mehnat munosabatlarini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ushbu vazifaning nazariy-metodologik jihatdan asoslash, uni tahlil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashning strategik yo'nalishlarini aniqlashga shu boisdan ham jiddiy zaruriyat tug'ildi. Ushbu muammoning hozirgi paytdagi yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va hali yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida jadal olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida mehnatga layoqatli aholi orasida samarali ish bilan bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan mutlaqo yangi tizim shakllandi. Jumladan, "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan "mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko'maklashish va o'qitish markazlari, tadbirkorlik ob'ektlari kabi infratuzilmani yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish" [4] kabi vazifalarning ijrosi o'z natijasini bermiqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Olimlarning fikricha "Mehnat bozori oqibatlari keltirib chiqarayotgan muammolarni tadqiq etish, ularni hal etish yo'llarini aniqlash, mehnat bozorini tartibga solish va samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishsizlik ko'rsatkichlarining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaruvchi omilga aylanmoqda. Ayniqsa yoshlar o'rtasida mazkur ko'rsatkichning yuqori ekanligi ayrim davlatlarda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy vaziyatning ham keskinlashuviga olib kelmoqda" [5,94].

Shu jihatdan, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida yoshlarning ish bilan ta'minlash muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda, bu ko'p jihatdan O'zbekistonning aholi tarkibiga ko'ra yoshlar mamlakati qatoriga kirishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi yoshlarni ish bilan ta'minlashda samarali iqtisodiy mexanizmlarning faol qo'llanilishi ular o'rtasidagi ishsizlikni kamaytirishga sezilarli ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilmaslik tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi va davlat organlarining birinchi

darajali vazifasi etib belgilangan. Banklarning tadbirkorlik sub'yektlariga xizmat ko'rsatishini yaxshilash va ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish masalasiga ham e'tibor qaratildi [6]. Shu maqsadda:

bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, davlat organlari tomonidan tijorat banklari faoliyatiga, birinchi navbatda, kredit siyosatiga ma'muriy aralashuvlarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik;

bankning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi g'ovlarni tugatish, shuningdek, mijozlarning o'z pul mablag'larini erkin tasarruf etish huquqi to'liq ro'yobga chiqarilishini ta'minlash belgilab berilgan.

Akademik Q.X.Abduraxmonovning e'tirof etishicha "Mamlakatda faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratilib innovatsion 'goyalar va texnologiyalarni joriy qilish, tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlari va ular faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish mexanizmlari takomillashtirilmoqda"[7,475]. Bu fikrni davom ettirgan olimlar esa "Tadbirkorlik layoqati iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish xo'jalik faoliyatiga resurslarni jalb qilish, ishlab chiqarish omillarini samarali uyg'unlashtirish hamda marketing va menejment sohalarida amalga oshiriladigan o'ziga xos noyob qobiliyat, talant, to'plangan tajriba va ko'nikmalardir" [8,36] mazkur ko'nikmani hosil qilish mexanizmlarining iqtisodiy vositalari tadbirkorlikka motivasion boshqarishga asos bo'ladi deb hisoblay ilar.

Demak, yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda qayd qilish lozimki, innovatsion islohotlar sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiyot o'sishining asosiy poydevori hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotdagi islohotlar jarayoni ishlab chiqarish tarkibining ma'lum

darajadagi nisbati faoliyat turini tanlashga, bozordagi o'zgarishlarga tezlik bilan o'z faoliyatini tashkil etishga moyillikni shakllantirib boradi. Shu o'rinda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy jihatlarini siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qilishi, mehnatga layoqatli kishilarning ish bilan band bo'lishlaridagi qulayligi, ayniqsa yoshlar orasida iqtisodiy jihatdan kamol topishga yo'naltirish nuqtai nazaridan o'ziga xos o'rin egallaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida tadbirkorlikda mehnat munosabatlarining tashkil qilinishi, unda kasb-hunar ta'limi tizimi bitiruvchilarning ish bilan bandligining o'ziga xos xususiyatlari, yoshlar orasida samarali bandlikni oshirishga erishish va bu boradagi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning o'zaro aloqadorligini aniqlash bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, guruhlash, социологик co'pовнома usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mehnat bozorida kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari uchun ish joylari samaradorligiga ta'sir etuvchi, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy mexanizmlar bevosita ishchi kuchiga talab va taklifning o'zgarishi nuqati-nazaridan tadqiq qilinishi maqsadga muvofiq, шу o'rinda mehnat bozorini kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashni boshqarish mexanizmi куйидаги жадвалда гурухланди (1-jadval).

1-jadval

Mehnat bozorini kasb-hunar ta’limi bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashni boshqarish mexanizmi

Boshqarish mexanizmi turlari	Boshqarish mexanizmining vazifalari
Iqtisodiy	Kasb-hunar ta’limi bitiruvchilari uchun mo’ljallangan ish bilan ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish
	Kichik biznesni va o’z-o’zini ish bilan bandligini rag’batlantirish
	Yoshlarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish va yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish
Ijtimoiy	Yoshlarini kasbga yo’naltirish va psixologik qo’llab-quvvatlash bo’yicha tadbirlarni amalga oshirish
	Talab yuqori bo’lgan kasblarga nodavlat ta’lim muassasalari bilan o’zaro hamkorlik aloqalarini o’rnatish
	Mehnat bozorida teng raqobatlashishga qodir bo’lmagan ijtimoiy himoyaga muhtojlarni qo’llab-quvvatlash
Tashkiliy	Kasb-hunar ta’limi bitiruvchilari uchun bandlikka ko’maklashish tizimida maxsus imtizlarni qo’llab-quvvatlash
	Ish beruvchilarining bo’sh ish joylari bo’yicha reklama sifatini oshirish va monitoringini olib borish
	Ish beruvchilar bilan yollanma ishlovchilar o’rtasida tuziladigan mehnat shartnomalarni takomillashtirish

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibdiki, kasb-hunar ta’limi bitiruvchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo’llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi sababli ularning ishbilarmonlik qobiliyati kengayishi, tadbirkorlik tashabbuslari ortishi kuzatilmoqda. Natijada, ish bilan band yoshlar aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda. KBXT rivojiga keng yo’l ochib berilganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o’sishida barqarorligini ta’minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylandi.

Biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqot ob’ekti hisoblangan Jizzax viloyatida 2024 yilning 1 yanvar holatiga viloyat doimiy aholi soni 1507,4 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 31,9 ming kishiga yoki 2,2 % ga ko’paygan. Shu jumladan, 700,3 ming kishi shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 800,1 ming kishi qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi. Viloyatda qariyb bir yarim million kishi istiqomat qilsa, bunda qishloq aholisining ulushi yuqori bo’lib, bu mehnat bozorida yangi ish o’rinlari yaratish orqali ish bilan bandlikni barqaror darajada rivojlantirish mumkinligini anglatadi [9].

Jizzax viloyatining tanlangan hududlarida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy qo’llab-quvvatlash qolatlari o’rganish maqsadida sotsiologik so’rovnoma o’tkazildi. Vaqtinchalik ishga joylashmagan yoshlarning “Yosh kadr sifatida ish qidirishda kimlarga murojaat etasiz?, degan savolga - 13,8 % i ota-onasiga, 29,3 % i davlat bandlik xizmatiga, 10,4 % i nodavlat bandlik xizmatiga, 9,7 % i gazeta e’lonlariga, 15,7 % i internet veb-saytlariga, 9,7 %i bevosita korxonalarning o’ziga, 8,9 %i tanishlariga murojaat qilganliklarini bildirganlar. Sotsiologik tahlil natijalariga ko’ra, “Yosh tadbirkorlarni banklardan kredit olishida mavjud qiyinchiliklar haqida

nima deysiz?” - degan savolga respondentlar quyidagicha javob berdilar:

- yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan kredit berish uchun me'yoridan ortiq hujjatlar talab etiladi (32,5%);

- yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan kredit berishda shaffoflik ta'minlanmagan (34,5%);

- yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan yuqori kredit foizi o'rnatilgan (30,0%);

- yosh tadbirkorlar uchun bank muassasasi tomonidan imtiyozli kredit foizini to'lash muddati qisqa belgilangan (17,8,0%) va boshqa sabablarni (3,5%) qayd qilganlar.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatining tashkil qilinishida yoshlarning kasbiy layoqatlarini shakllantirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etish, tadbirkorlikning motivatsiya va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishning quyidagi eng muhim yo'llariga e'tibor qaratish lozim:

- kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda motivatsiya, ko'nikma hosil qilish mexanizmlarini joriy etishning

o'ziga xos xususiyatlari asosida yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratishda kichik biznes sub'ektlari, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'nalishlarini takomillashtirish;

- mahallalarda "drayver" loyihalarni amalga oshirishda tadbirkorlarga ko'maklashish va shu orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning zamonaviy shakllarini takomillashtirish;

- yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik layoqatlarini ko'nikmalarini oshirish, zamonaviy tajribalarni boyitib borishning tajribasini ommalashtirish va boshqalar.

- kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik faoliyatlari bo'yicha mehnat bozoriga birinchi marta kirgan yoshlar uchun yangi ish joylari tashkil etishni davlat tomonidan tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, xususan, mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va sotishni tashkil etishga ko'maklashuvchi infratuzilmani samarali rivojlantirish;

- tadbirkorlik faoliyatidagi yangi va mavjud ish o'rinlarida mehnat qilish, ovqatlanish va dam olish sharoitlarini yaxshilash, hamda mehnat, texnika va tabiiy ekologik xavfsizliklarini ta'minlash asosida yosh yigit-qizlarning mehnatga moslashuvchanligi va doimiy ishlarga joylashishini oshirish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston — 2030» strategiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/098
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Har bir oila-tadbirkor" Dasturini amalga oshirish to'g'risida qarori. 2018 yil. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018 y., 07/18/3777/1325 – son. Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumoti. Stat.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni. lex.uz

5. Sh.R.Xolmo'minov, K.Z.Xomitov, N.U.Arabov, J.X.Bobanazarova, X.X. Abduramanov. qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari (monografiya). - Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2019, 200 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmoni. www.Lex.uz.
7. Q.X.Abdurahmonov Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. Darslik.-T.: O'zR FA "Fan", 2019. – 475 b.
8. G.Q.Abduraxmanova Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholining ish bilan bandligini tartibga solish.I.f.n.diss.T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot instituti - 2010.-36-37 b.
9. Jizzax viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.2024.

УДК: 330.341.12

Хасанхонова Нодира Исаметдиновна,
PhD, доцент кафедры «Экономическая теория»
Ташкентский государственный экономический университет
xasanxonova@mail.ru

РОЛЬ ИНСТИТУТОВ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ ЗНАНИЙ

Xasanxonova Nodira Isametdinovna,
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası dotsenti, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
xasanxonova@mail.ru

BILIM IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHDA INSTITUTLARNING O‘RNI

Khasankhonova Nodira Isametdinovna,
PhD, Associate Professor of the Department of Economic Theory,
Tashkent State University of Economics
xasanxonova@mail.ru

THE ROLE OF INSTITUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE ECONOMY

Аннотация: в статье рассматривается значимость институтов как ключевых элементов, способствующих эффективному функционированию экономики знаний. Выделяются основные функции институтов: формирование и распространение знаний, поддержку научных исследований, развитие инноваций и создание инфраструктуры для их внедрения. Работа акцентирует внимание на том, как стабильные и адаптивные институты могут способствовать ускорению трансформации знаний в экономические результаты, повышению конкурентоспособности стран на глобальной арене и решению социальных задач. Исследование подчеркивает, что взаимодействие между различными институтами является решающим фактором для успешного развития экономики знаний и достижения устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: экономика знаний, инновации, трансформация, цифровые платформы, научные исследования, разработки, интеллектуальный капитал, стартапы.

Annotatsiya: maqola bilimlar iqtisodiyotining samarali ishlashiga hissa qo‘shadigan asosiy elementlar sifatida institutlarning ahamiyatini ko‘rib chiqadi. Institutlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bilimlarni shakllantirish va tarqatish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-

quvvatlash, innovatsiyalarni rivojlantirish va ularni amalga oshirish uchun infratuzilmani yaratish. Ishda barqaror va moslashuvchan institutlar bilimlarni iqtisodiy natijalarga aylantirishni tezlashtirish, mamlakatlarning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam berishga qaratilgan. Tadqiqot turli institutlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik bilimlar iqtisodiyotini muvaffaqiyatli rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

Tayanch so'zlar: bilim iqtisodiyoti, innovatsiyalar, transformatsiyalar, raqamli platformalar, ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar, intellektual kapital, startaplar.

